1. Jahongir Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti... 3-kursi... o'qiydi. 2. Talabalar institut... hovlisi... turli mevali daraxt... o'tqazdilar. 3. O'z pullaringiz... xarajat qilish... inflyatsiya... qay darajada hisob... olasiz? 4. Firma... tashqi iqtisodiy aloqalar dasturi... tuzishda biz bir necha qo'shimcha ko'rsatkichlar kiritdik. 5. Xaridor tovar... past narx... sotib oladi. 6. O'z fikrlaringiz... kategoriyalari... talab, taklif, bozor, baho, raqobat va boshqalar tashkil qiladi.

### Otlarning yasalishi

(Образование имен существительных)

1. Основная часть имен существительных в узбекском языке образуется присоединением к исходной основе слов словообразующих аффиксов. Существительные, образованные таким морфологическим способом, подразделяются на четыре группы.

а) Имена существительные, обозначающие названия лиц. В основном они образуются с помощью следующих аффиксов:

-**chi**: rayvandchi - сварщик, a'lochi - отличник, haydovchi - водитель;

-**dosh**: kursdosh - сокурсник, tengdosh - ровесник, zamondosh - современник;

-**kor**: binokor - строитель, paxtakor - хлопкороб, ijodkor - творец;

-**soz**: metrosozlar - метростроители, soatsoz - часовщик, aviasozlar - авиастроители (обычно употребляется во множественном числе);

-**shunos**: tovarshunos - товаровед, adabiyotshunos - литературовед, san'atshunos — искусствовед;

-**kash**: suratkash — художник, chizmakash — чертежник, mehnatkash — трудящийся;

-**paz**: oshpaz - повар, kabobpaz - шашлычник, so'nsapaz - сямсовщик.

б) Имена существительные, обозначающие названия предметов, орудий действия. В образовании данных существительных активно участвуют следующие аффиксы:



(-ik, -ak) -k, -q, (-iq, -uq, -oq): tilak - желание, og 'riq - боль, buyruq - приказ, so'roq - вопрос;

-gi (-ki, -qi): supurgi — веник, turtki — толчок, chorqi — таяпка;

-gich (-kich, -qich, -g'ich): o'lchagich - измеритель, ko'rsatkich - показатель, tutqich — ручка, o'chirg'ich — резинка;

-ma: eritma — раствор, uyushma — союз, yo'qlanma — переключка, qo'llanma — пособие.

в) Имена существительные, обозначающие названия мест, образуются с помощью следующих аффиксов:

-zor: gulzor — цветник, lolazor — тюльпановое поле, bodomzor — фисташковая роща;

-xona: qabulxona — приемная, oshxona — столовая, yotoqxona — общежитие;

-iston: guliston — цветник, qabriston — кладбище, O'zbekiston.

г) Имена существительные, обозначающие названия отвлеченных понятий, образуются при помощи следующих аффиксов:

-lik: tinchlik — мир, bolalik — детство, aniqlik — точность;

-chilik: paxtachilik — хлопководство; ipakchilik — шелководство.

**19-mashq.** *Qo'shimchalar yordamida yasalgan otlarni rus tiliga tarjima qiling.*

1. Xonada faqat ashulachilar qolishdi. 2. Bugun choyxona klubiga adabiyotshunos va san'atkorlar yig'ilishadi. 3. Bu yigit O'rikzor mahallasida turadi. 4. Pochtalonlik xayrli kasb. 5. Mehnatkashlar jamg'armalarini omonat kassalarda saqlaydilar. 6. Guruhdoshimning oshpaz do'sti bor. 7. O'zbekistonda paxtachilik, chorvachilik, bog'dorchilik rivojlangan. 8. Metrosozlar mehnatini suratlashlar pardoqlab, yer osti yo'laklariga rasm soldilar. 9. Ijodkorlar do'stlik, tinchlik to'g'risida she'r o'qidilar. 10. O'lchagich bilan suyuqlikning issiqligi o'lchanadi.

Существительные также образуются путем соединения двух простых слов. Существительные, образованные таким синтаксическим способом, имеют три вида.

1. **Qo'shma otlar** (сложные имена существительные): ko'zoynak-очки, dunyoqarash мировоззрение, atirgul rosa, Yunus-Obod, Toshpo'lat;

2. **juft otlar** (парные имена существительные): ota-ona - родители, asbob-uskuna - оборудование, ora-singil - сестры, urf-odat - обычай, meva-cheva - фрукты;

3. **qisqartma otlar** (сокращенные имена существительные): BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) - ООН, O'zTAG (O'zbekiston Telegraf Agentligi) УзТАГ.

**20- mashq.** *Quyidagi so'zlardan o'zakkosh so'zlar yasang.*

Suv, yig'ir, o'r, baliq, oyna, ipak.

**21- mashq.** *So'zlarni ma'noli qismlarga ajrating.*

Yordamchi, terimchi, unumli, sersuv, ishchiga, olmasorda, daftarim.

**22- mashq.** *Ko'chiring. So'z yasovchi qo'shimchalarning tagiga chizing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni qatnashtirib ikkita gap yozing.*

Traktorchi, baliqchi, tabelchi, ashulachi, paxtakor, o'roq, ochiq, yoyiq, tartibli, moyli, toshqin, uchqun.

**23- mashq.** *Ko'chiring, yozilishini bilib oling.*

Havaskor, halqum, harakat, hafta, hazil, husayni, hosil, hoshiya, hujjat, hukumat, hunar, hushtak, ho'kiz, hofiz, hushyor, hammom, hamroh, handalak, harom.

**24-mashq.** *Kelishik qo'shimchasini bilan turlangan otlarni o'zi bog'langan so'z bilan so'z birikmasi tarzida ko'chiring.*

*Namuna: Bolalarini o'ynatar edi...*

Ona mushuk bolalarini o'ynatar edi. Bir burgut uchib kelib, mushuk bolalariga hujum qildi. Bir mushuk bolani tutib oldi. Ona mushuk burgutning ustiga tashlandi. Burgut o'tkir tirnoqlari bilan ona mushukni tirnab tashladi. Ona mushuk burgutni bo'g'ib o'ldirdi. U bolasini yalay boshladi.

**25-mashq.** *Imlo qoidasiga mos qo'shimchani qo'shib ko'chiring.*

1. Qolgan ish (-ga, -ka) qor yog'ar. (Maqol.) 2. Ko'k ko'ylak (-ka, -ga) g'o'za yoydim. (Topishmoq: osmon va yulduz.) 3. Egilgan tayoq (-qa, -ga) suyanma, seni ham egadi. (Maqol.) 4. Hovlimizdagi terak (-ka, -ga) chumchuq in qo'ydi. 5. Do'st bosh (-ga, -ka) kulfat tushganda sinaladi.

(Maqol.) 6. Qalandarov Toshkent (-ka, -ga) kelsa, sirk (-ga, -ka) kirmay ketmas edi. (A.Q.) 7. Buloq (-qa,-ga) ham, qishloq (-qa, -ga) ham Oyko'l nomi berilgan. (P.Q.) 8. Sayyohlar tog' (-qa,-ga) ko'tarildilar.

**26-mashq.** *Nuqtalar o'rniga mos kelishik qo'shimchalarini qo'shib o'qing.*

1. Oltin o't..., odam mehnat... bilinadi. 2. Aql yosh... emas, bosh...  
. 3. O'roq... yo'q, mashoq... yo'q, xirmon... hozir. 4. Kattaga hizmat..., kichikka izzat... bo'l. 5. Ot... baland..., it... past. (Topishmoq: egar.) 6. Mehnat... qo'rqma, minnat... qo'rq. 7. Qish... uxlab yalang'och, bahor... qo'yar yashil soch. (Topishmoq: daraxt.)

**27- mashq.** *Ko'plikdagi otlarni ko'chirib yozing.*

Mashinalar, trolleybuslar, ishladilar, suvlar, yedilar, soatlar, so'zladilar, direktorlar, aytdilar, navbatchilar.

**28-mashq.** *Ko'chiring, -lar qo'shimchasini olgan otlarning tagiga chizib, ma'nosini aytib bering.*

1. Bu ishlarning boshida G'ulomjon, Quadrat, Alimbuvalar turishdi. (M.Ism.) 2. Sening xotirangni unutmas aslo mening yuraklarim, O'rta Osiyo. (B.Inber.) 3. Avazlarning bir cheti chorbog'ga tutashgan kattagina hovlisi bor. (P.Q.) 4. Farhod emas, minglab farhodlar keldi. (U.) 5. Oradan besh kunlar o'tdi. (A.Qod.) 6. U vaqtda Turg'un o'n ikki yoshlarda edi. 7. G'ulomjonlar do'ng orqasidagi chuqurlikda bo'lganlari uchun otliqni ko'rolmadilar. (M.Ism.) 8. Gullamoqda Mirzacho'llar, yam-yashildir Yangiyo'llar. (P.M.)

**29-mashq.** *O'qing. Tarkibida qo'shma ot bor gapni ko'chirib yozing.*

Zumrad asta o'rnidan turdi, yengil qadamlar bilan tashqariga chiqdi. Hovlining olachalpoq soya sahniga tushdi. Chamanday gulzor quyoshda ko'rkam tovlanadi. Gurkirab o'sgan sadarayhonlar, qashqar-gullar, gultojixo'roz, xina... Biri-biridan go'zal, biri-biridan xushbo'y. Zumrad ko'tarinki ruh bilan gulzorni bir aylanib chiqdi. (O.)

**30- mashq.** *Qoshma otlarni ko'chirib yozing.*

Kecha-kunduz, boshpana, bola-chaqa, belkurak, shovqin-suron, yarog'-aslaha, dinamo, mashina, toshbaqa, tog'uzum, yapaloqqush, xavf-xatar, yumronqoziq, chaqmoqtosh, mingoyoq.

### **31- mashq.** *Juft otlarni ko'chirib yozing.*

Bosvoldi, dod-faryod, oqsoch, o'q-dori, ot-ulov, qo'l-oyoq, mol-mulk, ot-arava, tish-tirmoq, qiymataxta, ituzum, qurol-aslaha, shovqin-suron, yor-birodar, qo'ni-qo'shni.

### **32-mashq.** *O'qing. Atoqli otlarni bosh kelishikda ko'chirib yozing. Mazmunini qayta hikoya qilib bering.*

Umida Saidadan tez-tez xabar olib turadi. Idora xizmatchilaridan bir necha kishi kirdi. Usmonjon keldi. Mehri kelgan edi, odam borligini ko'rib eshikdan qaytdi. Eshon bir choynak choy ko'tarib kirib, hol-ahvol so'radi. Zulfiqorovning xotini bitta qiyiqchada uch-to'rtta anor, bir kilodan mo'lroq sariq kishmish olib keldi. Maktab direktori, ikki o'qituvchi kelib ketdi. Tushdan keyin Huriniso dasturxon ko'tarib keldi, uzoq o'tirdi, ketishda Saidani olib ketmoqchi bo'ldi. Saida qulluq qildi "Kasalni erkalatsangiz, kasallik haddan oshib ketadi"- dedi. (romandan parcha)

### **33-mashq.** *Matndagi kelishik qo'shimchalarini ko'makchilar bilan almashtiring.*

Buyuk o'zbek astronomi Amir Temurning nabirasi Shohruh Mirzoning o'g'li Muhammad Tarag'ay Mirzo Ulug'bek nomi bilan shuhrat qozonadi. Muhammad Tarag'ay Xuroson shahrida tug'iladi. 15 yoshigacha o'qib, astronom shoir bo'lib yetishadi. Amir Temur vafot etgach, to'rt yil toj-taxt uchun kurash davom etadi. Keyin Shohruh Mirzo hokimiyatni qo'lga kiritadi. O'zi Xurosonga podshoh bo'lib, poytaxti Samarqand bo'lgan Mavarounnahrni Ulug'bekka topshiradi. Mirzo Ulug'bek taxtga o'tirgach, o'z atrofiga ilm-fan, san'at va adabiyot ahllarini to'playdi. Temur davrida qurila boshlagan "Bibixonim" madrasasi, "Go'ri Amir" maqbarasi va "Shohi Zinda" binolari ansamli qurib bitkazadi. Ko'plab jamoat binolari, 1424-yili Obirahmat suvi yonidagi tepalikda uch qavatli katta rasadxona—observatoriya qurdiradi. Shu rasadxonada Ulug'bekning o'zi 1018 yulduzning harakatini o'rganib, "Ziji Ko'ragoniy" degan astronomik jadval yaratdi va "To'rt ulus" (tarix)ini yozdi.

Mirzo Ulug'bek tibbiyot va musiqa bilan qiziqqan, she'rlar ham yozgan. Reaksiyon kuchlar Ulug'bekka qarshi suiqasd uyushtiradi va 1449-yil 27-oktabrda fojiali o'ldiriladi. Buyuk o'zbek astronomi va matematigi, davlat arbobi Mirzo Ulug'bekning ilmiy va madaniy merosi jahon fani va madaniyati rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shilgan.

### Topshiriq.

1. Matndagi ko'makchilarni ajrating.
2. Ko'makchi fe'llar haqida ma'lumot bering.
3. Ot ko'makchilarga misol ayting.

## 6 – mashg'ulot Nima bilan shug'ullanasan?

### Suhbat

— Sen bo'sh vaqtingda nimalar qilishni yoqtirasan?

— Bo'sh vaqtimda musiqali kliplarni ko'rib, tinglashni yaxshi ko'raman.

— Senga qanday kliplar yoqadi?

— Menga zamonaviy musiqa kliplari yoqadi. Ayrim vaqtlarda mumtoz musiqalarni ham sevib tinglayman.

— Kimlarning audio kassetalari va disklari senda bor?

— Ortiq Otajonov, Komiljon Otaniyozov, Bobomurod Hamdamov, Yulduz Usmonova, Gulsanam Mamazoitova, Dilfuza Rahimova, Rayhon, Umida Mirhamidova va boshqa xonanda va sozandalarning audio kasseta va disklari bor.

— Ularni senga kim olib beradi?

— Dadamlar. Ular ham men bilan birga tinglab, tomosha qiladilar. Ayrim ijrochilar haqida to'liq ma'lumot berib, menga tushuntiradilar.

\* \* \*

— Nargiza, bo'sh vaqtlaringda nimalar bilan shug'ullanasan?

— Men bo'sh vaqtimda bichish - tikishni oyimlardan o'rganaman.

— Oyinglar tikish - bichishni qayerdan o'rgananganlar?

— Ular yoshliklaridan boshlab qo'g'irchoqlariga kiyimlar tikar ekanlar. Chevar bo'lishni chin dildan niyat qilganliklari uchun bichish - tikish kursini tugatib, atelyeda 10 yildan ko'proq ishlagan ekanlar. Akapalarim katta bo'lganlaridan keyin, uyda qolib chevarchilik qilar ekanlar. Men ham ikkinchi kasbim tikuvchilik bo'lishini juda xohlayman.

— Mening senga juda havasim kelyapti. Men bo'sh vaqtlarimda nozik to'qish to'garagiga borib turaman. Borganimdan beri ancha narsalar to'qib qo'ydim. Senga olib kelib ko'rsataman.

\* \* \*

— Sanjar, sen bo'sh vaqtingda nima bilan shug'ullanasan?

— Men bo'sh vaqtimda futbol o'ynashni juda yaxshi ko'raman. Shuning uchun futbol to'garagiga muntazam qatnashaman.

— Haftada necha marta borasan?

— Haftada uch marta boraman.

— Trenering kim?

— Sobir Davlatovich.

— Treneringni hurmat qilasanmi?

— Albatta. Chunki ular biz - shogirdlarga futbolning sirlarini tushuntirib boradilar. Shahar va viloyat musobaqalariga olib borganlarida, otalardek g'amho'rlik qiladilar. Ularning talabchanliklarini hammamiz juda yoqtiramiz va ularni hurmat qilamiz.

*Topshiriq.* Guruhdagi o'rtoqlaringiz bilan dialoglar tuzing.

**34-mashq.** Berilgan so'zlardan antonomik juftlar hosil qiling va yozing.

*Namuna:* rost-yolg'on...

Kun, rost, xursand, yolg'on, keng, tun, yorug', tuzmoq, ingichka, sovuq, yo'q, o'ng, past, sekin, buzmoq, xafa, tor, yo'g'on, issiq, quyi, kirish, chap, baland, tez, yuqori, bor, chiqish, qorong'i.

**35-mashq.** Savollarga javob bering.

1. Makkajo'xori donini quruq qovurganda nima hosil bo'ladi?
2. Sholi orasida nima o'sadi?
3. Bozor non (obinon) ustiga nima sepiladi?
4. Chegarachi postda qanday turadi?
5. Jinoyatchi nimani bo'yniga oladi?
6. Chaqaloq qayerda yotibdi?
7. Qo'yning kuzgi juni bosilsa, nima hosil bo'ladi?
8. Gilam, palos ko'paygandan keyin nimaga ehtiyoj kamaydi?
9. Simni nima bilan uzding?
10. O'choqdan olovni nimada olding?
11. Shipda nima osig'liq?
12. Ip nimaga o'ralgan?
13. Talqon qilish uchun nima kerak?
14. Derazaga nima osilgan?
15. Qizcha sochini tarash uchun nimaga qarayapti?
16. Sen yostiqqa nima kiydiryapsan?
17. Ilgari suv nimada saqlanar edi?
18. Hamshira ukol qilish uchun bemorning bilagidan nimasini qidiryapti?
19. Bemor nima uchun ovqat yemayapti?
20. Gripp paytida kishida qanday holatlar yuz beradi?

**36 - mashq.** Matnni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.

Ona-zaminda o'sgan mevali, manzarali dov-daraxtlar, o'simliklar inson hayoti, salomatligi uchun naqadar zarur, ularning shifobaxshligi-chi?

Giyohlar va dov-daraxtlar gulidan, bargidan, tanasidan qancha-dan qancha turli-tuman dori-darmonlar tayyorlanib, odamlarni, hayvonot olamini kasalliklardan saqlashda foydalaniladi.

Ilgari odamlar tabiat in'omi bo'lgan meva-chevalarni, giyohlarni shundayligicha iste'mol qilganlar. Keyinchalik esa shifobaxsh o'simliklar chinakamiga o'rganildi, turlarga ajratildi, o'zgartirildi, qayta-qayta tiklandi. Natijada ne-ne ho'l mevalar yil davomida dasturxonni bezab turadi.

**37-mashq.** *O'qing, takrorlang, ma'nosini izohlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.*

Og'zi tegdi; chillaki chillakini ko'rib chumak uradi; og'zi ochilib qoldi; yaxshi ko'rib qolmoq, yo'lini bilmoq.

## **So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari**

### **Омонимлар**

(ОМОНИМЫ)

Омонимами (от греч. *homos* - одинаковый, *опушта* - имя) - называются слова, которые пишутся и произносятся одинаково, но имеют разные, не связанные друг с другом лексические значения, например: ot (лошадь), ot (бросай, стреляй - от глагола otmoq-1. бросать, 2. стрелять); chortoq (бегать) - chortoq (рубить); kul (зола) - kul (смейся); soch (волос) - soch (от глагола sochmoq сыпать, посыпать); tut (тутовник) - tut (поймай); o'q (пуля) - o'q (ось); o't (трава) - o't (желчь). Эти слова ничего общего в своем значении не имеют.

So'zlar nutqimizda fikrimiz ifodasi sifatida ishlatiladi. Har bir so'zning o'z va ko'chma ma'nosi bor. O'z ma'nosini ifodalagan so'z masalan: qalam (yozuv quroli) da yozdim. Qalami o'tkir (she'ri, yozma nutqi ta'sirli degan ma'noda qo'llaniladi).

Har bir so'zning shakli ma'nosiga nisbatan turli munosabatda kelishi mumkin. Masalan, shakli bir xil, ma'nosi har xil so'zlar shakldosh (omonim) so'zlar deyiladi.

Shakl yozuvda bir ko'rinishga ega bo'lishi bilan, nutqda turli ohangda, turli ma'noda ishlatilishi kuzatiladi. Masalan:

yoz → fast  
 yoz → yozmoq (qalamda)  
 yoz → yozmoq (dasturxonni)

olma → meva turi  
 olma → tegma

Olma - meva turi, olma – fe'lining bo'lishsiz shakli, -ma qo'shimchasi urg'u olmaydi.

Demak, omonimlar bir xil talaffuz qilinmasligi mumkin.

### 38-mashq. Quyidagi omonimlarni qo'llab gap tuzing.

Qo'uy (баран) – qo'uy (поставь); tush (спускайся) - tush (полдень); osh (еда) - osh (перелезай); qirq (сорок) - qirq (режь), yot (чужой) - yot (ложись); tur (вид) - tur (вставай).

### 39-mashq. Omonim so'zlarni toping va ma'nolarini aniqlang.

1. Laganni keltir, qovun va tarvuzlarni chiroyli qilib til. 2. Mahorat bilan pishirilgan til juda lazzatli bo'ladi. 3. Ular shunday do'stki, oralaridan qil ham o'tmaydi. 4. So'zdan so'zning farqi bor, o'ttiz ikki narhi bor (Maqol). 5. "Bor otangga, bor onangga" deb sansolarlik qilish rasmiyatchilikning birinchi belgilaridandir. 6. Odam bo'laman desang, bilim ketidan quv. 7. Ayyor, shum, quv odamlar hech kimga yaxshilikni ravo ko'rmaydilar, faqat o'zlarini o'ylaydilar. 8. Yaxshilik qil, suvga ot, suv bilmasa, baliq biladi (Maqol). 9. Ot bilan to'ng'iz bir ko'lماكdan suv ichmaydi (Naql). 10. Farzandga yaxshi ot qo'yomoq otaning burchidir (Hadisdan). 11. Bolam, yaxshilik qil, yomonlikni ot.

**Topshiriq.** Ko'p ma'noli so'zlar bilan omonimlar o'rtasida qanday farq borligini tushuntiring.

### Sinonimlar (Синонимы)

Синонимы от греч. *synonymos* — одноименный. Слова, различные по звучанию, но близкие по смыслу, называются синонимами. Примеры: *chiroyli, go'zal, husndor, husnli, hushro'uy, ko'hlik, ko'rkam, zebo, latofatli, sohibjamol*; они объединены значением "красивый".

Синонимы служат для передачи тонких оттенков смысла.



## Antonimlar

(Антонимы)

Антонимы от греч. *Anti* — против, *опута* — имя.

Слова, противоположные по значению, называются антонимами. Например: *azob* - *rohat* (мучение, страдание - наслаждение, блаженство); *ayblamoq* - *himoqa qilmoq* (обвинять - защищать).

Антонимы служат для передачи противоположных понятий.

**40-mashq.** *Sinonim so'zlarni toping va tarjima qiling; ma'no farqlarini tushuntiring. Lug'at tuzing.*

Aqlli bolalar birovlar bilan urishmaydi. Yoqalashgan yoqavayron bo'ladi. Muttasil yoqqan qor yo'llarni to'ldirib, transport harakatiga zarar keltirdi. Tinimsiz shovqin asabni ishdan chiqaradi. Surunkasiga yomg'ir yog'ib, dalada ishlar to'xtab qoldi. O'qigandan uqqan yaxshi. Darsni puxta tushunib oling. To'satdan zilzila bo'lib qoldi. Qo'qqisdan qarsillagan momoqaldiroq hammani cho'chitib yubordi. To'satdan elektr chirog'i o'chib qoldi. Tog' tomondan sel kelib qoldi.

**41-mashq.** *O'qing, antonim so'zlarning ma'nolarini tushuntiring.*

1. **Yaxshiga** yondash, **yomondan** qoch (Maqol). 2. **Yaxshidan** ot qoladi, **yomondan** dod (Maqol). 3. **Katta** - **kichik** ekin maydonlari ko'zga chalina boshladi. 4. Ko'chat ekishni endi **boshladik**, qo'shnilarimiz esa kecha **tugatishdi**. 5. **Bilimli** o'zar, **bilimsiz** to'zar (Maqol). 6. **Axmoq** do'stdan **aqlli** dushman yaxshi (Maqol). 7. **O'zingniki** o'ldirmas, **yot** yorla-qamas (Maqol).

## Lug'at

birov — другой	o'chmoq — погаснуть
urishmoq — драться	yondoshmoq - приближаться
to'satdan — неожиданно	qochmoq — убежать
muttasil — постоянно	boshlamoq — начать
zarar keltirmoq — повредить	tugatmoq — кончать
нанести вред	to'zmoq — распыляться
yot — чужой	asab — нерв

**42-mashq.** *She'rni yodlang. Uni yoddan yozib, sinonimlarning tagiga chizing; ulug', ozodlik, qutlug' so'zlarining sinonimlarini yozing.*

Maqsadimiz tog'day ulug',

Chambarchasdir tutash qo'llar!  
Ozodlikning yo'li qutlug',  
Olg'a, do'stlar, og'aynilar!

*Miraziz A'zam*

**43-mashq.** *Ko'p, kuldi, buyuk so'zlarining sinonimlarini topib, ularning har biri ishtirokida gaplar yozing.*

**44-mashq.** *O'qing. Chap tomondagi so'zlarga o'ng tomondagi so'zlardan sinonimlarini topib, ularni sinonimik qator tarzida yozing.*

*Namuna: kasal, betob, bemor.*

Kasal	qidirdi, jilmaydi
Kuldi	burun, bemor
Avval	qadim, xaxoladi, axtardi
Izladi	betob, oldin, iljaydi

**45-mashq.** *Ko'chiring. Har qaysi sinonimik qatordagi birinchi so'zning tagiga chizing. Bu so'zni shu sinonimik qatordagi boshqa so'zlar o'rniga ishlatib ko'ring.*

1. Puxta, pishiq, mustahkam, mahkam.
2. Ko'p, ancha, talay, mo'l, serob.
3. Ishchan, harakatchan, serharakat, g'ayratli.

**46-mashq.** *O'qing. Nuqtalar o'rniga quyida berilgan sinonimlardan mosini qo'yib ko'chiring.*

Sinonim so'zlar: mahorat, ustalik, vaqt, choq, payt, zamon, sevindi, quvondi, xursand bo'ldi.

1. Shu qo'ng'iroq chalinib, hamma o'quvchilar sinflarga kirib ketdilar. 2. Yosh havaskorlar har bir qo'shiq va raqsni zo'r ... bilan ijro etdilar. 3. Otam kundalik daftardagi baholarimni ko'rib ...

**47-mashq.** She'rni o'qing, "So'z qadri" mavzusida matn tuzing.

So'zdurki, nishon berur o'likka jondin,  
So'zdurki, berur jonga xabar jonondin.  
Insonni til ayladi judo hayvondin,  
Bilki, guhari sharifroq yo'q ondin.

*A. Navoiy*

**48-mashq.** O'qing. Sinonim so'zlar ishtirokida to'rtta gap tuzing.

Ot, ism, nom; yuz, bashara, bet, chehra; o'qituvchi, muallim, tarbiyachi, murabbiy; barg, yaproq; tovush, ovoz, sado; vaqt, zamon, davr, payt; qush, parranda; o'rtoq, do'st, birodar; tilak, istak, orzu, havas; sovg'a, tuhfa; xat, maktub; odam, inson, kishi; shoh, podsho; taom, ovqat; botir, qo'rqmas; kekxa, mo'ysafid; kambag'al, bechora; yugurdi, chopdi; istamoq, qidirmoq; kiyim, libos; bosh, kalla; shirin, mazali; yaxshi, durust; so'zladi, gapirdi; ovoz, tovush, nido, sado, un, sas.

**49-mashq.** O'qing. Ot-antonimlar ishtirokida gaplar tuzing va ularnu yozing.

Kecha va kunduz; tun va kun; do'st va dushman; yoshlik va qarilik; rostgo'ylik va yolg'onchilik; ochlik va to'qlik.

**Topshiriq.** Berilgan so'zlarni daftaringizga ko'chirib yozing.

#### **Antonimlar:**

baxtli — baxtsiz;  
bahor — kuz;  
begunoh — gunohkor;  
bezbet — iboli;  
bezovta — xotirjam;  
beixtiyor — jo'rttaga;  
bekitmoq — ochmoq;  
bemaza — mazali;  
bemalol — zo'rg'a;  
bermoq — olmoq;  
betob — sog';  
bilimli — bilimsiz;  
birlashmoq — tarqalmoq;  
bir xil — har xil;  
boy — kambag'al;  
bor — yo'q;  
bormoq — kelmoq;  
bosiq — yengiltak;  
xafa — xursand;  
azob — rohat;  
butun — yirtiq;

butun — siniq;  
faol — loqayd;  
avval — keyin;  
yaqin — uzoq;  
arzon — qimmat;  
achchiq — shirin;  
badbashara — go'zal;  
baland — past.

### Sinonimlar:

baxtli, baxtiyor, saodatli;  
baxtsiz, bebaxt, tolesiz, baxti qaro;  
samarali, serunum, unumli;  
begona, yot;  
begunoh, gunohsiz;  
iboli, tortinchoq, uyatchang, sharm-hayoli;  
beixtiyor, behosdan, to'satdan;  
jo'rttaga, atayin, ataylab;  
shirin, lazzatli, mazali, totli, laziz;  
ziyrak, idrokli, tamizli, farosatli, fahmli;  
bilimli, o'qigan, ilmli, o'qimishli;  
bilimsiz, o'qimagan, ilmsiz;  
yolg'iz, tanho;  
birlashmoq, uyushmoq;  
boy, badavlat, davlatmand, davlatli, serdavlat;  
kambag'al, qashshoq, faqir, bechorahol;  
bor, mavjud;  
bosiq, og'ir, vazmin, sipo;  
xafa, g'amgin, gamli, g'ussali, qayg'uli, qovog'idan qor yog'adi;  
xursand, shod, xurram, xushnud, vaqti chog', og'zi qulog'ida.

### 7 – mashg'ulot Oraliq nazorat -1

## 8 – mashg‘ulot

### Biz ahil oilamiz

Bizning oilamiz to‘qqiz kishidan iborat: bobom, buvim, otam, onam, akam, opam, singlim, ukam va men. Bobom va buvim – nafaqaho‘r. Otam-vrach. U tuman kasalxonasida ishlaydi. Onam – o‘qituvchi. U maktabda o‘zbek tilidan dars beradi. Akam jamoa xo‘jaligida traktor parkida mexanik bo‘lib ishlaydi. U paxta terish mashinalarini ta‘mirlaydi.



Opam - aspirant. U universitet laboratoriyasida tajribalar o‘tkazadi. Singlim o‘rta maktabda o‘qiydi. Ukam bolalar bog‘chasiga boradi. Men Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedogogika universitetining filologiya fakulteti talabasiman. Bizning oilamiz a‘zolari bir-birini juda hurmat qiladi. Oilamizda hamma mehnatni sevadi. Bir daqiqa ham vaqtimiz bekorga ketmaydi. Ichimizda musiqa chaluvchilar ham, rasm soluvchilar ham, ashula aytuvchilar ham, sport bilan shug‘ullanuvchilar ham bor. Mehnat, san‘at, va sport – bizning do‘stimiz.

Biz juda inoq yashaymiz.

**Topshiriq.** Matnни o‘qing va quyidagi savollar yordamida gapirib bering.

1. Siz qayerda yashaysiz?
2. Sizing oilangiz necha kishidan iborat?
3. Otangiz qayerda ishlaydi?
4. Onangiz-chi?
5. Akangizning kasbi nima?
6. Opangizning kasbi-chi? U kim bo‘lib ishlaydi yoki o‘qiydi?
7. Oilangiz a‘zolari bo‘sh vaqtida nima bilan shug‘ullanadi?

## 8. Oilangiz inoqmi? Ularning inoqligini siri nimada?

**Topshiriq.** Maktubni o'qing va namuna yordamida tanishingiza xat yozing.

Assalomu alaykum, aziz oyijon va dadajon!

Sog'liqlaringiz yaxshimi? Qarindosh-urug'lar eson-omon yurishibdimi? Meni so'ragan do'stlaringa ko'pdan-ko'p salom aytinglar.

Mening sog'lig'im, o'qishlarim yaxshi. Menga litseyimiz yonida qurilgan yotoqxonadan joy berishdi. Xonada uchta bola turamiz. Men bilan yashaydigan bolalarning ismlari Sanjar va Odilxon.

Kecha maktabda birga o'qigan sinfdoshim Alisherni ko'rib qoldim. Birga o'qiyotgan o'rtoqlari bilan sayr qilib yurgan ekan. Azizlarim, mendan hech havotirlanmanglar. Do'stlarim bilan sira zerikayotganim yo'q. Ammo sizlarni juda sog'indim. Ukalarimning shovqiniga to'lib turadigan uyimizni qumsadim.

Darvoqe, kelayotgan bayramda uyga bormoqchiman. Beriladigan ta'til kunlariga qarab, poyezdga chipta olamiz.

Shu bilan shoshilib yozgan xatimni tugataman. Sizlarni va jaji ukajonlarimni o'pib qolaman. Meni yo'qlovchi barcha qarindoshlarga salomimni yetkazinglar.

Xayr! Sizlarni sog'ingan o'g'lingiz Dilshod.

21-dekabr, 2012-yil.

## **Fe'l zamonlari va ularning uslubiy xususiyatlari**

### **O'tgan zamon fe'li**

(Прошедшее время глагола)

Прошедшее время глагола указывает на то, что действие предшествовало моменту речи. В узбекском языке различаются разные значения прошедшего времени в зависимости от соотношения действия и конкретного времени его совершения. Эти значения выражаются следующими формами глагола прошедшего времени:

- 1) aniq o'tgan zamon fe'li (очевидное прошедшее время глагола);
- 2) yaqin o'tgan zamon fe'li (причастное прошедшее время глагола);
- 3) uzoq o'tgan zamon fe'li (давнопрошедшее время глагола);
- 4) o'tgan zamon davom fe'li (многokrратно-длительное прошедшее время глагола);

- 5) o'tgan zamon hikoya fe'li (прошедшее повествовательное время глагола);  
 6) o'tgan zamon maqsad fe'li (прошедшее время намерения).

### Aniq o'tgan zamon fe'li

(Очевидное прошедшее время глагола)

Эта форма прошедшего времени выражает действие, которое в прошлом несомненно имело место. Она образуется прибавлением к основе положительной или отрицательной формы глагола аффиксов — di+m, -di+ng, -di, -di+k, -di+ngiz, -di+lar. *Например:* Kecha adabiyot muzeyiga bordim. — Вчера я ходил в музей литературы. Biz musobaqada qatnashmadik. Biz musobaqada qatnashmadik. — Мы не участвовали в соревновании.

### Bo'lishli shakl

(Положительная форма)

Birlik	shaxs	Ko'plik
yozi+di+m — (я) написал	I	yozi+di+k — (мы) написали
yozi+di+ng — (ты) написал	II	yozi+di+ngiz — (вы) написали
yozi+di — (он, она) написал(а)	III	yozi+di+lar — (они) написали

### Bo'lishsiz shakl

(Отрицательная форма)

Birlik	shaxs	Ko'plik
ko'r+ma+di+m — (я) не видел	I	ko'r+ma+di+k — (мы) не видели
ko'r+ma+di+ng — (ты) не видел	II	ko'r+ma+di+ngiz — (вы) не видели
ko'r+ma+di — (он, она) не видел(а)	III	ko'r+ma+di+(lar) — (они) не видели

**Topshiriq.** Namunalar asosida dialoglar tuzing, aniq o'tgan zamon fe'lining shakllaridan foydalaning.

*Namuna:*

— Sen uy vazifasini bajardingmi?

— Ha, bajardim. O'zing-chi?

— Men mashqning shartini tushunmadim.

## Yaqin o'tgan zamon fe'li

(Причастное прошедшее время глагола)

Причастное прошедшее время означает действие, с момента которого прошел уже значительный период времени.

1. Положительная форма этого глагола образуется присоединением к причастию прошедшего времени (т.е. основа глагола + аффикс -gan) личных аффиксов спряжения. *Например:* Biz Anvar bilan maktabda birga o'qiganmiz.—Мы с Анваром вместе учились в школе.

### Bo'lishli shakl

(положительная форма)

Birlik	shaxs	Ko'plik
yoza+gan+man—(я) писал	I	yoza+gan+miz—(мы) писали
yoza+gan+san—(ты) писал	II	yoza+gan+siz—(вы) писали
yoza+gan—(он, она) писал(а)	III	yoza+gan+lar—(они) писали

Причастное прошедшее время глагола в узбекском языке имеет три способа образования отрицательной формы.

Значение первой отрицательной формы передается присоединением к отрицательной основе причастия прошедшего времени (т.е. основа глагола +ma+gan) личных аффиксов спряжения. Эта форма является наиболее употребительной в речи.

Birlik	shaxs	Ko'plik
yoza+ma+gan+man (я) не писал	I	Yoza+ma+gan+miz (мы) не писали
yoza+ma+gan+san (ты) не писал	II	Yoza+ma+gan+siz (вы) не писали
yoza+ma+gan (он, она) не писал(а)	III	Yoza+ma+gan+(lar) (они) не писали

Men bu kitobni o'qimaganman

2. Значение второй отрицательной формы передается при



помощи отрицательного слова **emas**, которое ставится после положительной формы причастия прошедшего времени и спрягается с личными аффиксами.

Birlik	shaxs	Ko'plik
yozgan emas+man	I	yozgan emas+miz
yozgan emas+san	II	yozgan emas+siz
yozgan emas	III	yozgan emas+(lar)

Bobir kurashda yutqazgan emas

3. Значение третьей отрицательной формы передается присоединением к причестию прошедшего времени притяжательных аффиксов и слова.

Birlik	shaxs	Ko'plik
yoz+gan+im yo'q	I	yoz+gan+imiz yo'q
yoz+gan+ing yo'q	II	yoz+gan+ingiz yo'q
yoz+gan+i yo'q	III	yoz+gan+(lar)i yo'q

Biz hali o'zbek tilini o'rganganimiz yo'q

**50-mashq.** *Quyidagi savollarga yaqin o'tgan zamon fe'llari ishtirokida javob yozing.*

—Siz maktabni qachon tugatdingiz?

—Qaysi fanlardan past baho olgansiz?

—O'rtoqlaringizni xafa qilgan emassizmi?

—O'zingiz o'qiyotgan shaharning qaysi joylarida bo'lgansiz, qaysi joylarini hali ko'rmagansiz?

—Orol dengizi haqida nimalarni eshitgansiz?

—Nima uchun Antarktidada hech qachon zilzila bo'lgan emas?

—Suzish (shaxmat, shashka, tennis, o'ynash)ni sizga kim o'rgatgan? Hali musobaqalarda qatnashganingiz yo'qmi?

### Uzoq o'tgan zamon fe'li

(Давнопрошедшее время глагола)

Эта форма прошедшего времени означает, что действие имело место давно до момента речи.

I. Положительная форма давнопрошедшего времени

образуется сочетанием положительной формы причастия с неполными глаголами *ekan*, *emish*, спрягающимися в очевидном прошедшем времени.

Birlik	shaxs	Ko'plik
yoʻz+gan edi+m (ekan+man), (emish+man)	I	yoʻz+gan edi+k (ekan+miz, (emish+miz)
yoʻz+gan edi+ng (ekan+san, emish+san)	II	yoʻz+gan edi+ngiz (ekan+siz, emish+siz)
yoʻz+gan edi (ekan, emish)	III	yoʻz+gan edi (lar), ekan (lar), emish (lar)

Неполный глагол *edi* употребляется для выражения действия, которое в прошлом действительно происходило. *Например*: *Biz o'tgan yili musobaqada qatnashgan edik.* — В прошлом году мы участвовали в соревновании.

Неполный глагол *ekan* употребляется при выражении неуверенности или сомнения в совершении происшедшего действия. Значение этой формы передается в русском языке конструкциями со словами (оказывается). *Например*: *Siz bu kitobni o'qigan ekansiz.* — Оказывается вы читали эту книгу.

I. Неполный глагол *emish* употребляется при передаче говорящим сообщения другого лица. На русский язык это передается конструкциями со словами «говорят», «рассказы-вают». *Например*: — Говорят, в лесу один охотник видел снежного человека.

II. Отрицательная форма давнопрошедшего времени глагола образуется тремя способами.

1. Сочетанием отрицательной формы причастия со спрягаемыми формами неполных глаголов: ***edi, ekan, emish.***

Birlik	shaxs	Ko'plik
yoʻzma+gan edim (ekanman, emishsan)	I	yoʻz+ma+gan edik (ekanmiz, emishmiz)
yoʻz+ma+gan eding (ekansan, emishsan)	II	yoʻz+ma+gan edingiz (ekansiz, emishsiz)
yoʻz+ma+gan edi (ekan, emish)	III	yoʻz+ma+gan edi(lar) (ekanlar, emishlar)

## O'tgan yili qor yog'magan edi

2. Сочетанием причастия прошедшего времени с отрицательным словом **emas** со спрягаемыми формами неполных глаголов: **edi, ekan, emish**.

Birlik	shaxs	Ko'plik
yo'zgan emas edim (ekanman, emishman)	I	yo'zgan emas edik (ekanmiz, emishmiz)
yo'zgan emas eding (ekansan, emishsan)	II	yo'zgan emas edingiz (ekansiz, emishsiz)
yo'zgan emas edi (ekan, emish)	III	yo'zgan emas edi(lar) (ekanlar, emishlar)

Anvar hech qachon kurashda yutqazgan emas edi.

3. Сочетанием спрягаемых форм причастия прошедшего времени с отрицательным словосочетанием **yo'q edi**.

Birlik	shaxs	Ko'plik
yo'zgan+im yo'q edi	I	yo'zgan+imiz yo'q edi
yo'zgan+ing yo'q edi	II	yo'zgan+ingiz yo'q edi
yo'zgan+ yo'q edi	III	yo'zgan+(lar)I yo'q edi

O'shanda sanoatimiz rivojlangani yo'q edi.

## O'tgan zamon davom fe'li

(Многократное длительное прошедшее  
время глагола)

Эта форма прошедшего времени означает, что действие повторялось в прошлом регулярно и длительно. Многократное длительное прошедшее время образуется сочетанием положительной или отрицательной формы причастия настоящего или будущего времени (т.е. основа глагола, деепричастие+аффикс – **r (-ar), -yotgan** или **mas**) с неполным глаголом **edi** в форме очевидного прошедшего времени. *Например:* Biz musiqaqa qiziqar edik. — Мы интересовались музыкой. Oyim o'shanda ishlamas edi. — Тогда мать не работала.

## Bo'lishli shakl

Birlik	shaxs	Ko'plik
kelar edim я приходил(а) (обычно), приходил бы	I	kelar edik – (мы) приходили обычно приходили бы
kelar eding	II	kelar edingiz
kelar edi	III	kelar edi(lar)

## Bo'lishsiz shakl

Birlik	shaxs	Ko'plik
kelmas edim	I	kelmas edik
kelmas eding	II	kelmas edingiz
kelmas edi	III	kelmas edi(lar)

Иногда глагол в форме многократно-длительного прошедшего времени произносится и пишется слитно, так как звук «э» у неполного глагола обычно выпадает в живой речи (borar edim=borardim, bilmas edi=bilmasdi и т.д.)

**51-mashq.** *Gaplarni o'qing. Savollarga o'tgan zamon davom fe'lining bo'lishli shaklida javob yozing.*

1. Siz bolaligingizda sport bilan shug'ullanmas edingizmi? Yakshanba kunlari bolalar futbol maydonchasiga yig'ilishmas edimi? 3. O'rtog'iniz ilgari voleybol o'ynashni bilmasdimi? 4. Maktabda qaysi to'garaklarga qatnashmas edingiz? 5. Sen ilgari o'bekcha gapirishni bilmas edingmi? 6. O'quvchilar yozda oromgohda dam olmas edilarmi? 7. O'qituvchingizning darslari sizga yoqmas edimi?

## O'tgan zamon hikoya fe'li

(Прошедшее повествовательное время глагола)

Эта форма глагола путем повествования выражает действие, которое произошло внезапно, в течение краткого времени до момента речи. Прошедшее повествовательное время образуется двумя путями:

- а) спряжением деепричастия на;

б) сочетанием деепричастия на со спрягаемыми формами неполного глагола.

*Примеры:* —Мальчик заблудился в лесу. —Во сне видел папу.

Такие глаголы обычно употребляются в положительной форме.

Birlik	shaxs	Ko'plik
Yoz+ib+man	I	Yoz+ib+miz
Yoz+ib+san	II	Yoz+ib+siz
Yoz+ib+di	III	Yoz+ib+di(lar)

### О'tgan zamon maqsad fe'li (Прошедшее время намерения)

Эта форма глагола через воспоминание выражает неосуществленное действие, выполнение которого намечалось до момента речи. Прошедшее время намерения образуется сочетанием форм –moqchi, -digan на со спрягаемым неполным глаголом edi. *Например:* Yakshanba kuni biznikiga kelmoqchi eding, nega kelmading? — В воскресенье ты хотел прийти к нам, почему не пришел?

Birlik	shaxs	Ko'plik
ol+moqchi edim (я хотел взять)	I	ol+moqchi edik (мы хотели взять)
ol+moqchi eding	II	ol+moqchi edingiz
ol+moqchi edi	III	ol+moqchi edi(lar)

Отрицательная форма глагола данного времени образуется при помощи отрицательного слова emas.

Birlik	shaxs	Ko'plik
olmoqchi emas edim (я не хотел брать)	I	olmoqchi emas edik (мы не хотели брать)
olmoqchi emas eding	II	olmoqchi emas edingiz
olmoqchi emas edi	III	olmoqchi emas edi(lar)

Сочетанием глагола на –moqchi с вспомогательным глаголом bo'lmoq выражается твердое, решительное намерение сделать что-либо.

Birlik	shaxs	Ko'plik
ketmoqchi bo'ldim(я решил уйти)	I	ketmoqchi bo'ldik(мы решили уйти)
ketmoqchi bo'lding	II	ketmoqchi bo'ldingiz
ketmoqchi bo'ldi	III	ketmoqchi bo'ldi(lar)

**52-mashq.** O'tgan zamon maqsad fe'lining bo'lishli shakllarini bo'lishsiz shaklga aylantirib ko'chiring.

*Namuna:* bormoqchi edi — bormoqchi emas edi.

1. Sobir litseyga o'qishga kirmoqchi edi. 2. Nargiza xatni o'zi o'qimoqchi edi. 3. Qizlar o'rmonga yashirinmoqchi edilar. 4. Biz bugun tushgacha ishlamoqchi edik. 5. Bu qilmishi uchun uni xafa qilmoqchi edim. 6. Ayollar tungi smenada yig'ilish o'tkazmoqchi edilar. 7. Sen bolalarni ko'rmoqchi eding.

## 9-mashg'ulot

### Oila — muqaddas dargoh

#### *Topshiriq.*

1. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

2. O'z shajarangiz (avlod-ajdodingiz) haqida (klasster usulida) ma'lumot tayyorlang.

O'zbek milliy mintalitetida o'ziga xos bo'lgan oila an'analari bor.  
Masalan:

- oilada otaning hurmatini saqlash;
  - katta odam gapirsa, quloq solish, gap qaytarmaslik;
  - ovqatlanishda kattalar boshab berishini kutish;
  - kichik yoshdagi bolalarni izzatlash;
  - mehmon kelsa, xursandchilik bilan kutib olish kabi.
- “Qush uyasida ko'rganini qiladi”, - deydi dono xalqimiz.

Demak, yaxshi oilada yaxshi tarbiya ko'rishning siri ham ana shunda ekan.

**53-mashq.** Qarindoshlik munosabati bildiruvchi so'zlarni izohlang.

*Masalan:* Buvi – ota-onaning onasi.

Buvi. Buva. Opa. Singil. Aka. Uka. Qayni. Qaynag'a. Qaynisingil. Qaynagachi. Tog'a. Amaki. Xola. Amma. Jiyan. Nabira. Evara.

## Hozirgi zamon fe'li

(Настоящее время глагола)

Настоящее время глагола обозначает, что совешение или несовершенство действия совпадает с моментом речи. Действие, которое выражается настоящим временем может быть начато до момента речи и продолжено в будущем. По значению выделяются две формы настоящего времени глагола: (настоящее-будущее время глагола) и (настоящее длительное время глагола).

## Hozirgi-kelasi zamon fe'li

(Настоящее - будущее время глагола)

Настоящее – будущее время означает действие, состояние, которое совершается обычно регулярно или будет совершено в будущем.

Положительная форма настояще-будущее времени глагола образуется путем прибавления к основе глагола аффикса **-a** (когда основа глагола оканчивается на согласный) или **-u** (когда основа глагола оканчивается на гласный) личных аффиксов спряжения **-man, -san, -di, -miz, -siz, -di(lar)**.

birlik		shaxs	Ko'plik	
Yoza+man	(я) пишу (я) буду писать	I	Yoza+miz	(мы) пишем (мы)будем
Yoza+san	(ты) пишешь (ты)будешь писать	II	Yoza+siz	(вы) пишете (вы) будете
Yoza+di	(он, она) пишет (он, она) будет писать	III	Yoza+dilar	(они) пишут (они) будут писать

Отрицательная форма настояще-будущего времени глагола образуется присоединением к основе глагола аффикса **-may** и личных аффиксов спряжения.

birlik		shaxs	Ko'plik	
yoza+may+man	(я) не пишу (я) не буду	I	yoza+may+miz	(мы) не пишем (мы) не будем

yoʻz+may+sa n	писать (ты) не пишешь (ты) не будешь писать	II III	yoʻz+may+ siz	писать (вы) не пишете (вы) не будете писать
yoʻz+may+di	(он, она) не пишет (он, она) не будет писать		yoʻz+may+ di (lar)	(они) не пишут (они) не будут писать

**54-mashq.** Quyidagi fe'llardan hozirgi-kelasi zamon fe'llarining I va II shaxs birlik shakllarini yasang, ular ishtirokida dialog tuzing.

Bormoq, o'qimoq, ishlamoq, yashamoq, so'zlamok, kutmoq, javob bermoq, tabriklamoq.

*Namuna:* ishlamoq-ishlayman, ishlaysan...

- Sen qayerda ishlaysan?
- Men maktab bog'ida ishlayman.
- Sen shu yerda ishlaysanmi?
- Yo'q, bu yerda ishlamayman.

### Настоящее длительное время глагола

(Настоящее длительное время глагола)

Настоящее длительное время глагола означает действие, которое начато до момента речи, но не закончено, т.е. продолжается в момент речи и, возможно, продолжаться в будущем. Это время образуется двумя способами.

1. Присоединением к положительной или отрицательной основе глагола аффикса и личных аффиксов спряжения.

birlik	shaxs	ko'plik
yoʻz+уар+man (я) пишу	I	yoʻz+уар+miz (мы) пишем
yoʻz+уар+san (ты) пишешь	II	yoʻz+уар+siz (вы) пишете
yoʻz+уар+ti (он, она пишет)	III	yoʻz+уар+ti(lar) (они) пишут

Данная форма обычно употребляется для выражения действия, которое продолжает совершаться или не совершаться в данный



момсиг или в момент речи. *Например:* Kitob o'qiyarman. — Читаю книгу (в данный момент). U sendan ko'chirmayaptimi? — Он не списывает (в данный момент у тебя).

Значение данного момента действия у глаголов состояния *tugmoq* (стоять), *o'tirmoq* (сидеть), *urgmoq* (ходить), *yotmoq* (лежать) выражается присоединением к их деепричастной форме на *-b*, *-ib* личных аффиксов спряжения:

Tur+ib+man —я (сейчас) стою

O'tir+ib+san

Yur+ib+san

Yot+ib+miz

Yot+ib+di(lar)...

**55-mashq.** *Quyidagi fe'llardan hozirgi zamon davom fe'li yasang va gaplar tuzing.*

Ko'rmoq, o'tirmoq, kutmaslik, kutib turmoq, yubormoq, dam olmoq.

## 10 – mashg'ulot

### Qarindoshlar davrasida

Qarindoshlar bir oiladan tarqalgan bo'lib, bizga yo ota, yoki ona tomonidan yaqin kishilarimiz hisoblanadi. Ular doim yaxshi to'y-tantana, ba'zan og'ir kunlarda yelkadosh bo'lib ko'mak-lashadilar. Shuning uchun qarindosh-qondosh deb aytiladi.

**Topshiriq.** 1. O'z qarindoshlaringiz kelib chiqishiga ko'ra shajara tasnifini tayyorlang.

2. Qarindosh-urug'chilik oqibatlarini haqida 2 ta maqol yozing.

### Kelasi zamon fe'li

(Будущее время глагола)

Будущее время глагола обозначает действие, которое будет осуществляться после момента речи. В узбекском языке по значению различаются две формы будущего времени: *kelasi zamon gumon fe'li* (будущее возможное время), *kelasi zamon maqsad fe'li* (будущее время намерения).

## Kelasi zamon gumon fe'li

(Будущее возможное время глагола)

Это форма глагола выражает действие или состояние, осуществление которое возможно или неизвестно в будущем. Она употребляется при выражении неуверенности говорящего в возможности совершения действия.

Положительная форма будущего возможного времени образуется присоединением к причастию будущего времени, основа глагола+аффикс -г (-ar) личных аффиксов спряжения.

Birlik	shaxs	Ko'plik
yoz+ar+man (я(возможно)напишу, (возможно) буду писать	I	yoz+ar+miz (мы(возможно)напишем, (возможно) будем писать
yoz+ar+san	II	yoz+ar+siz
yoz+ar	III	yoz+ar+(lar)

При образовании отрицательной формы этого времени личные аффиксы спряжения прибавляются к отрицательной форме причастия будущего времени, основа глагола + аффикс -mas.

Birlik	shaxs	Ko'plik
yoz+mas+man(я(возможно) ненапишу, (возможно) не буду писать	I	yoz+mas+miz(мы(возможно) напишем, (возможно) не будем писать
yoz+mas+san	II	yoz+mas+siz
yoz+mas	III	yoz+mas+(lar)

Значение этой формы глагола передается в русском языке с помощью водных слов «возможно», «вероятно», «может быть» и.т.п. *Например:* Teatr oldida uchrasharmiz. — Может быть, встретимся возле театра. Kechgacha ko'hada o'tirmassiz? — Наверное, до поздна вы не будете сидеть на улице?

## Kelasi zamon maqsad fe'li

(Будущее время намерения)

Эта форма глагола выражает действие, осуществление которого реально намечено, предполагается после момента речи. Положительная форма будущего времени намерения образуется

прибавлением к основе глагола аффикса -moqchi и личных аффиксов спряжения. *Например:* Men o'zbek tilini yaxshi o'rganmoqchiman. — Я хочу хорошо изучить узбекский язык.

Birlik	shaxs	Ko'plik
yoz+moqchi+man (я хочу (намерен)писать)	I	yoz+moqchi+miz (мы (хотим) намерены писать)
yoz+moqchi+san	II	yoz+moqchi+siz
yoz+moqchi	III	yoz+moqchi+(lar)

Birlik	shaxs	Ko'plik
yozmoqchi emas+man (я не хочу (не намерен) писать)	I	yozmoqchi emasmiz (мы (не хотим) не намерены писать)
yozmoqchi emas+san	II	yozmoqchi emassiz
yozmoqchi emas	III	ozmoqchi emas(-lar)

**Topshiriq.** Namunadan foydalanib, kelasi zamon maqsad fe'llari ishtirok etgan dialoglar tuzing.

*Namuna:*

- Anvar, bugun qayerga bormoqchisan?
- Buvimlarnikiga bormoqchiman.
- Ularnikida nima qilasan?
- Akam bilan buvimning uylarini oqlab bermoqchiman.

**Topshiriq.** Ertaga bajarmoqchi bo'lgan ishlaringizni kelasi zamon maqsad fe'llari orqali yozma bayon qiling. Bayoningizda quyidagi fe'llardan foydalanishingiz mumkin.

Bekor o'tirmoqchi emasman, yordamlashmoqchiman, uchrashmoqchiman, tomosha qilmoqchiman, o'qimoqchiman, sayr qilmoqchiman, tayyorgarlik ko'rmoqchiman.

**56-mashq.** Matnni o'qing, fe'l zamonlarini aniqlab, turini ayting.

### Aljabr, ya'ni algebra

Algebra so'zi qayerdan kelib chiqqanligini bilasizmi? Bu so'z ma'nosining vatandoshimiz al-Xorazmiy nomi bilan bog'liqligini, eshitganmisiz?

Buyuk matematik al-Xorazmiy 783-yili Xorazmda tug'ilgan. Arab xalifalaridan Ma'mun Muhammad homiyligida dastlabki ta'limni xususiy muallimlardan oladi.

Keyin o'sha davrda ilm-fan markazi bo'lgan Marv shahriga kelib, madrasada o'qiydi, ilmiy kuzatishlar bilan shug'ullanadi. Ilm-fanga mehr qo'ygan xalifa Ma'mun Muso Xorazmiyni o'zi bilan Bog'dodga olib boradi va Xorazmiyni "Hikmatlar uyi" deb nomlangan fanlar akademiyasiga boshliq etib tayinlaydi.

Ma'mun olim ishtirokida observatoriya, tabiiy fanlar o'qitiladigan madrasa, ulkan kutubxona qurdirgan, qadimgi yunon olimlarining kitoblarini arab tiliga tarjima qildirgan.

Xorazmiy matematika, geometriya, astronomiya, tarix, geografiya va boshqa fanlarga doir ko'p risolalar yozadi. "Tenglamalar va qarshilantirish", "Hind hisobi", "Yer surati haqida kitob", "Tarix kitobi" kabi asarlari ilmda yangi kashfiyot bo'ldi, olimga jahonshumul shuhrat keltirdi. Olim tenglamalar haqidagi kitobida yozadi: "Men arifmetikaning sodda va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi al-jabr va al-muqobala hisobi haqida kitob yozdim. Chunki u odamlarga meros taqsimlash, vasiyatnoma yozish, boylik bo'lish va adliya ishlari, savdo-sotiq, kanal qazish, geometrik hisoblashlar, shuningdek boshqa turli munosabatlarda juda ham zarur".

Xorazmiy "Hind kitobi" asarida hozir biz ishlatadigan birdan to'qqizgacha bo'lgan raqamlar va nol yordamida istalgan sonni yozish, ular bilan arifmetik to'rt amalni bajarish, o'sha raqamlar bilan ifodalangan sonlardan kvadrat ildiz chiqarish qoidalarini izohlab bergan. Olim arifmetikaning algaritmlari bo'lgan qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish qoidalarini yaratgan edi.

Hozirgi zamon algoritm tushunchasi ham al-Xorazmiy ismining lotincha talaffuzi — "algoritmus" so'zidan olingan. Tenglamalar haqidagi fanning bir sohasini ifodalovchi "algebra" so'zining kelib chiqishi ham Xorazmiyning "Al-jabr val-muqobala" risolasi bilan bog'liq. Uning bu asari hozirgi Ispaniya va Portugaliyadagi arablar orasida ham keng tarqalgan. Ular "j" tovushining "g" tarzida talaffuz etib, "aljabr"ni "algebr"deyishadi. Bu kitob lotin tiliga tarjima qilingach, G'arbiy Yevropada ushbu so'z "algebra" tarzida qabul qilingan. Shunday qilib, bu so'z tenglamalar haqidagi fanning nomi bo'lib qoldi.

Xorazmiy asarlari ko'p tillarga tarjima qilindi. Beruniy, Umar Hayyom kabi olimlar uning ilmiy faoliyatiga yuksak baho berganlar. Olimning boy ilmiy merosi hozir ham o'z qimmatini saqlab kelmoqda.

*(H.Hamidovning "Olis-yaqin yulduzlar" kitobidan)*

## 11 – mashg‘ulot

### Bular tengdoshlarim...

*Topshiriq.* Matnni o‘qing, mazmuni bo‘yicha trening tashkil qiling.

Ba‘zan tarixiy asarlar o‘qib o‘tirib ajablanib ketaman:

12 yoshida taxtga o‘tirib, davlatni boshqargan, 13 yoshida xalq qahramoni bo‘lgan, 14 yoshida kashfiyoti bilan dunyoni lol qoldirgan, 15 yoshida musiqa yozgan, 16 yoshida xalqini himoya qilgan tengdoshlarim qanchadan-qancha...

Men-chi? Men shu yoshga kelib nima qilishga ulgurdim?..

### Fe‘l nisbatlari

(Залоги)

Категория залога выражает различные отношения между субъектом (производителем действия) и объектом.

Залоги в узбекском языке пять: *aniq nisbat* - действительный залог, *o‘zlik nisbat* - возвратный залог, *birgalik nisbat* - взаимосовместный, *majhul nisbat* - страдательный, *orttirma nisbat* - понудительный.

### **Aniq nisbat.**

( Действительный залог )

Действительный (основной) залог имеет нулевой показатель. Субъект действия, обозначенного глаголом действительного залога, выражается подлежащим, а объект – дополнением в винительном падеже. Предложение, образованное по такой конструкции называется активной конструкцией: *Qumri xat yozdi* . - Кумри написала письмо.

### **O‘zlik nisbat.**

(Возвратный залог)

Возвратный залог выражает действие, исходящее от субъекта и возвращающееся на него; образуется прибавлением к основе глагола аффиксов *-n (-in )*, *-l(-il)*, *-dan*, *-sh (ish)*: *tarannom* - причесываться, *uyunmoq* - мыться, *umiyatmoq* - умываться, *kiyinmoq* - одеваться, *otlanmoq* - собираться, *kerishmoq* - потягиваться. Порядок присоединения аффиксов тот же, что для страдательного залога.

**57-mashq.** *Quyidagi fe'llardan hozirgi zamon davom fe'li shaklini yasang.*

G'azablanmoq, qo'rqmoq, topshirmoq, sotib olmoq, ijaraga qo'ymoq.

**58-mashq.** *Nuqtalar o'rniga zamon shaklini yasovchi qo'shimchalarni qo'shib yozing.*

1. Bahor kelishi bilan kunlar tez isiy boshla...di, daraxtlar barg yoz...di, maysalar ko'kar...di, qushlar uchib kela boshla...di.

2. Yoz yil faslining eng issiq qismi hisoblan...di.

3. Biz yakshanba kuni oilamiz bilan Moskvaga jo'na...miz.

**59-mashq.** *Quyidagi maqollarning kelasi zamon fe'l shakllariga ahamiyat bering. Maqollarni rus tiliga tarjima qilishga harakat qiling.*

1. Egilgan boshni qilich kesmas.

2. El og'ziga elak tutib bo'lmaydi.

3. Sho'r yerda ekin bitmaydi.

4. Ishlamagan tishlamaydi.

5. Oyni etak bilan yopib bo'lmas.

6. Qars ikki qo'ldan chiqadi.

7. Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.

8. Do'st boshga ish tushganda bilinadi.

## **12 – mashg'ulot**

### **Yaxshi fazilat — inson ko'rki**

Bilasizmi, jamoat transportida nimalarga rioya qilish kerak? Bilmasangiz, eshiting. Yo'lovchilar transportga orqa va o'rtadagi eshiklardan chiqishlari lozim. Bu holatda avval nogironlarni, homilador va bolali ayollarni, onaxon va otaxonlarni, yosh bolalarni birinchi navbatda chiqarmoq va so'ng o'zimiz chiqmog'imiz shart. Jamoat transportining oldingi o'rinlari yosh bolali onalarga, nogironlarga, urush qatnashchilariga mo'ljallanganligini esda tutish kerak. Gohida yosh-yosh yigit-qizlar o'rindiqlarga o'tirib olishadi, bunda muhtoj odam tik turib qoladi. Yoshlarimiz sezgir va kuzatuvchan bo'lishi kerak.

Gohida jamoat transportida uch-to'rt yosh o'rtada turib olib boshqalarning o'tishiga xalaqit beradi. Buning ustiga har xil be'mani, uyat so'zlarni baland ovozda gaplashishadi. Yoki qo'pollik qilishib, dag'al so'zlar bilan yo'lovchilarni ranjitishadi. Bu hunuk odat boshqalarni

mensimaslikdir. Albatta bu yomon illat-qusurni yoshlar o'zlaridan soqit qilishlari kerak.

Transportning silkinishi oqibatida biron kishiga tegib ketsangiz, darhol u kishidan uzr so'rang. Chunki, yo'lovchini yo'lovchi tushunmog'i kerak.

Jamoat transportiga chiqayotganda, yoki tushayotganda og'ir yuk ko'targan yo'lovchiga yordam berish lozim, bu insoniylikka kiradi. Ba'zan transportga ish korjomasida chiqiladi. Bu bilan boshqalarning ozoda kiyimi ifloslanishi mumkin, shuning uchun ish kiyimidagi kishi ehtiyot bo'lib o'zini bir chekkaga olishi kerak.

Transportdan tushgan yo'lovchi keraksiz chipta qoldiqlarini axlat tashlanadigan idishga tashlashi zarur. Shundagina transport bekatlari ozoda bo'lib, atrof muhit ifloslanmaydi.

Yana bir muhim odob borki, unga ba'zan yoshlar amal qilmaydi. Yangi avtobusmi, tramvay-trolleybusmi uni ozoda saqlashimiz, salonlarni ifloslamasligimiz bilan birga, o'rindiqlarni yirtmasdan, har xil so'zlarni yozib tashlamasdan foydalanishimiz kerak.

*Topshiriq.* Matnni o'qing, mazmunini diskassing qiling.

## Muomala madaniyati

- Assalomu Alaykum!
- Vaalaykum Assalom!
- Sizni ko'rganimdan xursandman.
- Uchrashganimiz yaxshi bo'ldi.
- Sizni (seni) ko'rganimga ko'p bo'ldi.
- Ishlaringiz qanday(qalay)?
- Rahmat, yaxshi. O'zingizdachi?
- \* \* \*
- O'zingizni qanday his qilyapsiz?
- Yomonmas, rahmat.
- \* \* \*
- Men siz bilan xayrlashmoqchiman.
- Hammasi uchun rahmat.
- Yaxshi qoling.
- Oq yo'l, yaxshi boring.
- Yo'lingiz bexatar bo'lsin.
- Bizni unutmang (esdan chiqarmang).

- Yozib turing.
- Qo'ng'iroq qilib turing.
- Yana keling.
- Ota-onangizga salom ayting.
- Ko'rishguncha xayr.

\* \* \*

- Xayrli tun.
- Tuningiz xayrli bo'lsin.

\* \* \*

- Shuni tushuntirib bera olmaysizmi?
- Marhamat, so'rang.

### **Taklif**

- Shanba kuni biznikiga kelmaysizmi?
- Jon deb kelaman.
- Biznikiga kirib o'tmaysanmi?
- Baxtga qarshi, kirolmayman.
- Vaqtim yo'q.
- Biznikiga mehmonga keling.
- Albatta kelaman.
- So'zsiz boraman.
- Va'da bera olmayman, lekin harakat qilaman.

\* \* \*

- Yakshanba kuni siz bo'shmisiz?
- Ha, bo'shman.
- Biz oilamiz bilan sizni uyga taklif qilmoqchi edik.
- Taklifingiz uchun tashakkur.
- Soat otilarda sizga qulay bo'ladimi?
- Men sizni metroning "Paxtakor" bekatida kutib olishim mumkin.
- Demak, kelishdik, sizni kutamiz.
- Uchrashguncha.
- Rahmat. Men albatta boraman.

### **Mehmonda**

- Salom. Marhamat kiring.
- Palto (plash)ingizni bering.
- Tanishing: (mening) onam, (mening) dadam, (mening) singlim.
- Kechirasiz, uning ismi nima?



- Uning ismi Komila.
- Juda yaxshi.
- Siz bilan tanishganimdan xursandman.
- Bu yoqqa (bu xonaga) o‘ting.
- Dasturxonga marhamat.
- Marhamat, o‘tiring.
- Yoqimli ishtaha.
- Vaqtni juda ham yaxshi o‘tkazdik.
- Hammasi uchun rahmat.
- Kelganingiz uchun katta rahmat.
- Xayr, sog‘ bo‘ling.

### Mulozamat so‘zlari

- Извините, пожалуйста. Я не хотел вас обидеть.
- Да, ладно.
- Прости, мама что я поздно вернулась.
- Да, ладно уж.
  
- Извини меня, пожалуйста. Я не принес тебе сегодня обещан-ную книгу.
- Ну что поделаешь. Ничего. Принесешь завтра.
- Прошу прощения. Я, кажется немного опоздал.
- Вы пришли вовремя.



- Я хочу извиниться перед тобой за свои слова. Я был неправ.
- Ладно. Не будем об этом говорить.
- Простите за беспокойство.
- Ничего, входите.
- Спасибо, спешу. Передайте, пожалуйста, этот ключ моему сыну.
- Хорошо. Если спросит, отдам.

### **Ushbu dialogning o'zbek tilidagi muqobiliga e'tibor bering.**

- Kechiring, iltimos. Men sizni xafa qilmoqchi emas edim.
- Hechqisi yo'q.
- Kech qaytganim uchun kechiring, oyi.
- Mayli, qo'yaver.
- Meni kechir. Senga va'da qilgan kitobni olib kelolmadim.
- Nima ham derdim. Hechqisi yo'q. Ertaga olib kelarsan.

- UZR. Men bir oz kech qolganga o'xshayman.
- Siz ayni vaqtida keldingiz.

\* \* \*

- Aytgan gaplarim uchun sendan uzr so'ramoqchiman. Men nohaq edim.
- Bo'пти. Bu haqda gapirmaylik.

\* \* \*

- Bezovta qilganim uchun uzr so'rayman.
- Hechqisi yo'q. Kiravering.
- Rahmat. Shoshilyapman. Iltimos, shu kalitni o'g'limga berib qo'ying.
- Yaxshi, so'rasa beraman.

**Topshiriq.** Namunalar bo'yicha o'zingiz ham dialog tuzing.

### **Majhul nisbat** (Страдательный залог)

Страдательный залог глагола указывает, что предмет, названный подлежащим, подвергается действию другого предмета, обозначенного косвенным дополнением. Страдательный залог образуется прибавлением к основе глагола аффикса -l (после гласного), -il (после согласного). Если в основе глагола уже имеется звук l, то страдательный залог образуется при помощи аффикса -p

(после гласного),-in (после согласного): Bino qurildi. — Здание построено. Kitob o'qildi. — Книга прочитана.

### **Birgalik nisbat**

(Взаимно-совместный залог)

Взаимно-совместный залог указывает на мышление действия многими лицами совместно. Он образуется прибавлением к основе глагола **-sh** (после гласного), **-ish** (после согласного): Ular qayta qurishni boshlashdi. — Они начали перестройку (повсеместно, совместно). Menga o'rtog'im ta'mirlashga qarashdi. — Мой друг помогал мне в ремонте.

**60-mashq.** *Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling. Birgalik nisbatidagi fe'llarni ajratib yozing.*

1. Многие хотят освоить профессию экономиста.
2. Мы должны будем изучать историю родного края.
3. Через две недели у нас начнутся экзамены.
4. Возможно, я тебя увижу завтра.
5. Завтра будет пасмурная погода.
6. Через неделю откроется новый торговый центр.
7. Я хочу стать преуспевающим бизнесменом.

**61-mashq.** *Quyidagi gaplarni majhullik nisbatidagi fe'llar bilan ifodalang.*

*Namuna:* Raislik qiluvchi yig'ilishni ochdi. — Yig'ilish ochildi. 1. Karim mahallada yangi jamoa tuzdi. 2. Brigada topshiriqni o'z vaqtida bajardi. 3. Havaskorlar turli o'yinlarni ijro etishdi. 4. O'qituvchi bugun yangi mavzu o'tmadi. 5. Ular musobaqada katta g'alabaga erishdilar. 6. Do'stim menga darrov tibbiy yordam ko'rsatdi. 7. Qizcha savatchadagi olmalarni to'kdi.

### **13 – mashg'ulot**

#### **Atrofdagilarni ardoqla, do'stim!**

**Topshiriq.** Matnni rus tiliga tarjima qiling. Gaplardagi fe'llarning nisbatlarini aniqlang.

Hech e'tibor berganmisiz, atrofingizdagi insonlar bizning bo'lmasa, biz tanigan kishilarning yaqinlari bo'lib chiqishi mumkin. Axir aytishadi-

ku, "Tog' tog' bilan uchrashmaydi, odam albatta odam bilan uchrashadi," - deb. Demak, atrofimizdagi insonlarga nisbatan e'tiborliroq bo'laylik. Ular yo'lakda, navbat kutib turganda, jamoat transportida, yo'limizda uchrab qolishi mumkin. Bir marotaba e'tiborsizlik qilib, tanib - tanimay, qo'pol muomalada bo'lsak, butun umr uyatga qolishimiz mumkin. Shuning uchun quyidagi namunalar e'tiboringizga havola qilinadi.

### **Avtobusda suhbat**

- Kechirasiz, o'tirsam bo'ladimi?
- Marhamat, o'tiring.
- Yo'l xaqini haydovchi oladimi?
- Yo'q pattachi oladi.
- Yo'l xaqi necha so'm?
- Yo'l xaqi 700 so'm.
- Bobur xiyoboni yaqinmi yoki uzoqmi?
- Bobur xiyoboni uzoq emas. Keyingi bekatda tushasiz.
- Rahmat, xayr, sog' bo'ling.
- Yaxshi yetib oling.

### **Poyezdda**

- Siz qayerga ketyapsiz? (borasiz)
- Men ... boraman.
- Derazani ochishni (yopishni) istamaysizmi?
- Marhamat.

\* \* \*


- Iltimos, chiroqni o'chiring.
- Marhamat, o'chirdim.
- Rahmat.
- ... qay vaqtda yetib boramiz?
- ... ertalb tongda soat ... yetib boramiz.
- Bu qaysi bekat?
- Bu ... bekati.
- Vokzal tunda juda go'zal ekan.
- Siz avval ko'rmagan edingizmi?
- Ha, men u shaharga birinchi marotaba borishim.
- Borayotgan shaharda kimingiz yashaydi?
- U yerda 5 yil avval litseyda birga o'qigan do'stim yashaydi. Do'stimnikiga ketyapman.
- Juda yaxshi.

— Hayrli tun.

— Yaxshi yotib turing.

**Topshiriq.** Boshqotirmani yeching.

1. Yuk avtomobillari O‘zbekistonning qaysi shahrida ishlab chiqarila boshlagan.
2. Jamoat transporti turi.
3. Metro bekati nomi.
4. Avtomobilsozlik dastlab qaysi davlatda rivojlangan.
5. Yer osti transporti.
6. Germaniyada avtomobil asoschilaridan birining nomi.
7. “ Uz DEU ” avtomobillaridan birining nomi.
8. Shaharlararo avtobus yo‘nalishlarining oxirgi va oraliq punktlarida yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatadigan inshootlar majmui.



### **Orttirma nisbat** (Побудительный залог)

Побудительный залог выражает действие производимое субъектом через другое лицо. Образуется прибавлением к корню или основе глагола следующих аффиксов: -ar, -dir(tir), -gaz (-kaz,-qaz), -giz (-kiz,-qiz), -r, -t, (-it): toptirmoq - заставить найти, qaytarmoq - возвращать, o‘tkazmoq - пропустить, ichirmoq - заставить выпить.

Понудительный залог в русском языке отсутствует. При переводе этой глагольной формы на русский язык обычно употребляются следующие глаголы: заставить, приказать, принудить, велеть, позволить, допустить. Например: *surugmoq* - подметать, *sururtirmoq* – заставить (приказать, велеть, позволить) подметать.

При отсутствии этих слов имеется в виду, что действие выполняется подразумеваемым, а не названным субъектом: *Men etik tiktirdim* - Я сшил себе сапоги (не я сам шил, а мне сшили по моей просьбе).

1) Понудительным залогом, образованным от непереходных глаголов, выражается действие, совершенное самим субъектом, реальным производителем действия (в предложении — подлежащим). В этом случае форма понудительного залога превращает непереходный глагол в переходный.

Aniqlik nisbati O'timsiz fe'l	Orttirma nisbat O'timli fe'l
Qaynamoq (кипеть)	Qayna-t-moq (кипятить)
Kulmoq (смеяться)	Kul-dir-moq (смеяться)
Turmoq (вставлять)	Tur-giz-moq (поднимать)
Pishmoq (вариться)	Pish-ir-moq (варить)
Oqmoq (течь)	Oq-iz-moq (лить)

**Topshiriq.** Jadvalni o'z misollaringiz bilan davom ettiring.

2) Понудительным залогом, образованным от переходных глаголов, выражается действие, осуществленное другим субъектом под воздействием основного субъекта. Значение этой формы понудительного залога передается в русском языке сочетанием вспомогательных глаголов типа «заставить», «принудить», «велеть», «позволить» и т.п. с основным глаголом. *Например:* *yozmoq* (писать) — *yoz-dir-moq* (заставить, велеть писать), *ichmoq* (пить) — *ich-ir-moq* (поить), *surugmoq* (подметать) — *surur-tir-moq* (заставить подметать), *yurmoq* (ходить) — *yur-giz-moq* (пускать в ход, приводить в движение).

**62-mashq.** Maqollarning ma'nosini tushuntiring. Yod oling.

1. Mehnat — tanga quvvat, nomga shuhrat keltiradi.

2. Kimki umrini befoйда o'tkazadi,
3. Hech narsa olmasdan, oltin ketkazadi.
4. Tirishqoqlik mehnatni yengillashtiradi.
5. Yaxshi so'z temir darvozalarni ochdirar.

## **14 – mashg'ulot** **Oraliq nazorat-2**

## **15 – mashg'ulot** **Kitoblar jon-u dilim**

“Kitob – insonoyat tomonidan yaratilgan barcha mo'jizalar ichidagi eng buyuk mo'jizadir”

*(M. Gorkiy).*

Kitob bir necha ming yillar avval paydo bo'lgan, bu davrda u turli xil ko'rinishlarni olgan.

Bobilliklar, osuriyaliklar va boshqa qadimgi xalqlar kitobni loydan tayyorlashgan. Buning uchun ular yumshoq loydan tayyorlangan plitalarga uchli yog'och bilan maxsus belgilar tushirishgan. So'ngra uni oftobda quritishgan yoki olovda pishirishgan. Kitoblar va hatto kutubxonalar mana shunday maxsus loy plitalardan tashkil topgan.

Shoh Ashshurbanipol (miloddan avvalgi VII asr) ga qarashli shunday kutubxonani yuz yil muqaddam qadimgi Osuriya davlatining poytaxti bo'lgan joydan qazib topishgan.

Xitoyda esa dastlab kitobni yupqa bambuk plastinkalarga yozishgan va plastinkalarni pishiq tizimga o'tkazib qo'yishgan. Keyinchalik xitoyliklar o'z kitoblarini mo'yqalam (cho'tkacha) va tush bilan ipakka, milodiy XI asrdan boshlab qog'ozga yozishgan.

Qadimgi Misrda kitob matnlarini tosh plitalarga o'yib yozishgan. Keyin papirusni ixtiro qilishgan. Jips qilib bostirilgan qamish plastinkalarini bir necha o'n metr uzunlikdagi lenta shaklida yelimganlar. Ularni o'rog'lik holda saqlaganlar. Misr papiruslaridan deyarli ikki ming yil davomida Yunoniston va qadimgi Rimda yozish uchun yaxshi material sifatida foydalanishgan.



Miloddan avvalgi XI asrda Pèrgan podsholigidagi ustalar yozuv uchun hayvon terisidan yangi material – pergament tayyorlaganlar. Yunoniston va qadimgi Rimda papirus va pergament juda qimmatbaho material bo‘lganligi uchun homaki matn va xatlarni uchi o‘tkir tayoqcha bilan ustiga mum surtilgan taxtachaga yozganlar. XIII asrdan boshlab, Yevropada qog‘oz asosiy yozuv materiali bo‘lib qoldi.

*Topshiriq.* Savollarga javob bering.

1. Kitob haqida nima bilasiz?
2. Uy kutubxonangiz bormi? Unda qancha va qanday kitoblar bor?
3. “Hayotda kitobning tutgan o‘rni haqida nima deya olasiz?” mavzusida trening o‘tkazing.

### Lug‘at

uchli yog‘och - острое бревно (деревяшка)

dastlab - впервые

yurqa - тонкий

mum - воск

miloddan avvalgi - до нашей эры

saqlamoq - хранить

usta - мастер

rips qilib bostirilgan - прессованный

taxta - доска

qimmatbaho - бесценный, драгоценный

insoniyat - человечество

mo‘jiza - чудо



## Fe'lining vazifa turlari

- a) sof fe'l (bordi, keldi, yugurdi);
- b) harakat nomi (bormoq, borish, yugurish)
- c) sifatdosh (borgan, yugurgan)
- d) ravishdosh (borib, borgani, boray)

## Fe'l

Глагол - это часть речи, обозначающая действие или состояние предмета и изменяющаяся по временам, числам, лицам. Глагол отвечает на вопросы *nima qildi?* - что делал (сделал) предмет?, *nima qilyapti?* - что делает предмет? *nima qilmoqchi?* - что будет (намерен, собирается) делать ?

Глагол обладает грамматическими категориями залога - fe'l nisbatlari; наклонения - fe'l mayllari; времени - fe'l zamonlari; переходности - непереходности - o'timli-o'timsiz; лица - shaxs - в предложении обычно выступает в роли сказуемого.

## Fe'lining noaniq shakli

(Неопределенная форма глагола)

В словарях узбекского языка в качестве неопределенной формы (инфинитива) принята форма с аффиксом -moq; *kelmoq* - приходиться, *o'qimoq* - учиться.

Основа глагола самостоятельно употребляется только при обозначении 2 лица единственного числа повелительного наклонения: *bormoq* - идти, *bor* - иди; *yozmoq* - писать, *yoz* - пиши; *kelmoq* - приходиться, *kel* - приходи.

**63-mashq.** *Tub va yasama fe'llarni ajrating, fe'l yasovchi qo'shimchalarni aniqlang.*

1. Nargiza deraza oynalarini artidi. 2. Kechqurun biz xayrlashdik. 3. Mehnat qilmoq oson emas. 4. Tinchlik yo'lida barcha xalqlar birlashdilar. 5. Katta kishiga sizsirab gapirmoq kerak. 6. Kutib tur, hozir kelaman. 7. Darslarga kechikmang.

*Topshiriq.* Masalni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

### Og‘ir yuk

—Ustingdagi tosh og‘ir bo‘lsa kerak, ezib og‘ritmayaptimi?—  
Toshbaqaga achinib so‘radi Tipratikan.

—Menga bilinmaydi, toshim yengil. Agar toshimning bir parchasini senga bersam ko‘tarib yurasanmi?

— Iya, nega ko‘tarib yurarkanman. Yo‘q, ko‘tarib yurmayman.

—To‘g‘ri, ko‘tarmaysan. Chunki u senga kerak emas. Agar kerak bo‘lsa olarmiding?

— Nega olmas ekanman, olardim.

—Mening ham toshim o‘zimga kerak-da. Shuning uchun og‘irligi sezilmaydi. Yirtqichlarning o‘tkir tishlaridan qo‘rqmay yashayveraman,— dedi Toshbaqa.

*Topshiriq.* Hikmatli so‘zlarni o‘qib, mazmuni haqida fikr bildiring.

Nonni qilmasang uvol,  
Aslo ko‘rmaysan zavol.

\* \* \*

Cho‘ktirma hech qachon ona ko‘nglini,  
Suyanchig‘i bo‘l, bukma belini.

\* \* \*

To‘g‘ri odamning hech qachon oyog‘i qaltiramaydi.  
Aqli kishisi bo‘lmagan uy quyoshsiz osmonga o‘xshaydi.

\* \* \*

Hayotda har kimning o‘z non-nasibasi bor, uni hech kim tortib ololmaydi, madomiki olsa ham, buyurmaydi.

### 16 – mashg‘ulot

*Topshiriq.* O‘zingiz o‘qigan asar bo‘yicha “*Bu kitob menga yoqadi*” mavzusida bayon yozing.

### SEHRLI QALPOQCHA

(“Ko‘chaga quvildim” qismidan parcha)

Tanishib qo‘yaylik: otim Hoshim, erkalatib chaqirmoqchi bo‘lsangiz, Hoshimjon deb ataysiz. Familiyam – Ro‘ziyev, Ro‘zivoy traktorchining o‘g‘liman. Ruxsat bersangiz, oilamiz haqida ikki-uch

og'iz so'zlab o'tsam: dadam ikki-uch yildan buyon cho'lda buldozer haydab, yer tekislaydi, oyimning aytishiga qaraganda, o'sha tomonlarga ham paxta ekisharmish. Bir oyda, ba'zan ikki oyda bir kelib ketadi. Kelganida har birimizga alohida-alohida sovg'a-salomlar olib keladi.

Katta singlim Oyshaxon to'rtinchi sinfda o'qiydi. Hovlini supurish, idish-tovoqlarni yuvish o'shaning bo'ynida. Oyim uni:

“Oppoqqinam, jonimning huzuri”,-deb erkalatgani-erkalatgan. Oyim uni bag'riga bosib suygan kuni men ham biqinidan sekin chimdib:

— Puchuqqinam, —deb qo'yaman. Kichik singlimning oti Donoxon. Hozir birinchi sinfda o'qiyapti. Oyimning aytishiga qaraganda, u katta bo'lsa, albatta doktor bo'larmish. Menimcha, undan doktor chiqmasa kerak. Nega desangiz, ko'cha-ko'yda hamshiralarga ko'zi tushib qolsa, ukol qiladi deb, tog'dan-toqqa qochadi. Tunov kuni maktab hovlisida oq xalat kiygan bufetchini ko'rib, doktor keldi deb derazadan tashlab qochibdi.

Rostini aytsam, o'zim ham unchalik yomon bola emasman. Aql-hushim joyida, odobim ham chakki emas, oltinchi sinfning intizomli o'quvchilaridanman. Bir xil, haligi sho'x bolalarga o'xshab, kun bo'yi ko'cha changitib yurmayman. Yashirib nima qilaman: ko'cha changitib yurgandan ko'ra komandaga bo'linib olib, to'p tepgan yoki xoliroq joyga, masalan, oying harchand chaqirsa ham ovozi yetmaydigan joyga borib olib, chillak o'ynagan ming marta yaxshi.

— Hoshim! - deb chaqiradi ba'zan oyim:

— Labbay, oyijon?

— Tomdan o'tin tashlab bergin.

— Xo'p bo'ladi, oyijon, - deyman-u sekin u yoq-bu yoqqa qarayman-da: - Oysha! - deb qichqiraman.

— Labbay, akajon?

— Tomdan o'tin tashlab bergin.

— Xo'p bo'ladi, akajon, - deydi Oysha. Shunday demasa, ishlar chatoq. Och biqinga musht kelib tushadi. Ishqilib, oyimning gapini hech yerda qoldirmayman. Aytganini o'zim bajarimasam, birov orqali bajaraman. Aslini olganda o'zing bajarishing shart emas. Fermamizning mudiri Sirojiddin aka nuqul shunaqa qiladi. Raisdan biron topshiriq olib kelsa, a'zolarga topshiradi. Siz qanaqaligingizni bilmayman-ku, lekin men ham mudirlikka o'xshash ishlarni yaxshi ko'raman. Shu o'ynayversang — o'ynayversang, senga tegishli ishlarni birovlar bajaraversa-bajaraversa...

— Orif! - deb qichqiraman ba'zan. Aytgandek, esimdan chiqib qolayozibdi, Orif bilan birga o'qiymiz, bir partada o'tiramiz. O'zi pakanagina bola-yu, lekin boshi to'la aql. Har qanday masalani ham ko'z yumib-ochguncha ishlab tashlaydi, men ham ko'z ochib-yumguncha ko'chirib olaman. Goho biror joyini jo'rttaga xato qilib ko'chiraman, shunday qilmasam bo'lmaydi-da, muallimimiz ko'chirganimni bilib qoladi. Shunday qilib:

— Orif! - deb chaqiraman.

— Nima deysan? - deydi Orif uylaridan turib.

— Chiq, dars tayyorlaymiz.

— O'zing chiqa qol.

Orif meni chaqirayotganini oyim eshitsin, deb jo'rttaga qayta-qayta so'rayman: - Nima deding?

— O'zing chiqa qol deyaqman, nima, qulog'ing karmi? Papkani ko'tarib sekin "quyon" bo'lib qolaman. Chiqib tayyor vazifalarni apiltapil ko'chiraman-da, hali aytganimdek, ko'cha changitib yurmayman-ku, to'ppa-to'g'ri narigi mahallaga futbol o'ynagani jo'nab qolaman.

Mana bugun ham shunga o'xshash rejalar tuzib, Orifni chaqiraman, deb endigina kekirdagimni cho'zayotgan edim, oyim:

— Hoshim, - deb chaqirib qoldi.

— Labbay, oyijon.

— Nega tovuqlarga don bermading?

Rost, ertalab oyim tovuqlarga don berib qo'ygin, deb tayinlab ketgan edi. Butunlay unutgan ekanman. Endi nima qildim-a, ishqilib quloqning tagida shavla qaynamasa bo'lgani!

— Nima dedingiz, oyi?

— Nega tovuqlarga don bermading deyaqman, nima, qulog'ing devorning ostida qolganmi?

— Ovqatini o'zi topib esin-da. Tokaygacha tekinxo'rlik qilishadi, - deb gapni chalg'itmoqchi bo'ldim.

— Voy, o'lmasam, suvam bermaganga o'xshaysan.

— Oyi, tovuqlar suv ichmaydigan bo'lib ketgan...

— Shunaqami?

— Ha, shunaqa...

Nojo'ya gap aytib qo'ygan bo'lsam kerak, oyim katta kaltakni olib quvlashga tushdi. Uch marta hovlini aylandim-da, ko'cha eshik oldiga borib egilib salom berdim va bir hatlab o'zimni ko'chaga oldim. O'sha yerdan turib:

— Bir haftadan beri suv berganim yo‘q. Tuxumini bir yo‘la poroshok qilib tug‘aversin! — deb baqirdim.

— Teringga somon tiqmasammi! — dedi oyim tayoqni o‘qtalib. “Tamom”, deb o‘yladim ichimda. Nima desangiz, kecha ham shunga o‘xshashroq bir voqea bo‘lib o‘tgan edi. Har kuni darsdan qaytganimda oyim:

— Hoshimjon, bugun qanaqa baho olding, o‘g‘lim? -deb so‘raydi.

— Besh-da, oyijon, bizniki doim besh! — deyman.

— Barakalla, — deydi oyim. Keyin o‘zim yaxshi ko‘rgan shokoladdan ikki-uchta uzatib, — bor, endi birpas o‘ynab kelgin, - deydi. Kun botguncha maza qilib o‘ynab yuraman.

Kecha oyim negadir bahoni so‘ramadi-yu, qani kundaligingni bir ko‘rsat-chi, deb qoldi. Rang-qutim o‘chib ketdi, nega desangiz, ishning bu yog‘i sal ishkaloq edi-da.

— Kundaligim o‘qituvchimizda qolgan, — deb qutulmoqchi bo‘ldim.

— Papkangni och deyaqman!

Boshqa ilojim bo‘lmaganidan papkani ochib, sekin kundalikni chiqarib berdim.

— Bu nima? — so‘radi oyim.

— Ikki.

— Bunisi-chi?

— Uch.

— Nega yolg‘on gapirding?

— Kim yolg‘on gapiribdi, — dedim bo‘sh kelmay, — ikkovini qo‘shsa, besh bo‘ladi, oyijon!

— Shunaqami?

— Shunaqa... Oyim qoshlarini chimirib, qo‘llari qaltirab, kundalikni varaqlashda davom etdi.

— Bu nima?

— Ikki, oyijon.

— Bunisi-chi?

— Bunisi fizikadan olingan baho.

— Xo‘p, mana bunisiga nima deysan?

— Hech narsa demayman, lekin oyijon, uchchovini qo‘shsa, besh bo‘ladi.

— Shunaqami?

— Shunaqa...

— Hu o‘sha ...

Fizkulturdan qilgan mashqlarim mana shu paytda qo‘l kelib qoldi. Bir sakragan edim, o‘zimni hovlining o‘rtasida ko‘rdim. Bu gal kaltak yeyishim aniq bo‘lib qoldi.

— Sen hali shoshmay turgin! - dedi oyim dag‘dag‘a qilib.

### **Topshiriq.**

- 1) X.To‘xtaboyevning “Sehrli qalpoqcha yoki sariq devni minib” asari sizga manzur bo‘ldimi? Qaysi tomonlari bilan?
- 2) Asardan olgan taassurotlaringizni so‘zlab bering.
- 3) Matndan ravishdoshlarni topib, daftaringizga ko‘chiring.

## **Fe’ning vazifa turlari**

### **Ravishdosh.**

(Деепричастие)

*Деепричастие* — это глагольная форма, которая имеет и свойства глагола, и свойства наречия.

Деепричастия имеют несколько форм. Они образуются от основы глагола с помощью аффиксов.

Деепричастия, образованные с помощью аффиксов **-b (ib)**, выполняют следующие функции:

а) **обстоятельства**: Student savolga o‘ylab, to‘g‘ri javob berdi. — Подумав, студент правильно ответил на вопрос;

б) **основного глагола в составе сложного глагола**: Men uning adresini daftaringa yozib oldim. — Я записал его адрес в свою тетрадь.

в) **сказуемого придаточного предложения**. Shu payt eshik ochilib, hovliga harbiycha kiyingan bir yigit kirib keldi. — В это время открылась дверь и во двор вошел молодой человек, одетый в военную форму.

Деепричастия, образованные с помощью аффиксов **-a, -u** часто употребляются в удвоенном виде для обозначения повторяемости или длительности действия основного глагола: Nazrulla yugura-yugura charchadi. — Назрулла, бегая-бегая, устал.

**Отрицательная форма деепричастий** образуется присоединением к основе глагола аффикса **-may** или **-masdan**: o‘qi+may, o‘qi+masdan - не читая.

Деепричастия, образованные при помощи аффиксов **-a, -u** в предложении выполняют следующие функции:

а) **обстоятельства:** U o‘ylay-o‘ylay uydan chiqib ketdi. — Раздумывая, он вышел из комнаты. Aziza “Otasining qizi” spektaklining mazmunini kula-kula gapirib berdi. — Азиза, смеясь, рассказала содержание спектакля «Дочь отца»;

б) **служат для связи основного глагола со вспомогательным:** Natasha o‘zbek tilida xat yoza oladi. — Наташа может написать письмо на узбекском языке;

в) **изменяясь по лицам и числам, служат для образования настояще-будущего времени:** Men Nizomiy nomli davlat pedogogika universitetida o‘qiyman. — Я учусь в Ташкетском государственном университете имени Низами.

**64-mashq.** *Quyidagi fe'llarning o'zagiga -a (-y) qoshimchalaridan mosini qo'yib, ravishdosh yasang.*

Bormoq, kulmoq, chopmoq (+boshlamoq), eshitmoq, to‘qimoq, taqillatmoq (+kirmoq), so‘ramoq (+qo‘ymoq), osilmoq, yiqilmoq.

**65-mashq.** *Ravishdoshlar ishtirokidagi gaplarni ko'chirib yozing va rus tiliga tarjima qiling.*

1. Osmonda yulduzlar ko‘rina boshladi. 2. Qizcha o‘ynay-o‘ynay uydan uzoqlashdi. 3. Hamma o‘sha voqeani kula-kula esladi. 4. Kech qolgani uchun darsga kirmay, kutubxonada kitob o‘qib o‘tirdi. 5. Sen nega indamay o‘tiribsan? 6. O‘t alangasi kuchayib, uy yona boshladi. 7. Bolalar ko‘rganlarini quvona-quvona gapirib berishdi.

## 17 – mashg‘ulot

### Har yili obuna bo‘laman

**GAZETA**

1. 2. 3...

**JURNAL**

1. 2. 3...

### **Topshiriq.**

1. Namunaga qarab o‘z klassteringizni tuzing.
2. Obuna bo‘lish tartibi haqida so‘zlab bering.
3. “Sevimli gazetam” mavzusida bayon yozing.

## Sifatdosh (Причастие)

**Причастие** в узбекском языке является формой глагола, которая по своему морфологическому строению совпадает с формой глагола III лица единственного числа. В предложении выступает в качестве подлежащего, сказуемого, определения, дополнения и обстоятельства, т.е. функционально совпадает с именем существительным. Таким образом, эта глагольная форма «причастие» относится как к глаголу (обладает категорией залога, времени), так и к имени существительному (сочетается с аффиксами принадлежности, склоняется, имеет форму множественного числа).

В узбекском языке причастие образуется прибавлением к основе глагола аффиксов **-gan** (-kan, -qan), **-yotgan**, **-r**, (-ar), **-digan**. Эти аффиксы различают причастия по времени. По выражению значения времени аффиксы причастий распределяются следующим образом.

Sifatdosh zamoni (Время причастия)	Qo'shimchalar	Misollar
O'tgan (Прошедшее)	-gan (-kan, -qan)	Bajargan (выполнивший), ekgan (посеявший), chiqqan (вышедший)
Hozirgi (Настоящее)	-yotgan, -vchi, (-uvchi)	Ishlayotgan (работающий), yashovchi (проживающий)
Kelasi (будущее)	-r, -ar, -digan	Kelar (приходящий, который приходит), beriladigan (отдаваемый)

**66-mashq.** Sifatdoshlarni toping va ularning yasalishini yuqoridagi jadval asosida tushuntiring.

1. O'tilgan mavzuni takrorlaymiz. 2. Yog'ayotgan yomg'ir qorga aylandi. 3. Ko'chalarda suv sepuvchi mashinalar ko'rinib qoldi. 4. Avaz yod olgan she'rini aytib berdi. 5. Gul ko'targan qiz eshikni ochdi. 6. Mirob gullayotgan g'ozalarga suv qo'ydi. 7. Sveta o'zi tikkan ko'ylakni ukasiga sovg'a qildi.



## 18-mashg'ulot

**Topshiriq.** Gaplarni diqqat bilan ovoz chiqarib o'qing va rus tiliga tarjima qiling.

### Matbuot sahifalarida

Odam tabiatga ta'sir ko'rsatish bilan birga o'z shaxsining tabiatini o'zgartiradi.

*K.Marks*

Tabiatning beqiyosligini tan olmoq kerak. Kishining qanchalik sog'lom, nosog'lom bo'lishi havo, iqlim va yashash tarziga bog'liqdir.

*Abu Bakr Roziy*

...Odamlar tuzilishlarining rang, surat, tabiat va axloqda turlicha bo'lishi faqatgina nasablarning turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yer—odam yashaydigan joylarning turlichaligidan hamdir.

*Abu Rayhon Beruniy*

Odaming salomatligi tashqi sharoit bilan chambarchas bog'liqdir.

*Abu Ali Ibn Sino*

Har kimning o'z turgan yerini gulzor qilsa, butun olam gulga burkanadi.

*A.P.Chexov*

Diplomsiz va muhsiz, kabinetsiz va bepul davolaydigan yo'qsil shifokor — quyoshdir.

*N.I.Podolskiy*

### Topshiriq.

1. Siz yoqtirgan jurnal, gazeta sahifalarida qanday mavzudagi maqolalar manzur bo'ladi?
2. Gazetalardan "Dunyo xabarleri" mavzusidagi yangiliklarni to'plang va daftaringizga yelimgang.
3. Bir kun Sizning hayotingizga qanday yangilik olib kelganini so'zlab bering.

## Harakat nomi

(Отглагольное имя действие)

Неспрягаемая форма глагола, называющая действие или состояние, является отглагольным именем действия. Эта форма глагола образуется прибавлением к положительной основе глагола аффиксов -moq, -sh (-ish), -v (-uv), -maslik и переводится на русский язык инфинитивом или отглагольным именем. *Например:* yodlamoq (выучить), yurish (ходьба, хождение), yozuv (писать, письмо, писание), aytmaslik (не сказать).

При самостоятельном употреблении отглагольное имя, обозначая процесс действия выполняет функцию, соответствующую имени существительному. *Например:* Chopish – sog'liqqa foydali. — Бег - полезен для здоровья.

При таком употреблении оно, как и имя существительное может склоняться с притяжательными и падежными аффиксами. *Например:* O'qishim yomon emas. — Моя учеба идет не плохо. Tezroq o'zbekcha so'zlashishni istayman. — Хочу быстрее разговаривать по-узбекски. Bu yerga kelishimdan maqsad – seni ko'rish. — Цель моего прихода сюда – увидеть тебя.

**67-mashq.** *Maqol va hikmatli so'zlarni ko'chiring va yodlang. Harakat nomining qo'llanilishiga e'tibor bering.*

1. O'qish -ulg'ayish. 2. Vaqtni o'g'irlamoq - baxtni o'g'irlamoq.  
3. Kimning o'qish, o'rganishga ishtiyiqi zo'r bo'lsa, uning kelajagi porloq bo'ladi. 4. Og'ziga kelganni gapirmoq - nodonning ishi. 5. Xato qilmoq bordir, tuzatmaslik ordir. 6. O'rganish oson - yaratish qiyin. 7. Tilni bilish dilni bilishga yo'l ochar.

## 19-mashg'ulot

### *Topshiriq.*

1. Matnni ifodali o'qing, mazmunini so'zlab bering.
2. Gapdagi fe'l so'zlariga alohida savol tuzing.
3. Fe'lning zamon, nisbat va vazifa shakllari bo'yicha tahlil qiling.

## Onajonlar beshik tebratadi

(Rivoyat)

Kunlardan bir kuni mamlakatni yov bosibdi. Aholini tig'dan o'tkazib, yurtni talab, vayron qilibdi. Yov askarlari qirg'indan omon

qolgan bir ayolni ikki nafar farzandi bilan asir olib, o'z shohlari oldiga olib kelibdi.

Asirlarni oldiga olib kirgan mulozim, shohga Ona o'z farzandlarini haddan ziyod yaxshi ko'rishini, ular uchun jonini ham fido qilishga tayyor ekanligini bildiribdi. Bosqinchi shoh Onani sinamoqchi bo'lib:

“Seni emas, og'lingni o'ldirmoqchiman, chunki u katta bo'lsa qasosga bel bog'lashi mumkin. Biroq sen farzanding uchun o'ng ko'zingni bersang, o'g'lingni o'ldirmayman,” – debdi.

- Ko'zim kerak bo'lsa o'yib ol, lekin bolamni o'ldirma, - debdi Ona.

- Jallod, Onaning o'ng ko'zi o'yilsin, - deb buyuribdi shoh.

Jallod Onaning o'ng ko'zini o'yib olibdi.

- Endi, chap ko'zingni bersang qizing ham omon qoladi, - debdi shoh.

Ona ikkilanmay rozi bo'libdi. Jallod Onaning shap ko'zini ham o'yib olibdi. Bu orada yurt Vatanparvarlari ozodlik uchun kurashib, g'alaba qozonibdi.

Ona mehriga, jasoratiga bosh eggan yurt aholisi Onani yurt boshlig'I etib saylabdi. O'g'il Onaning o'ng ko'zi, qizi esa chap ko'zi bo'libdi. Ular uzoq yashab, yurtda tinchlik va adolat o'rnatibdilar.

**68-mashq.** *Matnidagi fe'l zamonlari, nisbatlari, vazifa shakllarini aniqlab, ustun shaklida yozing.*

### **Eng yirik uyali telefon**

“Samsung Mobile” va AQSH ning “Cricet” uyali aloqa kompaniyasi hamkorligida yaratilgan bu telefon o'lchami bilan hammani hayratga soldi. “Samsung Messenger” modelining eng yirik nushasi bo'lgan bu telefonga SCH-R450 nomi berilgan.

Ginnes rekordlar kitobidan o'rin olgan bu telefon o'lchami 3,4x4,6 metrga teng bo'lib, u Chikago shahridagi “Cricket” ofisi yoniga o'rnatilgan. Moslama har qancha yirik bo'lmasin, u o'z mitti ajdodining barcha xususiyatiga ega. Xohlovchilar undan bepul xabar yo'llashlari va qo'ng'iroq qilishlari mumkin.

*(Matbuot sahifalaridan)*

**69-mashq.** *Matnidagi fe'llarning vazifa shakllarini aniqlang.*

**Bu fakt!**

Mutaxassislarning fikricha, ingliz tilida 425 million, hind tilida 350 million, ispan tilida 340 million, rus tilida 290 million, nemis va fransuz tillarida 120 milliondan ortiq kishi so'zlashar ekan.

Inglizlar o'z ona tillarini o'rganishlari uchun 8 oy, ispanlar esa 2-3 oy sarf qiladilar. Yaponlar maktabni bitirganlaridan so'ng ham ona tillarini o'rganishda davom etarkan.

**Topshiriq.**

1. Matni ifodali o'qing, mazmunini so'zlab bering.
2. "Tilning qudrati" mavzusida suhbat tashkil eting.

Ilmdan bir shu'la dilga tushgan on,  
Shunda bilursankim, ilm - bepoyon.

\*\*\*

Til har narsani valdirayversa, hamma o'zini noqulay sezadi.

**20 – mashg'ulot**  
**Yakuniy nazorat**

**21 – mashg'ulot**  
**O'zbek tili — davlat tili**

**Topshiriq.** Matn asosida suhbat tashkil eting. Har bir xatboshini insert usulida tahlil qiling.

Har bir xalqning o'z ona tili bo'lganidek, o'zbek xalqining ham o'z tili – o'zbek tili bor.

O'zbek tili o'zbek davlatining davlat tilidir, uni respublikamizda 14 millionga yaqin xalq ona tilim, deydi. O'zbek millatiga mansub kishilar Afg'onistonda (120000), Qashqarda (15000), Saudiya Arabistonida, Turkiya va AQSHda, Germaniya va boshqa yerlarda ham yashaydilar. Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston davlatlarida o'zbek tili o'qitiladigan maktablar bor. O'zbek tili qadimiy tillardan bo'lib, dastlabki yozma yodnomalar

VI-VII asrlarga oiddir (O'rxun-Enasoy yozuvlari). Arablar istilosi davrida (VII asr) tilimizga arab tilining ta'siri kuchli bo'ldi, lekin tilimiz ijodkori,

xalqimiz, tirik bo'lgani va kurashgani uchun o'z lug'atini va Grammatik tuzilishini saqlab qoldi.

X-XI asrlardan boshlab, bu tilda yirik asarlar yuzaga keldi. Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'otit turk", Yusuf Xos Xojib "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiy, "Xibat-ul Haqoyiq" kabi asarlarda o'zbek tilining boyligini, ko'rkini ochib berdilar. Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy kabi buyuk adiblar o'zbek tilining rivojlanishida katta xizmat qildilar.

XI-XII asrlarda o'zbek tilini rivojlantirishda Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Xorazmiy kabi shoirlar ham o'zlariga xos o'rin tutdilar.

XV asr o'zbek tilining gullash davri sanaladi. Bu taraqqiyot A.Navoiy ijodi bilan bog'lanadi.

Alisher Navoiy o'zbek tilining kuch-qudratini, boyligini, nafisligini namoyish qildi, buyuk turk tilida yozgani bilan nihoyatda fahrlandi.

Chun toptim ul qalam ichra kamol,  
Turk alfozi bilan surdim maqom,  
Turk nazmida chu men tortib qalam,  
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1989-yil 21-oktabrda bo'lib o'tgan sessiyasida o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berildi, o'zbek tili O'zbekiston Respublikasining Davlat tilidir, degan Qonun qabul qildi. Bu – o'zbek xalqining siyosiy va madaniy hayotida eng yirik voqealardan biri bo'ldi.

### Lug'at

dastlabki - изначально  
qadimiy - древний  
istilo - завоевание  
ijodkor - творец  
donishmand - мудрец  
gullash davri - эпоха процветания  
qudrat - могущество  
nafislik - тонкость, изящество, прелесть  
fahrlanmoq – гордиться

**70-mashq.** Berilgan qo'shimchalar yordamida morfologik usulda fe'llar yasang.

-la, -lan, -ay, -lash.

71-mashq. *She 'rni yod oling.*

ONA TILIM

O'z tilini unutgan xalqning,  
Bog'larida o'sgan gullarni  
**Chirmab** olar zaharli ilon.  
O'z tilini unutgan xalqning,  
Osmonida **porlamas** quyosh -  
Nur o'rnida to'kiladi tosh.  
O'z tilini unutgan xalqning,  
Uyqusida **aslo** orom yo'q -  
Tegib turar kuragiga o'q.  
O'z tilini unutgan xalqning,  
**Mozorida** ajdodlar qabri  
Uzra qo'yar bolalar tikan.

Kelib ketdi necha dunyolar,  
Kuldi hayot, yig'ladi o'lim  
Sen deb **qurbon** bo'ldi bobolar,  
Ular ketdi, sen qolding tilim.  
**Belanchaging** uzra Qoshg'ariy  
Kuylab o'tdi qadim navoni.  
Va **navqiron** yaproqlaringga  
Dil qonini berdi Navoiy.  
Samarqanddan Bobur ketarkan  
Dilda bo'g'ib **hasrat** sasini,  
Olib ketdi ona yurtidan,  
O'zbek tili birgina seni.

Mashrabmas, sen osilding dorga,  
Nodiramas, sensan **so'yilgan**  
Hozikningmas, sening, ey tilim.  
Boshing ayri, ko'zing **o'yilgan...**  
Ona tilim omon **bo'l mangu,**  
Sen borsan-ki, men ham o'lmayman.  
Tildan qolsam seni Oybekday,  
Men ko'zlarim bilan so'yilayman.

*Xurshid Davron*

### *Topshiriq.*

1. Ajratib ko'rsatilgan so'zlardan lug'at tuzing.
2. Fe'llarning yasashiga ko'ra turlari jadvalini tuzing.
3. Yasovchi qo'shimchalar orqali yasalgan fe'llarni ajratib yozing.
4. Fe'llarni qaysi so'z turkumlaridan yasash mumkin? *Masalan:* ikki (son)+landi, bosh(ot)+la kabi 4 tadan misollar yozing.

### **72-mashq.**

#### **Ona tilni bilaylik**

Ona tilim bir chinor,  
**Ildizi chuqur** ketgan.  
Moziy qatlamin oshib,  
O'rxun xatiga yetgan.  
**Toshdagi bitiklardan.**  
Xos Xojibdan rivoyat.  
Yetib kelgan bizlarga.  
Qoshg'ariyday turk lug'at.

Turkiy tilim sozdir deb,  
**Ijod qilgan** Yugnakiy.  
Haqni bilsin xalqim deb,  
**Hikmat bitgan** Yassaviy.  
Turkiy tilni Navoiy,  
**Jam aylagan** yakqalam.  
Ona til deb Shoh Bobur,  
Hinda chekkan ranj, **alam.**  
Boborahim Mashrab ham,  
Muqimiy, Furqat, Zavqiy.  
Turk tilin **e'zozlagan,**  
Nodira ham Uvaysiy.  
**Bosh ko'tarib** g'animlar,  
Ona tilim **yemirdi.**  
O'zbekning tilin kesib,  
Qashqirlarday kemirdi.

#### *Nigohiy.*

### *Topshiriq:*

1. She'r matnidan yasama fe'llarni ajrating.
2. Lug'atdan foydalanib she'rning mazmunini tushuntiring.
3. Ajratilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

## 22 — mashgʻulot

### Til — doʻstlik kaliti

#### DASTORGUL

Bir hikoya aytib beray, siz quloq soling!

Shahar chetidan oʻtadigan yoʻlning boʻyida bir bogʻ bor. Bu bogʻni balki, siz ham bilarsiz? Uning roʻparasida boʻyalgan yogʻoch panjara bilan oʻrab olingan yana bir kichkina bogʻcha ham bor. Bogʻga yaqin joyda, ariq boʻyidagi mayin oʻtlar orasida yolgʻiz dastorgul oʻsadi. Quyoshning nuri bogʻ oldida oʻsgan katta va chiroyli gullar qatorida shu kichkina dastorgulni ham qizitadi va allalaydi. Bizning dastorgul kun sayin emas, soat sayin oʻsib, katta boʻlmoqda. Bir kuni ertalab bu gul charos ochildi — sariq va yum-yumaloq oʻzagi goʻyo oftob-u, atrofidagi oppoq gul barglari — oftobning nuri. Gʻovlab oʻsgan oʻtlar ichida bu gulni hech kim koʻrmaydi. Hech kim nazarga ilmaydi. U oʻzining bunday faqir va sodda gul boʻlganidan nolimaydi ham; u hammadan xursand, oftobga intiladi, unga suqʻlanib boqadi va baland osmonda sayragan toʻrgʻayning ovozi tinglaydi.

Dastorgul shunday shod va baxtiyorki, goʻyo bugun bayramday, aslida esa bugun oddiy ish kunlaridan biri; hamma bolalar partalarda tinch oʻtirib, oʻz oʻqituvchilarining darsini tinglaydilar; bizning dastorgul ham oʻz novdasida tinch oʻtirib, porloq quyoshdan va tabiatdan dars oladi. Dastorgul toʻrgʻay qoʻshigʻini tinglarkan, uning yangroq ovozi xuddi gulning dilidagini aytayotganga oʻxshaydi. Shuning uchun dastorgul parvoz qilayotgan baxtiyor qoʻshiqchi qushga alohida hurmat bilan qaraydi, ammo oʻzining ucholmagani va qoʻshiq aytolmaganidan aslo afsuslanmaydi.

«Men hamma narsani koʻraman va eshitaman, shu ham kifoya, — deb oʻylardi u, — oftob boʻlsa meni allalaydi, shabboda silab-siypaydi! Men baxtiyorman!»

Boqchada juda koʻp husndor va magʻrur gullar ochilib yotibdi; ular orasida xushboʻy hidi boʻlmaganlari ham bor. Ular esa ayniqsa magʻrur koʻrinadilar. Sallagullar esa betlarini shishirib, atirguldand kattaroq koʻrinishga urinadilar, gap kattalikda ekanmi? Lolaqizgʻaldoqlar hammadan koʻra oliftaroq; buni oʻzlari ham yaxshi biladi, shuning uchun koʻzga tezroq tashlanish maqsadida qaddi-qomatlarini tikroq tutishga harakat qilishadi.



Bu magʻrur gullardan bittasi ham ariq boʻyida oʻsayotgan kichkina dastorgulga eʻtibor qilmaydi, lekin dastorgul koʻp vaqt ularga qarab: «Ular qanday yasangan, qanday chiroyli! Haligi qoʻshiqchi qush albatta ular yoniga qoʻnib mehmon boʻladi! Xudoga shukurki, men bu yerga yaqinman — u qushni koʻrib, tomosha qilib olaman!» deb oʻylab qoʻyardi.

Birdan: «Vit-vit-chuv-vit!» degan tovush eshitildi va yerga toʻrgʻay qoʻndi. Sallagul va atirgullar oʻsib turgan bogʻga emas, toʻgʻri yumshoq maysaga, hech kim tanimagan dastorgul yoniga kelib qoʻndi! Dastorgul shodligidan oʻzini yoʻqotib qoʻydi, nima qilishini, nima oʻylashini ham bilmas edi!

Qushcha dastorgulning atrofida sakrab-sakrab yurdi-da, sayrab yubordi:

— Oh, qanday yumshoq maysalar! Qanday chiroyli gul! Usti-boshi kumushdan, oʻzagi esa oltin!

Dastorgulning oʻzagi chindan ham oltinday nur sochar, oppoq gul barglari esa, kumushday yarqirar edi.

Dastorgul shunday baxtiyor, shunday shod ediki, qoʻyabering!

Qushcha uni oʻpib, qoʻshiqlar aytib berdi-da, keyin yana koʻm-koʻk osmonga uchib ketdi. Dastorgul baxtiyorlikdan oʻzini yoʻqotgan edi u chorak soatcha oʻziga kelolmay turdi. Soʻngra zoʻr quvonch va biroz andisha bilan haligi oʻziga zeb bergan atrofidagi gullarga boqdi: bugun dastorgulning hissasiga tushgan baxtni shulargina koʻrdi-da! Bu voqeani oʻshalardan boshqa kim baholay olar edi! Ammo, lolalarga alam qildi, ular boʻylarini choʻzdilar, yuzlari boʻlsa, yanada qizarib ketdi. Sallagullar esa alamiga chidayolmay yorilib ketay dedilar! Yaxshiki ular gapirolmaydilar, boʻlmasa... Bechora dastorgul ularning kayfi buzilganligini darrov payqadi va astoydil pushaymon qildi.

Shu vaqt bogʻda bir qiz koʻrindi, qoʻlida oʻtkir qaychisi bor edi. U toʻppa-toʻgʻri lola va sallagullar yoniga keldi-da, ularni birin-ketin kesa boshladi.

Dastorgulning jon-poni qolmadi: bu qanday dahshat! Endi ularning umri tamom!

Qiz gullarni kesib olib ketdi, dastorgul esa hech kim koʻrmaydigan pana joyda, oʻtlar orasida oʻsganidan ancha xursand boʻldi.

Quyosh botdi, dastorgul gulbarglarini yigʻib olib uyquga ketdi, u tushida ham qoʻshiqchi qushni va nurli oftobni koʻrdi.

Ertalab dastorgul gulbarglarini yana yozib yubordi, gul-barglar goʻdakning qoʻlchalariday oftobga intildilar, xuddi shu damda toʻrgʻayning tovushi eshitildi; qushcha gʻamgin-gʻamgin kuylar edi!

Bechora qushcha tuzoqqa tushibdi, u ochiq deraza yonidagi qafas ichida o'tiribdi. To'rg'ay erk haqida, poyonsiz osmon haqida, dalalardagi ko'm-ko'k maysalar haqida o'ylar edi. Erkinlikda rohatlanib parvoz qilish qanday yaxshi! Uning yuragida og'ir-og'ir g'am — u endi asirda!

Dastorgul asir qushga yordam berishni chin ko'nglidan istar edi. Lekin u qanday qilib yordam bersin!

Dastorgul atrofning go'zalligi, oftobning shafqatli nurlari, o'zining kumush gulbarglari haqida o'ylashni esidan ham chiqarib qo'ydi. U asir qushchaga yordam berishga ojiz ekanini o'ylab, xafa bo'lardi.

Bog'chadan ikki bola chiqib qoldi, ularning qo'lida o'tkir qaychisi ham bor. Kechagi qiz ham xuddi shunaqa qaychi bilan lolalarni kesib ketgan edi. Bolalar to'g'ri dastorgul yoniga keldilar, gul bo'lsa, ularni nima qilib yurganlariga sira tushunolmas edi.

—Mana bu yerdan to'rg'ayimiz uchun yaxshi chim qirqib olish mumkin, — dedi bolalardan biri va pichog'i bilan bir parcha yerdagi chimni qirqa boshladi; dastorgul bo'lsa xuddi shu chimning qoq o'rtasida o'sar edi.

— Gulni uzib tashlaymiz, — dedi ikkinchi bola.

Dastorgul qo'rqqanidan titrab ketdi: uzib tashlasalar uning hayoti tugaydi axir, u ayniqsa endi yashamoqchi edi.

—Yo'q, gul tura bersin, — dedi bola, — chiroyliroq bo'ladi! Shunday qilib dastorgulni to'rg'ay yoniga, qafasga eltib qo'ydilar.

Bechora qushcha erksizlikdan dod solar, tipirchilar va qafasning temir panjaralariga o'zini urar edi. Dastorgul uni yupatish uchun bir so'z ham aytolmas edi. U qushchaga tasalli berishni juda istar edi! Butun kun mana shunday o'tdi.

—Bu yerda suv yo'q! — deb zorlandi to'rg'ay, — ular menga suv berishni unitib qo'ydilar. Bir qultum suv qo'ymay ketib qoldilar. Tomog'im qaqrab ketdi! Yonib ketayapman! Nafasim og'zimga tiqildi! Men o'laman, oftob nuri bilan, ko'm-ko'k maysalar bilan, butun dunyo bilan xayrlashishga to'g'ri keladi!

«Biroz bo'lsa ham nam topilmasmikan» deb u salqin va nam chimga tumshug'ini botirdi, dastorgulni ko'rib qolib unga bosh silkadi va dedi:

—Bechora gul, bu yerda sen ham so'lib qolasan! Butun bir yorug' dunyo evaziga ular menga seni va mana bu chimni tashlab ketdilar! Bu chimdagi har bir o't men uchun bir daraxt, sening har bir gulbarging — bir xushbo'y gul bo'ladi. Oh! Sen men mahrum bo'lgan barcha go'zalliklarni eslatib turasan, xolos!

«Uni qanday qilib yupatsam ekan!» — deb o‘yladi dastorgul, biroq gulbargini ham qimirlata olmadi. Lekin u ancha-muncha xushbo‘y hid tarqatdi. To‘rg‘ay buni sezib turar edi, u tashnaligini bosish uchun butun mayсалarni cho‘qib tugatdi, lekin gulga tegmadi.

Kech ham kirdi, ammo bechora qushchaga hech kim suv keltirmadi. U kichkina qanotchalarini yoyib, jon achchig‘ida qaltiradi va bir necha marta chinqirdi:

— Suv -suv! Chuv -chuv!

Qushcha boshini quyi soldi, so‘ngra alam va azobdan yuragi yorilib ketdi.

Dastorgul ham, endi ilgarigiday gulbarglarini yig‘ishtirib uxlayolmadi. U butunlay darmonsiz, boshini quyi solib g‘amgin turar edi.

Ertasi ertalab bolalar kelishdi. Ular to‘rg‘ayning o‘lganini ko‘rib, o‘ksib-o‘ksib yig‘ladilar. So‘ngra chiroyli qizil qutichaga solib, shahzodalardek ko‘mdilar! Bechora qushchani tirikligida butunlay unutgan edilar, uni qafasga solib suvsiz o‘ldirdilar, endi bo‘lsa dabdaba bilan motam marosimi o‘tkazayotirlar. Qushning qabri ustida bolalar achchiq-achchiq yig‘ladilar!

Dastorgul bilan chimni chang yo‘lga tashlab yubordilar, gul hech kimning esiga ham kelmadi, holbuki, bu gul bechora qushchani hammadan ko‘ra qattiqroq sevgan va uni chin ko‘ngildan yupatishni istagan edi.

### *Topshiriq.*

- 1) Do‘stlik deganda nimani tushunasiz?
- 2) Ertakdagi do‘stlik haqida fikr bildiring.
- 3) Matndagi fe‘l yasovchi qo‘shimchalarni aniqlang.
- 4) So‘z yasash usullariga misol keltiring.

*Namuna:* aql+li (affiksatsiya usuli), qo‘l bermoq (sintaktik usul)

**73-mashq.** *Berilgan dialog yordamida o‘z do‘stingiz haqida suhbat tashkil eting.*

- Sening do‘stlaring bormi?
- Ha, mening do‘stlarim ko‘p.
- Ular kimlar?
- Ular men bilan litseyda birga o‘qiydigan bolalar.
- Ulardan senga eng yaqini kim?
- Ulardan eng yaqini Temur va Sasha.
- Ular qanday baholarga o‘qishadi?
- Hamma fanlardan faqat “4” va “5” bahoga o‘qishadi.
- Do‘stlaringni ta‘riflab ber.



— Temur qotmadan kelgan, bo‘yi baland, qora qosh va qora ko‘z, ko‘zlari katta - katta qo‘y ko‘z, bug‘doy rang, yuzi dumaloq, gavdasi juda kelishgan. U basketbol to‘garagiga uch yildan beri qatnashadi. Shahar birinchiliklarida ham ishtirok etgan. Sasha esa aksincha, o‘rta bo‘yli, malla sochli, to‘ladan kelgan, chaqqon, epchil, harakatchan, tirishqoq. U kurash to‘garagiga to‘rt yildan beri qatnaydi. U ham shahar musobaqalarida ishtirok etib, sovrinli o‘rinlarni egallagan.

— Ularning qaysi fazilatlariga senga ko‘proq yoqadi?

— Ularning mehnatsevarligi, rostgo‘ylik, kamtarinligi, kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilishlarini yoqtiraman.

— Ular o‘zbek tilini yaxshi bilishadimi?

— Ha, Temur va Sasha o‘zbek tilini yaxshi bilishadi.

— Siz o‘zaro o‘zbekcha gaplashib turasizmi?

— Ha, biz ko‘pincha o‘zbekcha gaplashamiz.

— Ko‘pincha nimalar haqida gaplashasiz?

— Biz ko‘pincha o‘zbek shoirlari, yozuvchilari haqida suhbatlashamiz.

— Fan va madaniyat haqida ham suhbatlashasizmi?

— Ha, biz ayniqsa, O‘zbekiston fan va madaniyatining yutuqlari haqida suhbatlashamiz.

*Topshiriq. Guruhdagi o‘rtoqlaringiz ta’rif va tavsifini aytib bering.*

**74-mashq.** Matnni o'qing va mazmunini izohlab bering. Gapdagi fe'llarning vazifa turini aniqlang.

### Do'stlik

Odamning shodlik va qayg'uli vaqtlarida tayanchi, shubhasiz, uning do'stlaridir. Shuning uchun yosh va boshqa jihatdan o'zingizga mos keladigan kishilarni tanlab do'stlashing.

Bilib, sinamasdan turib shirin so'zlariga ishonib do'st bo'lmang. Shunday kishilar borki, sizdan manfaat ko'rish uchungina do'st bo'ladilar. Ishlari bitgach, do'stliklari ham tugaydi...

Do'stlaringizni koyib, xafa qilishga shoshilmang.

Juda katta sabablar bo'lmasa, do'stlaringiz bilan orangizning buzilishi adabsizlikdir. Shunga ko'ra mayda-chuyda narsalar uchun do'stlaringizdan ajralmang. Har vaqt bir – birini hurmat qilish sababli do'stlik rishtalari mustahkamlanadi. Shuning uchun do'stlaringizga imkoniyatingiz yetganicha yordam bering.

Qarindosh-urug'laringiz bilan orangizning buzilishiga beparvo qaramang, ularga achchiq so'zlar aytishdan ehtiyot bo'ling, sabrli bo'ling. Noo'rin achchiqlangan bo'lsangiz, sabr etganingiz uchun keyin sevinasiz. «Sabr tagi – sariq oltin» deb bejiz aytishmagan.

### Lug'at

tayanch - опора

qayg'uli – печальный

shubhali – подозрительный

beparvo - безразлично

achchiqlanmoq – огорчиться

### 23-mashg'ulot

#### Donishmand yigit

(O'zbek xalq ertagi)

Qadim zamonlarda bir podsho o'tgan ekan. Podsho hukm chiqarishda gunohkor-gunohsizlarni chek tashlash yo'li bilan aniqlar ekan. Gunohkor deb hisoblangan odamni podsho o'z oldiga chaqirib, bir qutini ko'rsatar ekan. Uning ichida ikkita qog'oz bo'lib, biriga "O'lim", ikkinchisiga esa "Ozodlik" degan so'zlar yozilgan bo'lar ekan. Gunohkor "Ozodlik" degan qog'ozni olsa, ozod bo'lar ekan. "O'lim" degan qog'ozni olsa, o'limga hukm qilinar ekan.

Kunlardan bir kun hasadgo'ylardan bir nechtasi to'planib, bir donishmand yigitni gunohkor qilib ko'rsatishibdi. U yigitning dushmanlari qutidagi ikkala qog'ozga ham "O'lim" degan so'zni yozib solib qo'ygan ekanlar. Bu sir-asrordan donishmand yigitning yaqinlari uni ogohlantirishibdi.

Podsho odati bo'yicha gunohkorni chaqirib, qutidagi qog'ozlardan birini olishni buyuribdi. Donishmand esa qog'ozlardan birini qo'liga olibdi-yu, yutib yuboribdi. Podsho esa qutidagi qolgan qog'oz orqali hukmni bilishga qiziqibdi. U qutini ochib qarasa, unda "O'lim" degan hukmli qog'oz qolibdi.

Podsho yigit yutgan qog'ozda "Ozodlik" degan hukm bo'lsa kerak, deb gunohsiz donishmandni ozod qilib yuboribdi.

Donishmand shunday qilib o'zining aql-zakovati bilan o'limdan qutulib qolgan ekan.

**Topshiriq.** Savollarga javob bering.

1. Podsho gunohkorlarni qanday aniqlar ekan?
2. "Hasadgo'ylar" deganda qanday kishilarni tushunasiz?
3. Donishmand yigitga do'stlari qanday yordam berishdi?
4. Ertakdan yigitning aql-zakovati tasvirlangan qismni toping va o'qing.

**75-mashq.** Matndagi gaplardan so'zlarni qo'shish (sintaktik usul) orqali yasalgan fe'llar va ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalarini ajratib yozing.

**76-mashq.** Gaplarni o'qing. Fe'llarni ajrating. Yasalish usulini aniqlang.

1.Voy azamat-ey, bitta tarvuzni bir o'zi urdi-ya! 2.Oyi, qarang, qizingiz qulog'imizdan cho'zyapti. 3.Yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi. (Maqol). 4.Yigitlar yugurib chiqib, belbog'laridan nari - beri arqon yasab yo'lni kesdilar. 5.Kattalar gapirganda so'zini kesma. 6.Kes, kes arqonni, - qichqirishdi bolalar. 7.Onasining dakkisidan bolaning ovozi kesildi. 8.Bola qo'qqisidan xujum qilgan itni tayoq bilan urdi. 9.Odamlar o'zlarini avtobus eshigiga urdilar.

**77-mashq.** Matnni o'qing. Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalarini ajratib, daftaringizga yozing.

## Ulug' zotlar bog'i

Sulton Mahmudning juda ham go'zal bog'i bor edi. Bu bog' boshqa bog'lardan afzal edi. Bir kun bog'da Sulton Mahmud otasi sharafiga katta ziyofat berdi. Ziyofatdan keyin o'g'li otasidan:

—Aziz otajon, mening bog'im haqida nima deysiz, sizga ma'qul tushdimi? — deb so'radi. Otasi shunday javob berdi.



—Ey ko'zimning nuri o'g'lim, bog'ing juda ham zebo va dilkusho bog'dir, ammo boyligi bor har bir kishi bunday go'zal bog'ni bunyod qila oladi, lekin sen ko'plarga muyassar bo'lmagan bir antiqa bog'ni vujudga keltirginki, uning mevasidek meva hech qayerda topilmasin.

— U bog' qanday bog' ekan? — deb edi, otasi javob berdi. — U bog' olim-fozillar, adib—shoirilar, donishmandlar va boshqa ahloqli, tarbiyali ulug' zotlar suhbatidir. Shu ulug' zotlardan tarbiya topib, yaxshi ishlarni amalga oshirish uning daraxti bo'lib, mevasi yaxshi nomga ega bo'lishdir.

(“Oz-oz o'rganib dono bo'lur” kitobidan.)

**78-mashq.** *Matn xatboshilarini insert usulida tahlil qiling. Fe'llarni ajratib, daftaringizga yozing.*

### **Pahlavontosh afsonasi**

Oqsoqotaga borganmisiz? Borgan bo'lsangiz, soqchi pahlavon olamtoshni ko'rganmisiz? Yo'q? Bormagan bo'lsangiz, u nega soqchiyu, nega pahlavon, bu haqda eshitganmisiz?.. Bo'lmasa eshiting.

Oqsoqota soyiga, Qashqasuv quyiladigan tomonga borsangiz, uning o'ng yon bag'rida yo'l ustida go'yo soyni qo'riqlab turgan pahlavonni ko'rasiz. Uning qomatini go'yo haykaltarosh toshlarga o'yib ishlagandek ko'rinadi.

Pahlavon haqida har xil afsonalar to'qilgan. Ana shunday rivoyatlarning birida aytilishicha, butun elimiz kabi Oqsoqota aholisi ham tarixda qancha-qancha mudhish voqealarni boshidan kechirgan. Aholi arab istilochilari, mug'ul bosqinchilarini, Shayboniy qonxo'rlari, qoraxitoy talonchilarini o'z ko'zi bilan ko'rgan, ulardan behisob jabr chekkan. Lekin dushmanga bosh egmagan.

Shu yovlarning xujumlaridan birida Oqsoqota oqsoqollari kengashib, yosh bolalar, ayollar va qariyalarni Qashqasuv vodiysi orqali Oqsoqota soyining yuqori qismiga olib chiqib, yovdan yashirishga qaror qiladilar.

Azamat yigitlar mardona jang qilishadi, lekin yov ko'p edi. Oqsototalik jangchilar dushman askarlarini shu darajada ko'p qirishibdiki, soy yov kallalari bilan to'lib ketibdi. Bu kallalar hozir toshga aylangan emish. Oqsoqota himoyachilarining ham anchasi qirilib ketibdi. Shunda eng pahlavon, azamat yigit soyni Qashqasuvga yaqinroq yeriga turib olib, kelgan yovni qilichdan o'tkaza beribdi, ichkariga birontasini ham qo'ymabdi. Yov otgan nayzalar pahlavonga tegib, tig'i qayrilar, sinib tusharkan. Pahlavon tanasidagi mayda cho'tir o'yiqlar o'sha nayza uchlarining o'rni ekan. Oxiri yov orqasiga qaytishga majbur bo'libdi.

Pahlavonga nima bo'libdi, dersiz. U bolalar, ayollar va qariyalarni doim qo'riqlab turish uchun abadiylashibdi, toshga aylanibdi. Hozir ham vodiyni qo'riqlab turganmish. Shularni eslab, bu yerga kelgan har bir geograf yoki talaba xalqparvar pahlavonning tosh qiyofasini ziyorat qilmay ketmaydi.



## 24-mashg'ulot

### Bozorga tushdim

Bola buvisi bilan bozorga bordi. Voy-bo'y, odam juda ko'p. Qop-qop kartoshka, sabzi, piyozlar. Yana bir tomonda turshak, mayiz, bu yoqda nonlar, yana bir tarafda uzum, olma, anor.



Bir chekkaga o'tib dam olib turganlarida: —Yurtimizda to'kinchilik. Nimani istasang, mana, bozordan topasan, — dedi buvisi.

—Buvijon, o'zi bozor degani nima?

—Odamlar bir-biri bilan savdo — sotiqlik qiladigan joy, bolam.

—Radio — televizorda har doim "bozor" so'zi yoniga "iqtisod" so'zini qo'shib aytishadi.

O'zi iqtisod nima deganiykin? Buvisi tushuntirib berdi. Katta bir olimning aytishicha, iqtisod insonning yashashi uchun kerak bo'lgan narsalarga ehtiyoji, ularning ta'minlanishi ekan. *Bozor iqtisodi* - juda katta

jurayon ekan. U bizga o'xshash oilalarni, butun yurtning hayotini, odamlarning ishlashini, bozordagi oldi-sotdi – hamma-hammasini o'z ichiga olarkan. Iqtisodning o'z qonun-qoidalari, tartibi bo'larkan. Shunga bo'ysunmasa, u izdan chiqib ketarkan.

Bozor iqtisodida pul katta xizmat qiladi. Odamlar va katta—katta korxonalarining bir—birlari bilan savdo—sotiq qilishlarida pul vositachi bo'larkan. Pul juda qimmatli qog'oz ekan. Qiziq, tillani ham, yoki oddiy tuzni ham pulga sotib olisharkan.

Ba'zilar oraga pulni aralashtirmay, narsani narsaga tengma—teng almashtirishlari ham mumkin ekan.

Masalan, bir bolaning bir talay daftari bor, o'rtog'ining ancha qalami bor. O'ртоqlar bir—birlari bilan kelishib, ularni almashtiradilar (qalamni daftarga, daftarni qalamga). Bu *barter usuli* deyilarkan. Buvijonisi nabirasining qo'liga bir kitob tutqizdilar. Unda yozilishicha, barter aslida inglizcha so'z bo'lib, tovarlarni pulsiz almashtirish degani ekan. Bunday ish usuli ko'proq davlat miqyosida yoki katta-katta korxonalarda qo'llanilar ekan.

Bola o'sha kitobdan *tovar, biznes* so'zlarining ma'nosini bilib olibdi.

Tovar degani bozorga olib chiqiladigan mehnat mahsuli ekan.

Biznes so'zi inglizcha so'z bo'lib, tijorat ishlari bilan shug'ullanishni bildiradi. Pul topish niyatida birorta ish bilan mashg'ul bo'lish degan mazmunini ham bildirar ekan.

*Abdumajid Zokirov.*

### *Savol va topshiriqlar:*

1. Iqtisod nima?
2. Bozor iqtisodi haqida so'zlang.
3. Bozor iqtisodida pulning xizmati haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. *Barter, tovar, biznes* so'zlarining ma'nosini so'zlab bering.
5. *Iqtisod, barter, tovar, biznes* so'zlarini daftaringizga yozib oling. Izohi va imlosini o'rganing.

**79-mashq.** *Matn mazmuniga e'tibor bering.*

### **Hosil deb... ko'chat ekarman**

*(O'zbek xalq ertagi)*

Qarib bukchayib qolgan Ayiq ko'chada o'tirib olib, tesha bilan hadeb yer kovlar edi. Shunda tepasiga hayvonlar sultoni – Sher (Arslon) kelib so'rabdi:

— Ha, Ayiqpolvon yerni kovlab nima qilmoqchisan?

— Koʻrmayapsizmi, sultonim, daraxt ekyapman, — javob berdi Ayiq.

— Voy kaltafahm-ey, bir oyogʻing goʻrda boʻla turib, koʻchat ekayotganingni qara-ya. Bu hosil bergunicha koʻkarib chiqasan-ku.

— Ogʻzingga qarab gapir, — dedi Ayiqning jahli chiqib. — Buning hosilidan hali senga ham olib boraman.

Arslon Ayiqning soʻzidan taʼsirlanib unga bir bochka asal beribdi. Asalni qoʻlga olgan Ayiq birdan xaxolab kulib yuboribdi.

— Nega kulasan, befarosat, — soʻradi Arslon.

— Ey, hayvonlarning sultoni, oʻrmonlarning homiysi, kulmay nima qilay, kulaman-da. Manavini qara, ekgan koʻchatimning birinchi hosilini koʻrib turibman. Oʻrimdan qoʻzgʻalmasdan yotaverganimda sen asal tugur bir qultum suv ham bermas eding, — debdi Ayiq qoʻlidagi asalga ishora qilib.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Ayiqning nimadan jahli chiqdi va u nima dedi?
2. Nima sababdan Ayiq xaxolab kuldi?
3. —Nega kulasan? —soʻradi Arslon. (Javobini matndan oʻqib bering.)
4. Siz ham koʻchat ekanmisiz?

## **Sifat**

(Имя прилагательное)

Имя прилагательными называются самостоятельные слова, которые выражают признак предметов. Они отвечают на вопросы **qanday? qanaqa? – какой?, qaysi? - который?**

Прилагательные могут быть:

а) непроизводными: *qizil*-красный, *koʻk* -синий, *yashil* -зеленый, *katta* -большой, *baland* -высокий;

б) производными (*nisbiy*), т.е. образованными от других частей речи при помощи словообразовательных аффиксов имен прилагательных: *suv*-вода, *suvsiz*-безводный, *yoz*-лето, *yozgi*-летний.

Признак, выражаемый именем прилагательным, относится к предмету или явлению (*qizil qalam*, *yuqori kuchlanish*, *ajoyib suhbat*) и не мыслится отвлеченно от предмета, поэтому прилагательное всегда связано с существительным.

В узбекском языке прилагательное в функции определения всегда должно употребляться перед существительным. В отличие от русского языка, оно не согласуется с определяемым ни в числе,

ни в падеже, т.е. при сочетании с существительным не изменяет своей грамматической формы.

Сравните:

В узбекском языке	В русском языке
Keng hovli	Широкий двор
Keng xona	Широкая комната
Keng dala	Широкое поле
Keng ko'chalar	Широкие улицы
Keng taxtani	Широкую доску

Дополните таблицу своими примерами.

**80-mashq.** *Matnни o'qing, ajratib ko'rsatilgan so'zlarnи rus tiliga tarjima qiling, har ikkala tildagi sifatlarnи o'zaro taqqoslang.*

### Shisha qanday yaratilgan?

*Qadimgi kulollar sopol idishni sirlash uchun idishni o'tda toblaganlar. Ammo o'tda toblashdan oldin ham idishga tabiiy soda aralashtirilgan mayin qum sepganlar. Shu aralashma o'tda qizib, idish sirtiga sir bo'lib yopishgan. Ustalardan biri sirning o'zidan nimadir yasamoqchi bo'lgan. U aralashmani idishga solib o'tga qo'ygan. Qum bilan soda qizib, yaxshi erigandan keyin kulol shu yopishqoq aralashmaga cho'p suqib undan bir necha tomchi olgan. Suyuq aralashma toshga tomib qotib qolgan. Bu chinakam shisha edi. Lekin bunday aralashmadan tiniq, shaffof shisha chiqmagan. Odamlar uzoq vaqt bunday shishadan chiroyli munchoq va marjonlar, jimjimador vaza va boshqa idishlar yasashgan. Nurnи o'tkazadigan, ya'ni shaffof shisha tayyorlash ancha keyin topilgan. Ancha yillardan keyin tiniq, yupqa shishalar oyna sifatida qo'llanilgan. Endilikda oq, qizil, ko'k, binafsha rangli shishalardan keng foydalaniladi.*

**81-mashq.** *Quyidagi narsa-buyum nomlari – otlarning belgi xususiyatini ifodalovchi so'zlarnи toping, birgalikda ko'chiring.*

Bino, bog', qishloq, daraxt, kitob, mahsulot, non, qalpoq, ko'ylak, barg, tog', daryo, shahar, sigir, sabzi, korxonа, qo'y, cho'l, yo'lak, hikoya.

## Sifatlarning yasalishi va tuzilishi (Образование и структура прилагательных)

Большинство прилагательных в узбекском языке образуется при помощи следующих аффиксов и префиксов:

**-li:** sutli (молочный), kuchli (сильный), intizomli (дисциплинированный)

**-siz:** xavfsiz (безопасный), suvsiz (безводный), vijdotsiz (бессовестный);

**-chan:** uyatchan (стеснительный), ishchan (трудолюбивый), talabchan (требовательный);

**-gi (-ki, -qi):** yozgi (летний), qishki (зимний), tashqi (внешний)

**-k (-ik), -k, (-ik):** kesik (отрезанный), pedogogik (педагогический), iliq (прохладный)

**-choq (-chak, -chiq):** maqtanchoq (хвастливый), kuunchak (ревнивый), sirpanchiq (скользящий);

**-iy (-viy):** ilmiy (научный), ommaviy (публичный), oilaviy (семейный);

**-dor:** ohangdor (мелодичный), samarador (эффективный), rangdor (цветной);

**-gin, -qin:** qizg'in (бурный), ozg'in (худой), jo'shqin (возвышенный);

**ser-:** sersuv (многоводный, сочный), sergunum (плодотворный), serquyosh (солнечный);

**be-:** befoyda (беспольный, напрасный), beg'ubor (чистый, добрый), befarq (безразличный);

**no-:** noto'g'ri (неправильный), notekis (неровный), noo'gin (неуместный).

Подобные прилагательные, состоящие из одного корня, являются простыми (oddiy sifat).

Имена прилагательные также могут образовываться сочетанием двух слов. Например: rahmdil (милосердный), toshbag'ir (безжалостный), oliujanob (великодушный). Эти прилагательные являются составными (qo'shma sifat).

В узбекском языке часто употребляются сложные прилагательные типа ko'zga uqin (заметный, быстро бросающийся в глаза), to'q qizil (темно-красный), oyoq ualag (босой). Они выражают один сложный признак предмета, лица и пишутся раздельно. Парные прилагательные типа yaxshi-yomon, katta-kichik, oq-qora, och-nahor,

baland-baland *выражают общий признак или служат для усиления речи.*

**82-mashq.** *Gaplarni ko'chiring, sifatlarning yasalishi va tuzilishini ajratib.*

1. Odobli, bilimdon, ishchan va mehnatsevar yigit har bir oilaning ko'rkidir. 2. Yozgi ta'tilni tugatib o'qishga kirishdim. 3. Oddiylik axloqiy barkamollikning shartidir. 4. Qishki sport saroyida yosh-yosh bolalar shug'ullanishmoqda. 5. U boshiga kul rang ro'molini bog'lab olgan edi. 6. Oqqo'ngil, beg'araz do'stning qadriga yetish kerak. 7. Bilimsiz va hunarsiz kishi hayotda o'z o'rnini topa olmaydi.

**83- mashq.** *Namunalar asosida dialoglar tuzing.*

— Anvar, Toshkentdagi botanika bog'ida bo'lganmisan?

— Ha, bo'lganman, u juda katta bog'.

— Bog'ning senga nimasi yoqdi?

— U yerning havosi toza va yoqimli. Rang-barang chiroyli gullar, noyob o'simliklar, turli daraxtlar bor. U yer go'zal tabiatimizning boy va ulkan xiyoboniga o'xshaydi.

\* \* \*

— Meni hech kim so'ramadimi?

— So'rashdi, ammo men tanimadim.

— Ozg'in, baland bo'yli kishi emasmi?

— Yo'q, u bola to'ladan kelgan, bo'yi past edi. Qo'lida qizil papkasi ham bor edi.

— Bo'ldi, tanidim. Kursdoshim Rashid ekan.

**84-mashq.** *Quyidagi savollarga javob bering.*

— Ovozsiz va ovozli kinolar qachondan boshlab namoyish etilgan?

— Eng katta ko'p sonli vulqon qayerda?

— Jahondagi eng sho'r dengiz qaysi?

— Amerikaning eng shimoliy shtatini bilasizmi?

— 1938-yilda Kapitsaga qaysi kashfiyoti uchun Nobel mukofoti berildi?

— O'zbekistonda eng kuchli zilzila qachon bo'lgan?

**85-mashq.** *Matnini o'qing va mazmunini izohlab bering.*

### **Bozor tushunchasi va uning turlari**

Bozorning eng ko'hna ko'rinishi an'anaviy bozordir, ya'ni sotuvchi va xaridorlar o'zaro oldi-sotdi bilan shug'ullanuvchi joydir. Deyarli barcha shaharlarda yillar davomida mavjud bo'lgan an'anaviy bozorlar hozirgacha saqlanib qolgan. Bunga misol qilib dehqon bozorlarini keltirishimiz mumkin.

Dunyoda zamonaviy bozorning har xil shakllari bor. Eng yaxshisi bozorni xaridor va sotuvchilarga narxlarni ayirboshlashga imkon beradigan tizimdir, deb ta'riflasak bo'ladi. Bunda xaridorlar va sotuvchilar bir-birlari bilan yuzma-yuz uchrashishlari shart emas. Har xil texnik vositalar: telefon, faks, teleks, elektron pochta yoki gazetalardagi e'lonlar orqali ular bevosita aloqa qilishlari mumkin.

Masalan, valyuta birjasida dillerlar chet el valyutasini sotadilar yoki sotib oladilar. Ular bunda bir-birlari bilan uchrashmaydilar. Ko'pgina hollarda esa ularni minglab kilometr ajratib turadi. Zamonaviy aloqa vositalari ularga dunyoning har xil burchaklarida chet el valyutasining bahosi qanday o'zgarayotganligini bilib turishga imkon beradi. Toshkentda turib dillerlar London, Nyu-York, yoki Tokiodagi hamkasblari bilan valyuta oldi-sotdi bitimlarini tuzishlari mumkin.

Qadim zamonlarda asosan, mahalliy bozorlar mavjud edi. Odamlar o'z-o'zlarini ta'minlar va boshqalardan juda kam narsa sotib olar edilar, chunki transport vositalarining yo'qligi har xil katta mintaqalarda sotish uchun ko'p miqdorda ishlab chiqarishni qiyinlashtirar edi.

Transport va aloqaning rivojlanishi hamda reklamadan foydalanish milliy bozorlarning vujudga kelishiga imkon berdi. Toshkent aholisi iste'mol qilayotgan oziq-ovqat yoki sanoat mahsulotlarini Andijon, Xorazm yoki Sho'rchida uchratish mumkin.

Xuddi shu omillar jahon bozorning tashkil topishiga olib keldi. Masalan, O'zbekiston aholisi mahalliy "Yulduz", "Malika", "Lazzat" fabrikalarini qanday yaxshi bilsa, "Pyer Karden", "Deu", "Mitsubisi" kabi Fnansiya, Janubiy Koreya va Yaponiya kompaniyalarini ham yaxshi biladilar. Mis, alyuminiy, qalay, kauchuk, neft, paxta, bug'doy, shakar, kofe va choy kabi xomashyolar esa, ko'plab yillar davomida jahon bozorida sotib kelinadi. Bank va sug'urta xizmatlari va shunga o'xshash ko'pgina xizmatlar ham jahon bozorida sotilishini ta'kidlab o'tishimiz kerak.

Tarkibidagi tovar turlariga qarab ham bozor turli shakllarga bo'linadi:

**Iste'mol bozorlari** – kiyim-kechak, oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar sotiladigan bozorlar, **mehnat bozorlari** – kishilar o'z ish kuchlarini sotadigan bozorlar, **ilmiy g'oyalar bozori** insonlarning fikrlari, g'oyalari muomalada bo'ladigan bozorlar, **pul bozori** – valyuta, aksiya va boshqa qimmatbaho qog'ozlar sotiladigan bozorlar va xokazo.

### *Topshiriq.*

1. Matni so'zlab bering.
2. Jahon bozori haqida fikr bildiring.
3. Iste'molchi huquqlarini aytib bering.
4. Bozorda savdo madaniyati haqida bilganlaringizni daftaringizga yozing.
5. Gaplarda ishtirok etgan so'z turkumlarini tasniflang.

**86-mashq.** *Matni o'qing va mazmunini izohlab bering.*

### **Iqtisodiyot so'zining ikki ma'nosi**

Iqtisodiyotning juda ko'p ta'riflari bor. Bularning hammasi "Iqtisodiyot shunday fan" degan so'zlar bilan boshlanadi. Biz esa siz bilan turmushdagi mavjud iqtisodiy holatlar, ehtiyojlar, resurslar va tovarlar haqida so'z yuritamiz. Sizda "Fanning bunga nima aloqasi bor?" degan savol tug'ilishi mumkin.

Dastlab grek olimi Gesiot tomonidan kiritilgan "iqtisodiyot" so'zi "uy xo'jaligini boshqarish san'ati" ma'nosini anglatar edi. Asta-sekin bu tushuncha kengayib, o'z ma'nosini ozgartira bordi.

Iqtisodchilar hozirgi paytda iqtisodiyotga shunday ta'rif beradilar: Iqtisodiyot – shunday xo'jalik tizimiki, u zarur hayotiy ne'matlarni yaratish yo'li bilan odamlar va jamiyat ehtiyojlarining qondirilishuni ta'minlaydi.

Iqtisodiy adabiyotlarda ikkita bir-biriga o'xshash "economy" va "economic", degan tushunchalar mavjud bo'lib, "economy" tushunchasida davlatning iqtisodiy hayotiga oid narsalar: zavod va fabrikalar, yo'llar, do'konlar, tovarlar va shu tovarlarni ishlab chiqaruvchi va iste'mol qiluvchi insonlar haqida fikr yuritiladi.

Ikkinchi tushuncha (economics) esa, birinchi tushunchani o'rganish bilan shug'ullanuvchi fan hisoblanadi. Bu ikkala tushuncha ham o'zbek tilida bir xil – "iqtisodiyot" deb tarjima qilinadi. Shu bitta so'zdan ikki xil ma'noda foydalanish mumkin. Masalan, "Men iqtisodiyot fanini



o'rganayapman" yoki "mamlakatimizda chuqur ijobiy iqtisodiy o'zgarishlar yuz bermoqda".

Shunday qilib, iqtisodiyot fan sifatida kishilarning o'zaro atrof-muhitga bo'lgan munosabatlarini o'rganuvchi ijtimoiy fanlar qatoridan o'rin olgan.

Iqtisodiyot qanday munosabatlarni o'rgatadi? Bu savolga javob berish uchun o'zinzga ma'lum bo'lgan "ehtiyotlar", "cheklangan resurslar", "ishlab chiqarish" kabi kategoriyalarga murojaat qilamiz, bundan o'z-o'zidan iqtisodiyotning ta'rifi kelib chiqadi.

Iqtisodiyot - odamlar (shuningdek, jamiyat) cheklangan resurslarga ega bo'la turib, hozir va kelgusida o'z ehtiyojlarini qondirish uchun turli tovarlar ishlab chiqarish va qanday xizmat ko'rsatishni o'rganadigan fandır.

### Lug'at

iqtisodiyot - экономика

asta-sekin - постепенно

fan - наука

do'kon - магазин

tovar - товар,

iste'mol qiluvchi- потребитель

ehtiyot - спрос

moddiy manbalar- ресурсы

**87-mashq.** *Lug'atdan foydalanib gaplar tuzing, ularni rus tiliga tarjima qiling.*

**88-mashq.** *Quyidagi savollarga yozma javob bering.*

1. "Economu" va "Economic" tushunchalarining farqi nimada?
2. Grek olimi Gesiot kim? Uning iqtisodiyotga qanday aloqasi bor?
3. Iqtisodiyot qanday fanlar jumlasiga kiradi?
4. Iqtisodiyot tushunchasini ta'riflay olasizmi?

**89-mashq.** *Matnni o'qing va mazmunini izohlab bering.*

### Xususiylashtirish

Xususiylashtirish deb, davlat mulkidan xususiy mulkka o'tish, davlat korxonalari mulkini mehnat jamoalari, ayrim fuqarolar tomonidan hissador jamoa, xususiy korxonalar va ob'ektlarga aylantirish yo'li bilan sotish yoki pul o'tkazib berish tushuniladi.

Davlat mulkining bir qismini xususiylashtirish — bozor iqtisodiyotiga o'ishning tabiiy natijasidir. Sotsializm davrida asosiy ishlab chiqarish vositalariga davlat mulki ekanligi va xususiy mulkning deyarli ta'qiqlanganligi, odamlarning mulkchilik ob'yektlarini saqlash, ko'paytirish va samarali foydalanish hissini yo'qotishga olib keldi. Natijada ishlab chiqarish samaradorligining pastligi, iqtisodiy resurslardan qoniqarsiz foydalanish va katta isrofgarchilik hollari yuz berdi va oqibatda butun iqtisodiy ko'rsatkichlarning pasayishiga olib keldi.

O'bekistonda xususiylashtirish bir necha yillar davomida amalga oshirilishi mo'ljallangan va u davlat mulkini xususiylashtirish haqidagi qonunga va xususiylashtirish bo'yicha davlat dasturiga ko'ra o'tkazilmoqda. O'ylab qo'yilgan rejaga ko'ra eng avval katta bo'lmagan savdo, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish va qurilish korxonalari xususiylashtirildi. Bir vaqtning o'zida uy - joylarni xususiylashtirish boshlandi. Yerni va yirik korxonalarni xususiylashtirishga birinchi qadamlar qo'yildi. Davlat mulkini xususiylashtirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash qo'mitasi tuzildi va bu qo'mita o'z faoliyatini bosqichma - bosqich amalga oshirmoqda.

Qonun bo'yicha korxonalarni xususiylashtirishning turli usullari nazarda tutilgan. Bular — hissadorlik jamiyatiga o'tish, davlat mulkini tanlov bo'yicha kim oshdi savdolarida sotishlardan iboratdir. Davlat korxonalari jamoalariga mulkdor bo'lish va aksiyalarga egalik qilish uchun muayyan imtiyozlar, qo'shimcha imkoniyatlar yaratildi.

Mamlakatimizda xususiylashtirishni jadallashtirish maqsadida XSF (xususiylashtirgan sarmoya fondi) tashkil qilinmoqda.

### Lug'at

- xususiylashtirish - приватизация
- davlat mulki - государственное имущество
- xususiy mulk - частное имущество
- fuqaro - гражданин (ка)
- bozor iqtisodiyoti - рыночная экономика
- rejaga ko'ra - по плану
- savdo - торговля
- bosqichma - bosqich - поэтапно
- korxonona - предприятие
- fond birjasi - фондовая биржа
- xususiy mulkdor - частный бизнесмен

### **Topshiriq.**

1. Matnga reja tuzing va reja asosida matnni soʻzlab bering.
2. “Davlat mulki” va “Xususiy mulk” tushunchasiga misollar keltiring.
3. “Oila mulki” va “Jamoʻa mulki”ga nimalar kiradi?
4. Biror bir davlat korxonasi xususiy lashtirilishiga misol yozing.
5. Toʻgʻri javobni aniqlang:  
Xususiy lashtirish deganda ...
  - a) yerlarni taqsimlab berish;
  - b) davlat korxonalarini sotish;
  - c) umumxalq mulki yoʻq qilinishi;
  - d) davlat mulkidan xususiy mulkka oʻtish, davlat korxonalari mulkini mehnat jamoalari, ayrim fuqarolar tomonidan hissador jamoalari, xususiy korxonalar va obʻyektlarga aylantirish yoʻli bilan sotish yoki bepul oʻtkazib berish tushuniladi.

**90-mashq.** *Matndan foydalanib, quyidagi savollarga javob bering.*

1. Boylik deganda nimani tushunasiz?
2. Sotsializm davrida mulkchilikning qanday koʻrinishlari bor edi?
3. Korxonalarni xususiy lashtirishning qanday usullarini bilasiz?
4. XSF (xususiy lashtirilgan sarmoya fondi) yoki XIF (xususiy lashtirilgan investitsion fond) haqida maʼlumot bering.

## **25 – mashgʻulot** **Mazasini tatib koʻring**

**91-mashq.** *Maza, taʼm soʻzlari ishtirokida matn tuzing.*

### **Anor**

Qirmizi, rangpar, oq, qizildurdona, tatimli, shifobaxsh mevaman. Vatanim - Oʻzbekiston. Oʻzim Qayqubbo (Quva)dan atrofga tarqalib ketganman. Asli zotim Fors, Misrlikman. Yelimlovchiman. Har qanday kishini band qiluvchiman.

Bargim yirik, qalin, yaltiroq, jiloli, tuxumsimon, shoxlarim qisqa bandli, qarama qarshi joylashadi. Urugʻim serob. Oʻzim sershira, donadorman. Har bir donam bir dunyo. Yaxshi hislatim shuki, yurakka orom beraman. Har qanday kasalikka davoman. Poʻslogʻim chillashini tuzatadi. Qoʻtir, yoʻtal, sariqqa shifoman. Sharbatim ishtaha ochadi. Qaynatmam ogʻiz boʻshligʻini yalligʻlanishdan saqlaydi. Anginani davolaydi.



Temir moddam ko'p. Mevamdanda turli shifobaxsh qiyomlar tayyorlanadi. To'rt kilogramminni olib, ikki kilo shakar, yarim piyola nayhon guli aralashtirib qaynatilsa, darmon dori bo'laman-u qolaman. Olma, behi, limon, otquloq, oshqovoq, nilufar, kashnichga aralshtirib asal bilan iste'mol qilinsa, kuch bag'ishlab safro qurish, ko'ngil aynishni shartta to'xtatadi. Dardga davoman. Manlono Abu Ali Ibn Sino mening po'stimni qon tupurganda, milkdan qon oqqanda, me'da kasallari (ich ketish, qon aralash ich ketish)da siydik haydash, tishni mustahkamlash, yaralarni va boshqa kasalliklarni davolashda qo'llagan. Xalq tabobatida po'stlog'im, mevam, mevamning po'sti va guli istisno, qo'tir, yo'tal, ich ketish, sariq kasalligiga hamda qon to'xtatuvchi, og'riqni qoldiruvchi, siydik va gijja haydovchi dori sifatida ishlatiladi. Mevamning shirasi zangila (singa) kasalligida buyuriladi. Ishtaha ochish uchun ham ichiladi.

**Topshiriq.** Ushbu matn asosida "Shifobaxsh mevalar" mavzusida bayon yozing.

**92-mashq.** Matnni o'qing, so'zlab bering. O'rik so'zi yordamida krassvord tayyorlang.

### O'rik

O'rikning shifobaxsh xislatlari haqida nimalarni bilasiz? Ushbu ajoyib mevalar nafaqat qarish jarayonini to'xtatadi, balki ochlik hissini qondirib, qomatning to'kis saqlanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, o'rik sharbatida beta karotin mavjud bo'lib, saraton kasalligiga qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega. Kuniga 3 dona o'rik qabul qilish orqali vitamin A ga bo'lgan sutkalik ehtiyojni qoplasa bo'ladi. Natijada, vitamin A yetishmovchiligi oqibatida kelib chiqadigan ko'rish qobiliyatining pasayishi, charchoqlik, immunitet pasayishi, teri qoplamalari quruqligining oldini olsa bo'ladi.

### **Topshiriq.**

1. Maza-ta'm so'zlarini ajrating.
2. Sifat darajalari ustun shaklida yozing.
3. Bozorda mevalarni yeb tanlash mumkinmi? Yo'q bo'lsa, nima uchun?

**93-mashq.** *Matni o'qing va mazmunini izohlab bering.*

### **Olmani tanlaysizmi yoki nokni?**

Olma bilan nokning tarkibi bir xil deb o'ylaydiganlar qattiq yanglishadilar.

Agarda ularning tarkibi sinchiklab o'rganib chiqilsa, barchamiz nokni tanlashimiz aniq. Chunki nok tarkibida bolalar rivojlanishi chog'ida, xomiladorlik vaqtida, klimakterik davrda ko'p kerak bo'ladigan suyaklar o'sishi va tishlar mustahkamligini ta'minlovchi, kalsiy, fosfor elementlari ko'p miqdorda bo'ladi. Shuningdek, teri sog'lomligiga javobgar A vitamini ham bor. Biroq olmalarning ijobiy xislati yallig'lanish kasalliklariga nisbatan organizm himoya kuchini oshirishidir. Nokka nisbatan olmada vitamin C miqdori ikki barabar ko'p bo'ladi.

**Topshiriq.** Mevalarning foydasi haqida "Tabiat in'omi" mavzusida suhbat tashkil eting.

### **Sifat darajalari**

(Степени сравнения имен существительных)

Сопоставление одинаковых качеств в предметах выражается степенями сравнения имен прилагательных.

Если качество одного предмета не сравнивается с качеством другого предмета, прилагательное стоит в положительной степени: yorug' - светлый, katta - большой, kuchli - сильный.

Прилагательные имеют три степени сравнения: 1) oddiy daraja – положительная степень, 2) qiyosiy daraja - сравнительная степень 3) orttirma daraja - превосходная степень.

Qiyosiy daraja или ozaytirma daraja - сравнительная степень означает меньшую или большую степень качества в предмете по сравнению с тем же качеством в других предметах. Сравнительная степень в узбекском языке в основном выражается

морфологическим способом. Аффикс – **roq** уточняет состояние степени: больше или меньше. Например: *katta* - большой, *kattaroq* - чуть больше, *kichik* - маленький, *kichikroq* - чуть меньше; *U mendan kattaroq* - Он чуть старше меня.

Иногда значение сравнения выражается синтаксическим способом. В этих случаях существительное, предшествующее прилагательному, стоит в исходном падеже со словом *ko'ra* в дательном падеже или со словом *qaraganda*: *Katta ukam kichik ukamga qaraganda sog'lom(roq)* - Старший брат здоровее, чем младший. *O'zimizning qishlog'imizdan ko'ra go'zal(roq) qishloqni bilmauman* - Я не знаю деревню, красивее нашего.

*Orttirma daraja* превосходная степень имени прилагательного означает самую высокую степень качества в предмете по сравнению с тем же качеством в других предметах: *Do'stlik dunyoda eng go'zal fazilatdir* – Дружба - самое лучшее достоинство в мире.

## **26-mashg'ulot** **Hosil bayrami – Mehrjon**

Ko'p ming yillik bayramlar tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan, biroq keyinchalik unutilib ketgan "Mehrjon" haqida gap ketar ekan, avvalo bu bayramning mohiyatini tushunib chiqish lozim. Abu Rayxon Beruniy o'zining "Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar" nomli asarida "Mehrjon" so'zini "Quyosh" va "Jon sevgisi" degan ma'nolar bilan bog'lab talqin qiladi. Chunki eng qadimiy davrlarda Yer sharining Shimoliy mintaqasidagi ko'pgina ibtidoiy xalqlar qatori O'rta Osiyoliklarda ham quyoshga, oy, osmon, yer yulduzlarini tangri deb sig'inish odat bo'lgan. Keyinroq borib quyoshni "Bobo" ("Quyosh bobo") —"bizni yaratgan ilohiy kuch" deb unga sig'inishgan, madhiyalar o'qishgan, orzu-umidlari ro'yobga chiqishi uchun undan najot so'rashgan.

Quyosh bayrami keyinchalik kuzgi teng kunlikka ko'chirilgan bo'lishi mumkin. Eronliklar "Mehrjon"ni "Mehrgon" va uni kuzgi bayram, mehr oyining 16-kuni, kuzgi kecha-kunduz tengligi kunida nishonlab kelganlar.

"Mehrjon" o'sha davrdagi yirik bayram bo'lishi bilan bir qatorda u boshqa bayramlar bilan tabiiy bog'liq bo'lgan. Ayniqsa, "Navro'z" bilan "Mehrjon" bir-biriga fayz berib, qadimda ikki durdek chaqnab turgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, "Quyosh va Oy falakning ikki ko'zi bo'lganidek, "Navro'z" va "Mehrjon" -zamonning ikki ko'zidir, deyiladi.

Ma'lumki, barcha diqqatga sazovor hodisalarning yaxshi niyatlar bilan bog'lanishi va muvaffaqiyatli yakunlanishi bayram kayfiyatini taqozo etadi. Agar tabiat uyg'onishi dalalarda ish boshlanishi "Navro'z" ("yil boshi") sifatida tantana qilingan bo'lsa, o'simlik dunyosining o'sishdan to'xtab, uyquga ketish, mehnat mavsumi yakuniga yetayotganligini "Mehrjon" ("yil yarmi") shaklida nishonlangan. "Navro'z" bahorgi kun-u tun tengligini qayd qilsa, "Mehrjon" kuzdagi o'sha holatdan nishona bergan. Keyin bora-bora "Mehrjon" bayrami kuz va hosil bayramlari shaklida nishonlana boshlangan. "Shirinak bayrami", Uzum sayli, qovun sayli, anor sayli kabi tantanalar bunga misol bo'la oladi.

### **Shirinak bayrami**

Ali, Omon ikki do'st  
Juda erta turdilar.  
Shirinak bo'layotgan  
Boqqa tomon yurdilar.  
Shirinak deganlari—  
Dehqonlarning bayrami,  
Mo'jizakor, mirishkor  
Bog'bonlarning bayrami.  
Maydonda, yo'laklarda,  
Rastalar qator-qator,  
Qovun-tarvuzlar to'p-to'p,  
Mevalarning bari bor.  
Rastada noz-ne'matlar  
O'zlarin ko'z-ko'zlashar,  
Bolalarga navbat-la  
Hislatlarin so'zlashar.

**94-mashq.** *Matnni o'qing va mazmunini izohlab bering.*

#### **"Masalliqlar imtihon topshiradi"**

Hurmatli dehqonlar yetishtirgan xilma-xil mahsulotlar - oshpaz va uy bekasi uchun taom tayyorlaydigan masalliqdir. Biroq tekshiruvchi olim uchun bular ilmiy materialdir. Chunonchi: go'sht, sut, tuxum, sabzi, piyoz, don-dun, uzum, olcha, shaftoli va boshqa barcha yegulik narsalar... Bu masalliqlar dasturxonga qo'yilsa, hamma huzur qilib yeydi, ammo olim ularga savol tashlaydi: "Ey, noz-u ne'mat, nasli nasabing nima?", "Qaysi moddalardan tarkib topgansan?" , "Bag'ringda odamlarga in'om

qilinadigan qanday ozuqa va qancha quvvat bor?”, “Insonga nechuk foyda keltirasan?” va hakozi.

Masalliqlar shu qo'yilgan savollarga javob berish uchun o'ziga xos imtihondan o'tadilar - pechda qizdiriladi, hovonchada tuyiladi, tarozilarda tortiladi, mikroskoplar orqali bag'ri-bag'riga mo'ralanadi. Ana shundan so'ng noz-ne'matlarning tuzilishi, ahamiyati, insonni to'ydirishi va sihat-salomat olib yurishidagi hislatlari ro'yobga chiqadi.

Sinchkov olimlar o'zlarining olijanob ishlarini shu kunlarda ham davom ettirmoqdalar. Ular sabzavot va meva sirlarini izchillik bilan o'rganmoqdalar. Biz buni imtihon deb atadik. Mana shunday o'ziga xos imtihonlardan bir namuna.

—Asisstent, marhamat, imtihonimizni davom ettiramiz. Chaqiring, bittadan kirishsin.

—Xop bo'ladi.

—Siz kimsiz?

—Men Kartoshechka, Lorxman.

—Marhamat, ozingiz haqida gapirib bering.

—Men “ikkinchi non” deb ham ta'riflanaman. Darhaqiqat, tarkibimdagi ozuqa moddalarimning to'qtutarligi nondan qolishmaydi. Menda 18 % kraxmal, 2 % oqsil, 1 % shakar moddasi va bir qancha vitaminlar bor. Meni XVI asrda Janubiy Amerikadan Yevropaga keltirilganda, hech kim iste'mol qilmagan.

Fransiyaga men XVIII asrda o'tdim, bu yerda men “Pom de perr” nomini oldim, ma'nosi “Yer olmasi” demakdir.

—Rahmat, yaxshi javob berdingiz.

—Rahmat, salomat bo'linglar.

—Sizning ismingiz kim?

—Pomidorposhsha Yusupova.

—So'z sizga. Marhamat.

Meni “Oltin olma” deb ataydilar. Mening tarixim ham “Yer olma”ning tarixiga o'xshab ketadi.

Hozirgi kunda ovqatlaringizning lazzatli masalliqalaridan biri bo'lgan pomidorni bundan bir asr ilgari hech kim yemas edi. O'sha vaqtda mening tarkibim butunlay o'rganilmagan bo'lib, odamlar meni zaharli meva deb taxmin qilishardi. Yevropa mamlakatlarida meni tuvaklarga o'tqazib, gullar bilan bir qatorda parvarish qilganlar. Zaharliligim to'g'ri. Meni ko'k, xomagimda tirozin degan modda bo'lib, u o'ta zaharlidir, tuzlamay yeyilsa, zaharlaydi, shuning uchun meni ko'kligimda xatto mol ham yemaydi. Men Amerikada, Peruda ko'payib,



Ispaniya Peruni bosib olgach, Yevropaga keltirilganman. Keyinchalik men Gretsiya orqali Turkiyaga va bu yerdan Qrimga keltirilganman. Qrimda meni “muhabbat olmasi” deb ataganlar. O‘zbekistonda meni o‘stirish inqilobdan birmuncha keyinroq rasm bo‘ldi. Endilikda mening o‘nlab navlarim yaratilgan bo‘lib, yuzlab taomlarda ishlatilaman.

—Tashakkur. Javobingiz ma‘qul. Sizga ruhsat.

—Ishlaringizga omad tilayman. Rahmat.

—Siz kimsiz?

—Qovoqvoy Kadiboyev.

—Marhamat, so‘z navbati sizga.

Men qovun ham bitta botanik oilaga - qovoqguldoshlar oilasiga mansubdirmiz. Biroq farqi shuki, qovun sersharbat, muloyim, pishirmay yesa bo‘ladigan, tarkibi shakar moddasiga boy. Meni esa qattiq etim zich, xom yeb bo‘lmaydi. Ammo tarkibimni tekshirgan olimlarning aytishicha, qovundagi shakar moddasi (asosan glyukoza, saxaroza va fruktoza) 6% dan 18% gacha bo‘lsa, mendagi shakar moddam 4% dan 12% gachadir. Oqsil moddasi qovunda ham, menda ham bir xil. Qovunda ham, menda ham A, B, C darmondorilari bor. Mening o‘ttizdan ortiq navim mavjud. Turlarimiz uch xil: yemishlik, xashaki, idish-asbob tayyorlaydigani.

—Yaxshi, sizga ruhsat.

—Sizning ismi sharifingiz kim?

—Turpxo‘ja Marg‘iloniy.

—Marhamat qilib o‘zingiz haqingizda gapirib bering.

—Turpni ko‘p yegilki tanda balg‘amni daf qilur. Gar yo‘tal bo‘lsang o‘shanga dori bo‘lg‘ay — naf qilur.

Mening asli vatanim Yaponiya bo‘lib, taqriban 300 yil muqaddam O‘rta Osiyoga keltirib ekishgan. Sharqiy Osiyoda mening po‘stim ham, etim ham qip-qizil, xuddi pomidorga o‘xshagan navim yetishtiriladi. Shulardan eng sarasi Yapon navim bo‘lib, u Sakuradzima orolida yetishtiriladi va har bir donasi 20 kilogrammgacha tosh bosadi. Ba‘zi olimlarning fikricha, men O‘rta dengiz havzasi qadimgi Gretsiya, Rim va Misrda bundan 5000 yil muqaddam ham ekilganligim qayd qilinadi.

Mening xosiyatim juda ko‘p. Abu Ali Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asarida, qadimgi tabiblardan Yusuf bin Muhammad Yusufiyning “Yaxshi narsalarning foydalari” nomli tibbiy risolasida buni o‘qishingiz mumkin.

—Endigi navbat kimniki?

—Marhamat. Ismi sharifingiz bilan tanishtirsangiz.

—Assalomu Alaykum. Men Sabzivoy Mirzoiy.

—Marhamat, soʻz sizga.

—Men Soyabonguldoshlar oilasidan boʻlaman. Ibtidoiy otabobolarimning vatani Volga boʻylaridan to Oʻrta dengiz havzalarigacha maydon boʻlgan deyishadi. Meni insoniyat 4000 yildan buyon maza qilib yeb kelyapti. Valeriya, Karatel, Mirzoiy, Mushak, Nant, geran kabi anchagina opa-singil va ogʻa-inilarim bor. Biz ikki yillik sabzavot qatoriga kiramiz. 1930-yilda fransiyalik olim Vilmoren bizni yovvoyi sabzidan tarqalganimizni isbot qilib bergan. Albatta, biz darhol yegulik holatiga kelgan emasmiz. Rahmat dehqonlargaki, ular bizni ming-ming yillar tarbiyalab madaniylik darajasiga koʻtarishdi. Endi shaklimiz ham, lazzatimiz ham har xil. Chunonchi sinchaloqdek keladigan Karatei ukamdan tortib boʻyi bir metr, eni kosaday keladigan Yapon zabzi degan ukam ham bor. Rangimiz sariqqina emas, qizil, oq, yashil, hatto zangori ham boʻlishi mumkin.

—Tarkibingiz toʻgʻrisida maʼlumot bering.

—Menda quruq modda - 11%, shakar - 6,5%, azotli moddalar, jumladan oqsil -1,5%, A darmondori (bu modda menda juda koʻp) — 7%, S -5%, PP — 0,2 %, B — 0,007%. Yana birmuncha maʼdan tuzlar mavjud. Shuning uchun men ham oʻzbek palovining joniman, sharbatimni siqib ichganlarning qoni koʻpayadi, qirib yesa jigʻildon qaynashini bosaman. Shapkoʻrlikka ham shifo boʻlaman. Qoʻying-chi, mening tarkibimdagi moddalar ona sutiga teng. Oʻzbek tilidagi “Sabzavot” soʻzi ham “sabzi” dan kelib chiqqan.

—Rahmat, biz sizga bir ovozdin “aʼlo” baho qoʻydik.

Soʻz navbati imtihon raisiga:

Tarkibidagi foydali moddalarining koʻpligi hamda vitaminlarga serobligi jihatidan roʻyxatdagi:

1. Anorxon Quvayeva.
2. Anjirali Kadota.
3. Behinisa Chillaki qizi.
4. Bodringjon Yashangov.
5. Gilosxon Qoʻqonova.
6. Doʻlanaoy Nordonova.
7. Yongʻoqbek Doʻrmoniy.
8. Jiydanisa Chilonova.
9. Karamxon Oʻzagova.
10. Kartoshechka Lorx.
11. Lavlagixon Qandova.
12. Limonoshvili Gruzinov.
13. Mandarinyan Armanov.
14. Naʼmatakxon Atirgulova.
15. Olmaoy Namanganova.
16. Olxoʻrixon Eslingeym.
17. Pomidorposhsha Yusupova.
18. Rediskaxon Mayskaya.
19. Sarimsoqʻvoy Piyozov.
20. Smorodina Krasnaya.
21. Smorodina Chornaya.
22. Tarvuzboy Qoʻziboyev.
23. Turpxoʻja Margʻiloniy.
24. Uzunjon Husayniy.
25. Shaftolixon Olyorova.
26. Oʻrikposhsha Qandakova.
27. Qovunboy Koʻkchayev.
28. Qovoqboy Kadiboyev kabi azamatlarning barchasi aʼlo baholarga

imtihon topshirdilar va laboratoriyaning “Imtiyozli diplomini” olishga musharraf bo‘ldilar.

**Topshiriq.** Sabzavot va mevalarning foydasi haqida bilganlaringizni gapirib bering.

### 27-mashg‘ulot Oraliq nazorat – 3

### 28-mashg‘ulot Sotuvchi va xaridor

- Assalomu Alaykum.
- Vaalaykum Assalom.
- Kechirasiz. Poliz ekinlari rastasi qayerda joylashgan?
- Bozorning o‘ng qanotida, hozir chap yo‘lakdan borasiz.
- Rahmat.
- Qovun tanlashni bilasizmi?
- Yo‘q, nimalarga ahamiyat berish kerak?
- Qovun turlariga qarab: obi-novvot qovuni, bosvoldi—yumshoq bo‘ladi. Ko‘kcha, Mirzacho‘l navlari— qattiq bo‘ladi. Rangi ham shunga ko‘ra turli xil bo‘ladi.
- Menga obi-novvot qovunidan tanlab bering.
- Marhamat.
- Narhi qancha bo‘ladi?
- 3 000 so‘m.
- Marhamat.
- Rahmat, osh bo‘lsin.

**Topshiriq.** “Sotuvchi va xaridor” rolli o‘yini uchun dialog tuzing.

### 95-mashq. *Gaplarni sifat so‘zlar bilan kengaytiring.*

1. Xonada faqat ashulachilar qolishdi. 2. Bugun choyxona klubiga adabiyotshunos va san’atkorlar yig‘ilishadi. 3. Bu yigit O‘rikzor mahallasida turadi. 4. Pochtachilik - xayrli kasb. 5. Mehnatkashlar jamg‘armalarini omonat kassalarda saqlaydilar. 6. Guruhdoshimning oshpaz do‘sti bor. 7. O‘zbekistonda paxtachilik, chorvachilik, bog‘dorchilik rivojlangan. 8. Metrosozlar mehnatini suratlashlar

pardozlab, yer osti yo'laklariga rasm soldilar. 9. Ijodkorlar do'stlik, tinchlik to'g'risida she'r o'qidilar. 10. O'lchagich bilan suyuqlikning issiqligi o'lchanadi.

**96-mashq.** *Quyidagi so'zlardan sifat so'zlar yasang.*  
Suv, yig', baliq, ipak, gul, yoz, chiroy.

**97-mashq.** *So'zlarni ma'noli qismlarga ajrating.*

Yordamchi, terimchi, unumli, sersuv, noma'lum, bema'ni, yozgi.

**98-mashq.** *Ko'chiring. So'z yasovchi qo'shimchalarning tagiga chizing. So'zlarni qatnashtirib ikkita gap tuzing.*

Traktorchi, baliqchi, tabelchi, ashulachi, paxtakor, o'roq, ochiq, yoyiq, tartibli, moyil.

**99-mashq.** *Ko'chiring, yozilishini bilib oling.*

Havaskor, halqum, harakat, hafta, hazil, husayni, hosil, hoshiya, hujjat, hukumat, hunar, hushtak, ho'kiz, hofiz, hushyor, hammom, handalak, harom.

**100-mashq.** *Matnni o'qing, sifatlarning darajasiga ko'ra guruhlarga ajrating.*

## Bahor

Erta bahorning serzavq kunlari. Yam-yashil adirlardagi giyohlardan taralgan xushbo'y hidlar dimoqqa uradi. Oftob charaqlaydi. Ko'm-ko'k osmon shishadek tiniq. Olaquroq paxtali to'nlar yelkadan tushgan. Kattakichik mehnatkash dehqonning egnida xomsurp yaktak. Xushchaqchaq qizlarning qop-qora sochlarida tol bargidan sochpopuk. O'riklarning kattakichik novdalarida och pushti marjon. Ariq bo'ylaridan yalpizlarning xushbo'y hidi anqiydi. Baland-baland devorlar tagida qumursqalar o'rmaydi.

Zarqishloqning katta-kichik ko'chalarida, serdaraxt bog'larida ko'klam namoyishi kezadi. Qishloq o'rtasidagi eng baland azamat chinorning och yashil kurtaklari orasida savatdek uya. Unda laylak bir oyoqlab turgancha tek qotgan. Kun peshindan oqqan. Xali barg yozmay

bezrayib turgan ikki tup kattagina sada tagidagi naqshli choyxonada turli-tuman odamlar ko'p (Said Ahmad).

**1 - topshiriq.** Matni rus tiliga tarjima qiling.

**2 - topshiriq.** Quyidagi hikmatlarning ma'nosini ayting va yod oling.

1. Halol so'z, halol ish, halol osh, halol muomala – baxt-saodatga yo'l ochadi.

2. Odobli va vijdonli odam elning azizidir.

3. Shirin so'z qalb qo'g'qoni, husnixat ko'z rohatidir.

4. Chiroyli rad uzoq va'dadan yaxshidir.

5. Boshqalarga shodlik ato etish eng noyob halovatdir.

6. Shirin so'z – jon, achchiq so'z – ilon.

7. Yomonning yaxshisi bo'lguncha, yaxshining yomoni bo'l.

8. Yaxshi qand yedirar, yomon – pand.

**101-mashq.** *Ko'chiring. Otlarning turlanishini aniqlang.*

1. Qizlar sochlariga oppoq lenta taqib olgan edilar. 2. Oy qop-qorong'i kechani yoritmoqda. 3. Sap-sariq bug'doylarning boshloqlari silkinar. 4. Bahorda shaftoli gullari ko'm-ko'k maysalar ustiga to'kilib qoladi. (M.Ism.) 5. Tashqari qop-qorong'i. 6. Pak-pakana bo'yi bor, yetti qavat to'ni bor. (piyoz.) 7. O'choqda yongan olov issiqligidanmi yoki uyatdanmi uning yuzi qip-qizil edi. (A.Qod.) 8. Baykal – dunyodagi eng chuqur ko'l.

**102-mashq.** *Oqing. Sifatlarni o'zi bog'langan so'z bilan so'z birikmasi tarzida ko'chiring.*

1. So'rida novcha, qop-qora bir yigit o'tirar edi. (A.Q.) 2. Sharofatda to'q zangori va to'q qizil kashta iplari bor. 3. Ko'klam kunlari ko'm-ko'k dalalar juda orombaxsh bo'ladi. 4. Qop-qorong'i kechani oy yoritib turardi. 5. G'ulomjonning oppoq yuzi issiqdan qizargan. (M.Ism.) 6. Erkin sinfdoshlari ichida eng ziyrak bola edi. 7. Ilm istovchilar XIV asrda Samarqand shahri sari intilganlar. Chunki dunyoning eng katta va boy kutubxonalari, o'sha zamonning eng ulug' madrasalari, eng mashhur allomalari shu shaharda edilar.

**103-mashq.** *Ko'chiring. Sifat yasovchi qo'shimchalarning tagiga chizing.*

Adolatli, aybsiz, alangali, amaliy, oilaviy, vijdoniy, ommaviy, tarbiyaviy, yozgi, ichki, qishki, ustki, tushki, ishchan.

**104-mashq.** *O'qing. Yasama sifatlarning qaysi qo'shimchalar bilan yasalganligini aytib bering.*

Hajviy, haybatli, hafsalali, bebaho, hayajonli, hosilsiz, bahavo, hurmatli, hududli, sergamad.

**105-mashq.** *Ko'chiring. Otlashgan sifatlarning tagiga chizing.*

Onda-sonda o'yinqaroq bolalar, tirikchilik bilan ovora yurgan kattalar ko'rinadi.(O.) 2. Ilg'orlar katta muvaffaqiyatga erishdilar. 3. Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo'l.(Maqol.) 4. Diktantni oqqa ko'chirib yozishga ruxsat berilmaydi. 5. Umurzoq aka Samanni tolga bog'ladi. 6. Yaxshi bilan yursang yetarsan murodga, yomon bilan yursang qolarsan uyatga. (Maqol.) 7. Qo'rqqoq oldin musht ko'tarar.(Maqol.) 8. Hali kattalardan darak yo'q edi. (M.Ism.) 9. Yaxshiga yondosh, yomondan qoch.(Maqol.) 10. Yaxshi oshini yeydi, yomon boshini (Maqol).

## 29-mashg'ulot

### Ovqatlanish odobi

Sharq mamlakatlarida to'g'ri ovqatlanish, hamda ovqatlanish madaniyatiga katta e'tibor beriladi. Har bir inson o'z hayotida ushbu qoidalarga to'liq e'tibor qilsa, u uzoq umr ko'rish ta'kidlanadi. Darhaqiqat, hayotimizning garovi bo'lgan zaruriy taomlardan to'g'ri tanavvul qilishga o'rganishimiz kerak.

Masalan, dasturxonga qo'lni yuvib, so'ngra o'tirish; ovqatni shoshmasdan yaxshi chaynab keyin yutish; aralash taomlar ketma-ketligiga e'tibor berish; ovqat vaqtida asab buziladigan mavzuda suhbatlashmaslik; dasturxon atrofida qattiq gapirmaslik, qattiq kulish mumkin emasligiga rioya qilish, hamda ovqatlanib bo'lgach, albatta, dasturxonni yig'ishtirib, idishlarni yuvish, qolgan ovqatlarni esa tashqariga chiqarib tashlash kerak. Ovqatlanish madaniyati farzand tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham, har bir harakatingiz sizni yaxshi tarbiyalanganligingizni ko'rsatib turadi.

(*"Odobnoma"* kitobidan)

**Topshiriq.** Mehnat va mehnatsevarlik haqidagi maqollarni o'qing, rus tiliga tarjima qiling va yod oling.

1. Yozgi mehnat qishki rohat.

2. Mehnat baxt keltirar.
3. Inson qo'li gul.
4. Ishlab topganning oshi lazzatli.
5. Birni birov berar, ko'pni mehnat.
6. Mehnat qilsang yasharsan, katta-katta osharsan
7. Qolgan ishga qor yog'ar.
8. Mehnatdan kelsa boyluk, turmush bo'lar chiroylik.
9. Oltin o'tda bilinar, odam-mehnatda.
10. Ish-ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar.
11. Ko'z yurakning ko'zgusi.
12. Oz so'zla, ko'p tingla.
13. Takrorlash - bilimning onasi.
14. Avval o'yla, keyin so'yla.
15. Aytilgan so'z-otilgan o'q.
16. Arpa ekkan arpa olar, bug'doy ekkan bug'doy olar.
17. Ikki kemandi boshini tutgan g'arq bo'ladi.
18. Bir yigitga yetmish hunar oz.
19. Bugungi ishni ertaga qo'yma.
20. Vaqting ketdi-naqding ketdi.
21. Gapning qisqasi yaxshi.
22. Yetti o'lchab bir kes.
23. Daraxt bir joyda ko'karadi.
24. Jahl kelganda, aql ketar.
25. Dardni yashirsang, isitmasi oshkora qilar.
26. Do'stsiz boshim, tuzsiz oshim.

**106-mashq.** *Maqollardan son so'zlarini ajratib yozing.*

## Son

(Имя числительное)

Имя числительное – это часть речи, которая обозначает количество (число), а также порядок предметов при счете: bir - один, ikki - два, uch - три, to'rt - четыре, besh - пять; birinchi o'qituvchi - первый учитель, ikkinchi vagon - второй вагон, uchinchi uy - третий дом.

Имена числительные в узбекском языке делятся на количественные и порядковые.

Количественные числительные делятся на следующие разряды:

1) *dona sonlar* - штучные числительные; 2) *chama sonlar* - приблизительные числительные; 3) *jamlovchi sonlar* - собирательные числительные, 4) *kasr sonlar* - дробные числительные; 5) *taqsim sonlar* - разделительные числительные.

### Количественные числительные выражают:

Единицы	десятки	сотни, тысячи и.т.д.
1 –bir	10-o‘n	100-yuz
2 –ikki	20-yigirma	1 000-ming
3 –uch	30-o‘ttiz	1 000 000-million
4 –to‘rt	40-qirq	1 000 000 000-milliard
5 –besh	50-ellik	23 so‘zdan iborat
6 –olti	60-oltmish	
7 - yetti	70-yetmish	
8 - sakkiz	80-sakson	
9 –to‘qqiz	90-to‘qson	

В сложных числительных единицы высшего порядка: 11 - o‘n bir (одиннадцать), 221 - ikki yuz yigirma bir (двести двадцать один), 1443 – bir ming to‘rt yuz qirq uch (тысяча четыреста сорок три), 12 967 – o‘n ikki ming to‘qqiz yuz oltmish yetti (двенадцать тысяч девятьсот шестьдесят семь).

1. **Dona sonlar** – штучные числительные образуются прибавлением аффикса –**ta** к количественным числительным: *beshta* - пять штук, *o‘nta* - десять штук.

2. **Taqsim sonlar** - разделительные числительные образуются присоединением сложного аффикса –**tadan** к количественным числительным: *besh+tadan* – *beshtadan* - по пяти, *o‘n+tadan* – *o‘ntadan* - по десяти.

3. **Jamlovchi sonlar** собирательные числительные образуются прибавлением аффикса -**ov** или –**ala** количественным числительным от единицы до семи: *uch+ov* – *uchov* - трое, *vtroem*, *ikki+ala* – *ikkala* - двое, *vdvoem*, *o‘n+lab* – *o‘nlab* - десятки.

4. **Kasr sonlar** - дробные числительные образуются так: числитель 3 ставится в именительном, а знаменатель 5 – в исходном падеже:  $3/5$  – *beshdan uch* (из пяти три),  $5/6$  – *oltidan besh* (букв. из шести пять).



Если перед дробью стоит целое число, то при ее чтении употребляется слово – весь, целый: 2 2/3, 15 2/5.

Некоторые дробные числительные употребляются самостоятельно: yarim, yarimta – половина (1/2), chorak, chorakta – одна четвертая (1/4), nimchorak – одна восьмая (1/8).

Дробные числительные пишутся раздельно.

5. **Chama son** — noaniq hisobni bildirib, -tacha, -larcha qo'shimchalari bilan va juftlash orqali yasaladi. Masalan: uchtacha, minglarcha, besh-o'nta.

6. **Tartib sonlar** (порядковые числительные). Этот разряд числительных образуется от количественных с помощью аффикса – **nchi** (после гласных основ) – **inchi** (после согласных основ): ikkinchi – второй, o'ninchi – десятый.

Числительные имеют следующие свойства:

1) употребляясь перед существительным, определяют их количество, счет, не согласуясь с ними: o'n kishi – десять человек, ellik kilogramm – пятьдесят килограммов.

2) если числительное употребляется самостоятельно, то оно, как и имя существительное, может иметь падежные аффиксы. Если употребляется как сказуемое, то может принять аффикс спряжения: Beshga beshni qo'sh. – К пяти прибавь пять. Biz beshtamiz – Мы пятеро.

3) от других частей речи числительные не образуются, так как специальных аффиксов, образующих числительные, нет;

4) имеются отдельные формообразующие аффиксы, которые образуют различные разряды числительных: **-nchi (-inchi, -ov, -ala, -ta, -tacha)**

5) иногда между числительными и именами существительными употребляются другие слова (нумератные): uch tonna paxta – три тонны хлопка, o'n metr chit – десять метров ситца.

Rim raqamlari quyidagicha yoziladi: I, II, III, IV, V, VI, VII, VIII, IX, X, XI, ... XL-40, L-50, XC-90, ... C-100, D-500, M-1000.

**Topshiriq:** Matnni rus tiliga tarjima qiling .

## NON SEHRI

Samarqandda bir Ali degan me'mor bo'lgan ekan. U bir-biridan go'zal imoratlar qurar ekan – u, usti kiyimga, qorni nonga to'ymas ekan.

Kunlardan bir kuni Ali qattiq kasalga chalib, yotib qolibdi. Tabiblarga ko'rsatibdi, shifo topmabdi, folbinlarga fol ochtiribdi, bo'lmabdi, kushnochlarga qoqtiribdi, tuzalmabdi.

Tabiblardan biri Alini o'zi qurgan tomga olib chiqishni maslahat beribdi, u yerda yotsa balki dardiga davo topar, degan gap qilibdi. Alining do'stlari uni o'zi qurgan tomga olib chiqib qo'yishibdi. Ali u yerda kunduzi Osmon bilan Kunga, kechasi Oy bilan Yulduzga qarab yotaveribdi. Kunlardan bir kuni shaharga qaroqchilar bostirib kelishibdi. Shu shaharlik bir kosib Ma'rifat degan xusn-jamolda tenggi yo'q qizini ulardan qochirib, tomga olib chiqib qo'yibdi. Tomda kasal yotgan Alining dimog'iga yoqimli hid kirib, o'ziga torta boshlabdi. Bu Ma'rifat olib chiqqan Samarqand nonidan taralayotgan ekan. Aliga nondan beribdi. Nondan yegan Alining kuchiga kuch qo'shilib, kasali ham shifo topa boshlabdi. Bu orada shahar qaroqchilardan xalos etilibdi. Keyin Ali va Ma'rifat tomdan tushishibdi. Ikkovi bir-birini mehr qoyishgach, to'y qilib oila qurishibdi. Ali qaytadan kuch-quvvatga kirib, yangidan-yangi go'zal, chiroyli binolar qura boshlabdi.

*(« O'zbek xalq asotirlari » kitobidan)*

### *Savollarga javob bering.*

1. Alini nima sababdan tomga olib chiqib qo'yishgan?
2. Tomda Ma'rifatning paydo bo'lishiga qanday voqea sababchi bo'ldi?
3. Ali kasaliga qanday qilib shifo topdi?

#### **107-mashq.** *Savollarga javob yozing.*

1. Ovqatlanish madaniyati deganda nimalarni tushunasiz?
2. Dasturxon atrofida (mehmon) o'zini qanday tutishi kerak?
3. Mehmon kutish madaniyatini bilasizmi?
4. Mehmonga borganda o'zini tutish odobi haqida fikr bildiring.
5. Milliy taomlardan 10 ta nomni daftaringizga yozing.

### **30-mashg'ulot**

#### **Palovni xush ko'raman**

##### **Topshiriq.**

1. Palov tayyorlash uchun qanday sabzavotlar kerak bo'ladi?
2. Palovning qanday turlarini bilasiz?
  3. 2 kilogramm oshga qancha masalliq kerak bo'ladi?

**108-mashq.** *O'qing. Tartib sonlarni o'zi bog'langan so'z bilan ko'chiring. Yozilishiga diqqat qiling.*

1. Birinchi o'zbekcha alifbe kitobi "Ustodi avval"ni toshkentlik muallim Saidrasul Saidazizov (1866-1939) yozgan. 2. Bu alifbe 1902-yilda Toshkentda bosilib chiqqan. 3. Minginchi elektr chiroqlar bilan charog'on o'rikzor bog'ida umumiy yig'ilish bo'ldi.(H.G'.) 4. Gulomjon beshinchi chiroqning sarg'imir yorug'ida goh so'zlab, goh o'ylab o'tirar edi. (M.Ism.) 5. O'quv yilining III choragi tamom bo'ldi, hozir IV chorak davom etyapti. 6. O'zbekiston Respublikasida 1993-yil 2-sentabrda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy qilish to'g'risida" qonun qabul qilingan. 7. O'zbek maktablarida 1996-1997 – o'quv yili boshidan birinchi sinflarga yangi o'zbek alifbosi asosida o'qitila boshlangan.

**109-mashq.** *Sonlarni rim raqami bilan yozing.*  
58, 93, 104, 205, 25, 74, 1010, 509, 1100, 40, 550, 900.

**110-mashq.** *Sonlarning aytilishi va yozilishi farq qilishiga doir 4 ta gap tuzing.*

**111-mashq.** *Hisob so'zlar ishtirokida "Bozorda", "Magazin-da" mavzusida matn tuzing.*



**112-mashq.** *Chama sonlar ishtirokida 4 ta gap tuzing.*

**113-mashq.** *O'qing. Chama sonlarning yasashini aniqlang.*

1. Qishlog'imizda o'nlab fermer xo'jaliklari mavjud. 2. Yoshi ellik beshlarda bo'lsa ham, yuziga hali uncha ajin tushmagan.(P.Q.) 3. Toshkent ming-minglab kishilarni o'z quchog'iga olgan edi.(H.O.) 4. O'ktam uyiga xat yozganda o'nlaracha oshna-og'aynilariga ayrim-ayrim salom yuborar edi.(O.) 5. Dalaning narigi yog'ida balandligi yuz metrcha keladigan devorday tik qoyatosh bor.(P.Q.) 6. Bog'da yoz bo'yi doim ikki-uch kishi ishlab turadi.(P.Q.) 7. Tansiq ariq boshida ketmonni ikki-uch marta zarb bilan yedi.(O.) 8. U o'z umrida o'n yillab mardikorchiilik, o'n yillab hammolchilik, o'n yillab yamoqchilik bilan tirikchilik qilgan edi.(O.)

**114-mashq.** *O'qing. Avval jamlovchi sonli gaplarni, keyin taqsim sonli gaplarni ko'chiring. Yozilishiga diqqat qiling.*

1. Hash-pash deguncha uchchala mahallaning maydonida o'tin tog'-tog' bo'lib ketdi.(A.Q.) 2. Ikkala qumg'on qariyib bir vaqtda sharaqlab qaynadi.(O.) 3. Sinf kutubxonasiga har bir o'quvchi ikkitadan kitob olib keldi. 4. Bemorlar palatalarga to'rttadan joylashtirildi. 5. Uchov; qabulxonaga kirishdi. 6. Ularning ikkovi ham qolishdi.(S.A.) 7. Beshovlon birdan xaxolab yubordik. (A.Q.)

**115 - mashq.** *Hikoyani o'qib, kuzatishlaringiz asosida mushuk yoki boshqa biror uy hayvonini tasvirlab yozing. Sonlarning tagiga chizib, turini aytib bering.*

Qo'ng'ir ayiqning to'rttala oyog'ining har birida beshtadan o'tkir tirnoqlari bor. Uning tishi 36-40 ta.

Qo'ng'ir ayiqning balandligi bir-bir yarim metr, uzunligi ikki-ikki yarim metr, og'irligi esa 150-250 kilogramm keladi. U o'simliklarni ham, go'shtni ham yeyaveradi.

Qo'ng'ir ayiq keyingi ikki oyog'ida tik turib, biroz ikki oyoqlab ham yura oladi. U daraxt va tik qoyalarga chaqqonlik bilan chiqadi.

**116 - mashq.** *O'qing. Avval juft sonli gaplarni, so'ng takroriy sonli gaplarni ko'chirib yozing. Ma'nosiga diqqat qiling.*

1. Erta bilan eshik oldida besh-olti kishi turgan edi. 2. Komilani yetti-sakkiz yoshida toshkentlik tog'asi olib ketdi.(O.) 3. U bir-ikkita o'rtog'ini "bahorlashib kelinglar" deb chaqirtirgan ekan.(Ch.) 4. U cho'lni obod qilish uchun ko'chib kelgan dehqonlar uchun yangi uylar qurishga qatnashadi.

**117-mashq.** *O'qing. Sonlarni aniqlang. Matnning mazmunini so'zlab bering. Kuzatishlaringiz asosida "Qanotli do'stlarimiz" mavzusida insho yozing.*

Qaldirg'ochlar bir kunda o'rtacha 16 soatga yaqin parvoz qilishadi. Ular bir soat davomida o'z palaponlariga tumshuqlarini to'lg'azib 20 marta ovqat olib kelishadi. Nar va moda qaldirg'och kuniga o'z uyalariga 640 martagacha kelib ketadi va har bir kelishida tumshug'ida o'nlab hashorot bo'ladi. Bir juft qaldirg'och har kuni 6400 tadan hasharotga qirg'in keltirib, ularni bolalariga olib kelsa, yana 600 ga yaqini bilan o'zi ovqatlanadi.

(*"Xalq so'zi" dan*)

**118 - mashq.** *O'qing. Sonlarni raqamlar bilan yozib, yig'indi qanday hosil bo'lganligini tushuntirib bering.*

Besh, besh, besh – o'n besh.

Uch, o'n, sakkiz, ikki –yigirma uch.

Qaysi son teskari yozilsa ham, o'zgarmasdan qoladi? (69.)

Qaysi son teskari yozilsa, hosil bo'lgan son bir yarim barobar ortadi? (66.)

### *Topishmoq.*

Uch juft qiz-u besh o'g'il,  
Uch tupdan gul ekishdi.  
Har bir gulning ostiga  
Bir chelak suv to'kishdi.  
Suvning uchdan birini  
Tashidi chevar qizlar.  
Qolganini – o'g'illar.  
Qani top, Barno, Safar,  
Birgalashib o'g'il, qiz,  
Nechta gul ko'chat ekan?  
Besh mehnatsevar o'g'il,  
Necha chelak suv to'kkan?

*Q.Botirov.*

### **31-mashg'ulot** **Taomnoma tuzish**

Har kim o'z sog'lig'iga qarab ovqatlanishi kerak. Shuning uchun Yevropada har kimning talabi va ta'biga ko'ra taomnoma bilan buyurtma beradi. Masalan, osh qandli diabet, jigar xastaligi, qon bosimi bor odamlar uchun xavfli taom bo'lib, ularga parhez taomlar foydaliroqdir.

Taomnomadan buyurtma berishda salat masallig'iga ko'proq e'tibor beriladi. Salatlarida sarimsoq bo'lishi yoqimsiz hid qoldirishi mumkin.

Shirinlik yoki sharbat tanlashda ham yog'li ovqatdan so'ng shifokorlar tomonidan tavsiya etilmaydi.

### *Topshiriq.*

1. Siz yoqtirgan taomlar ro'yxatini tuzing.
2. Parhez taomlariga nimalar kiradi?
3. Sharbatlar qachon, qayerda, qanday haroratda ichilishi mumkin?

## Sonlarning hisob soʻzlar bilan ishlatilishi

**119-mashq.** *Matnni oʻqing va mazmunini izohlab bering, hisob soʻzlar bilan kelgan soʻz birikmalarini alohida yozing.*

### Ajab xulq-atvor

“Muqaddas” Rim imperiyasining imperatori Karl IV ga toʻrt raqami juda yoqib qolgan ekan. (oʻzi Karlarning toʻrtinchisi ekanligi uchun boʻlsa kerak, albatta).

Karl IV imperiyasining 4 poytaxti boʻlgan, ularning har qaysisini toʻrt buyuk knyazdan biri idora qilgan. Oʻzi toʻrtta saroyda yashab, har qaysi saroyda toʻrttadan uyni ishgaʻol qilgan, har bir uyda esa toʻrttadan deraza, toʻrttadan eshik, toʻrttadan stol, toʻrttadan qandil boʻlgan.

Tantanal marosim paytlarida imperator toʻrt xil qimmatbaho metaldan quyilgan toʻrt qirrali toj kiyar edi.

U oʻz imperiyasini toʻrt qismga, armiyasini toʻrt korpusga boʻlgan edi.

Imperator toʻrt nafar ot qoʻshilgan faytunda yurgan, kiyimining rangi toʻrt xil boʻlgan, toʻrt xilda soʻzlashgan.

U kuniga toʻrt mahal ovqatlanar ekan, toʻrt xil sharob ichar ekan.

Har gal toʻrt xil taomdan iborat boʻlgan. Toʻrt raqamning “jinnisi” boʻlgan imperator umrida toʻrt marta uylangan, ulardan toʻrt oʻgʻil koʻrgan.

Oʻlimi oldidan uning yonida toʻrt shifokor va toʻrt din peshvosi turgan. Ularning har qaysisi imperatorning toʻrt vasiyatini toʻrt tilda yozib borgan.

Oʻzi ham 1378-yilning 29-noyabrida roppa-rosa 4-00da dunyodan oʻtgan.

### Lugʻat

xulq-atvor - поведение

idora qilmoq - править

ishgaʻol qilmoq - занимать

taom - блюдо

toʻj - корона

sharob - вино

qandil - люстра

### Topshiriq.

1. Matnni oʻqing va soʻzlab bering.

2. Matndagi son soʻz turkumi turlarini toping va rus tiliga tarjima qiling.

## 120-mashq. *Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.*

1. Справа тянулась сырая каменная стена.
2. Все хотят, чтобы люди везде жили свободно и счастливо.
3. Вечером он всегда совершает прогулку.
4. Всюду славят тебя непроста: не старит твоя красота (*А. Твардовский*).
5. И справа и слева высятся новые жилые дома.

**Topshiriq.** Matnni o'qing, yaxshi va yomon xulqlar haqila so'zlab bering.

### **Inson odobi bilan go'zal**

Odob-kishilar tarafidan qilinishi mumkin bo'lgan hurmatsizlik eshigini bekitadigan va odamni hazil-mazaxdan, kamsitishdan saqlaydi. Odob - inson tabiatiga insoniylik baxsh etadi va kishini odamiylik manziliga eltadi. Odobli va go'zal xulqli odamlar ko'payaversa, xalqning do'stligi, ularning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati borgan sari rivoj topadi. Agar kishi odob va tavoze kabi yaxshi xulqqa ega bo'lsa, o'zi ham xalqning izzat-hurmatiga sazovor bo'ladi.

Do'stlar orasida shu kabi suhbat va shu yo'sinda hamjihatlik bo'lsa, qanday yaxshi. Bunday ahil, ittifoq, muhabbatli, odobli bo'lish do'stlar uchun baxtiyorlikdir.

Qadimda ko'pchilik orasida o'zini tuta bilmagan, odob-axloq qoidalariga rioya qilmagan badxulq kishilarga qattiq tanbeh berilgan.

**Topshiriq.** Hikmatlarni o'qing va xulosa chiqaring.

### **IBN SINO HIKMATLARIDAN**

Yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi. Yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi.

\* \* \*

To'g'ri deb o'ylanilgan qanchadan-qancha narsalar bo'ladiki, ular bilida to'g'ri bo'lmay, balki faqat xatolardan iborat bo'ladi.

\* \* \*

Farosat-sezgidan keladigan ishoraning asl ma'nosiga tezda yetishmoqqa aytiladi.

\* \* \*


Ilm – narsalarni inson aqli yordami bilan o'rganilishidir.



Bilim deb, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni yo'ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo'ladigan narsadir.

Bordi-yu, bu dalillar ochiq-oydin bo'lsay-u, isbotlar chinakamiga bo'lsa, u holda bungay hikmat - donishmandlik deyiladi.

*Topshiriq.* Rasmdagi tasvirni ta'riflab bering.



**121-mashq.** *Ushbu dialog uchun berilgan namunalardan dialogli matn tuzing.*

### **Restoran, kafe, oshxona**

- Bu yer (joy) bo'shmi?
- Ha, bo'sh. Marhamat, o'tiringlar.
- Bizga ikki kishilik joy (stol) kerak.
- Shu yer sizga ma'qulmi?
- Ha, bizga juda ma'qul, rahmat.
- Yana bitta stol qo'ysa bo'ladimi?
- Bermalol, marhamat .
- Rahmat. Sizda qanday milliy taomlar bor?
- Bizda milliy taomlardan: osh, chuchvara, lag'mon, norin, no'xotsho'rak, xasip, moshxo'rda, xonim, manti va boshqa taomlar bor.
- Parhez ovqatlaridan buyursa bo'ladimi?

- Ha, albatta.
- Buyurtma qabul qilasizmi?
- Sizni eshitaman.
- Birinchi (ovqat) ga, ikkinchi (ovqat) ga nima olishni masalhat berasiz?
- Pishiriqlar ham bormi?
- Ha, pishiriqlardan: somsa, qovurma chuchvara, varaqi va boshqalar bor.
- Salqin ichimliklardan nimalar bor?
- Har xil sharbatlar, kompot, mineral suvlar bor.
- Marhamat qilib bizga... olib keling.
- Mana, marhamat. Yoqimli ishtaha.
- Rahmat.

**122-mashq.** *Ushbu soʻzlar ishtirokida matn tuzing.*

Tarelka, sanchqi, qoshiq, oshqoshiq, choy qoshiq, qovurilgan kartoshka, qovurilgan baliq, qovurilgan goʻsht, qaynatib pishirilgan baliq, qaynatib pishirilgan goʻsht, dudlangan, dudlab pishirilgan baliq, dudlangan kolbasa, qoʻy goʻshti, mol goʻshti, jigar, buyrak, qovurma kabob, palov, lagʻmon, somsa, chuchvara, limonli choy, koʻk choy, pamil choy.

**Topshiriq.** Daftaringizga milliy taomlardan 10 ta yozing va somsa qanday nasalliqlardan tayyorlanishini soʻzlab bering.



**123-mashq.** *Berilgan soʻzlardan gaplar tuzing. Ularni aniq sonlarga almashtiring.*

Yarimta, nimta, chorak, nimchorak.

**124-mashq.** *Matnni o'qing. Mazmunini o'zbek tilida so'zlab bering. Son so'z turkumini o'zi bog'langan so'z bilan daftaringizga yozing.*

Узбекистан, по оценкам авторитетных международных финансовых организаций, несмотря на продолжающийся глобальный финансово-экономический кризис, сохраняет стабильно высокие темпы роста экономики, составившие за последние 5 лет не менее 8,5 процента, по сравнению с 2000 годом достигнуто увеличение ВВП в 2,1 раза. Обеспечиваются профицит текущего счета, низкий внешний долг и достаточные валютные резервы, прогнозируются высокие темпы экономики в среднесрочной перспективе.

Подводя итоги сказанному, у нас есть все основания заявить, что Узбекистан за короткий по историческим меркам период в 15-20 лет сделал гигантский шаг по пути достижения главной нашей цели – войти в число развитых демократических государств в мире и создать достойные условия и качество жизни населения страны. И этим, я подчеркиваю, мы можем по праву гордиться.

*(Из выступления президента И.Каримова на открытии международной конференции)*

## 32-mashg'ulot

### Tobingiz qochdimi?

*(Betob odam bilan muloqot)*

- Salomatmisiz?
- Raxmat, durust.
- Bugun ko'rinishingiz yaxshi, ovqatlanasizmi?
- Yo'q, raxmat.
- Men siz yaxshi ko'radigan mevalardan olib keldim.
- Raxmat.
- Siz zerikib yotmasligingiz uchun radio ham keltirdim, past ovozda kuy, qo'shiq tinglasangiz foydali deb o'yladim.
- Yaxshi qilibsan, o'g'lim.
- Dadajon, siz bizga keraksiz. Tezroq davolanib chiqing.
- Raxmat, bolam, boringga shukur.

**Topshiriq.** *Matnni o'qing, o'z fikringizni bayon eting.*

## Mening kunim

Har bir kishi o'z vaqtini to'g'ri taqsimlashni bilishi kerak. Men buni litseyda o'qib yurganimda tushundim. Avval menga ancha qiyin bo'ldi. Yarim kechasi yotardim. Soat o'nta kam sakkizda uyqudan turib, ovqatlanmay darsga chopardim. Ba'zan Bo'sh vaqt topolmay qiyinalardim.

Keyin vaqtni to'g'ri taqsimlashni o'rgandim. Kun tartibiga qat'iy rioya qilish kerakligini tushundim.

Soat 6.00 da uyqudan uyg'onaman, badantarbiya bilan shug'ullanaman. Keyin yuvinaman, kiyinaman va ovqatlanaman. Ba'zan dars tayyorlashga ham ulguraman.

Soat 8.00 da o'rtog'im bilan darsga yetib boraman. Darsdan keyin do'stlarim bilan ovqatlanaman. Ozroq dam olib, yotoqxonaga qaytaman. Ba'zan kutubxonaga borib gazeta yoki kitob olib o'qiyman, ba'zan voleybol o'ynayman.

To'g'ri, doim shunday bo'lavermaydi. Gohida litseyda qolib, laboratoriya xonalarida uy vazifalarini bajaramiz. Kursdoshlarim bilan kinoga ham tushamiz.

Kechki ovqatdan so'ng madaniy hordiq chiqaramiz. Shaxmat o'ynaymiz, qo'shiq tinglaymiz, kino yoki konsertga tushamiz. Kech soat 23.00 da uxlayman. O'qish va dam olishni to'g'ri uyushtirish yaxshi o'qishimga yordam berar ekan.

*Topshiriq.* Matn mavzusiga doir suhbat tashkil eting.

**125-mashq.** Matndagi so'z turkumlarini aniqlang.

### Suhbat

- Siz ertalab soat nechada turasiz?
- Men ertalab soat yettida turaman.
- Badantarbiya bilan shug'ullanasizmi?
- Albatta. Xonamni shamollatib, so'ngra toza havoda badantarbiya qilaman.
- Ertalab soat nechada nonushta qilasiz?
- Soat yettidan yigirma daqiqa o'tganda nonushta qilaman.
- Birinchi smenada o'qiyasizmi?
- Ha, birinchi smenada o'qiyman.
- Dars tayyorlash uchun necha soat ajratasiz?
- Uch soat vaqt ajrataman.
- Siz kutubxonaga ham borasizmi?
- Albatta. Zarur bo'lganda kitoblarni kutubxonadan olaman.

— Kechqurunlari nima qilasiz?

— Dam olaman, televizor ko‘raman. Siz-chi?..

**126-mashq.** *Matnni o‘qing, so‘zlab bering. Matn mavzusiga doir savollar tuzing.*

### **Ibn Sino shogirdlari**

Tabiblarning tabibi, ulug‘ hakim Ibn Sino kunlardan bir kuni qattiq og‘rib, ko‘rpa-to‘shak qilib yotib olibdi. Ibn Sinoning eng yaqin do‘st-birodarlari yaxshi so‘zlar aytib, ulug‘ tabibning ko‘nglini ko‘tarishga, kayfiyatini yaxshilashga harakat qilishsa, shogirdlari ustozlarini dori-darmonlar bilan davolashga kirishibdilar.

Ibn Sino do‘st-birodarlariga rahmatlar aytib, shogirdlariga esa shunday debdi:

—Ey, shogirdlarim, mening kunim bitgan ko‘rinadi. Shu boisdan meni davolayman deb behuda harakat qilmanglar. Bordi-yu, kunim bitib, vafot etsam, yig‘i-sig‘i, oh-voh qilib o‘tirmanglar. Faqat haqqimga duo qilib, onda-sonda qabrimni ziyorat qilsanglar bas. Va yana, ustoz olamdan o‘tdi, endi tabobat oqsaydi, deb ham qayg‘urmanglar. O‘rninga besh zo‘r tabibni qoldirib ketmoqdaman. Shu tabiblarning maslahatlariga o‘zinglar ham doim amal qilinglar, boshqalarni ham ularga da‘vat etinglar,- debdi.

Ibn Sinoning shogirdlaridan biri:

—Ustoz, siz aytgan tabiblar kimlar?- deb so‘rabdi.

Shunda Ibn Sino:

— Men qoldirib ketayotgan zo‘r tabiblarimning biri – tozalik, ikkinchisi - parhez, uchinchisi – badan tarbiyadir. Va qolgan ikkisi mijoz bilan kayfiyatdir. Doimo pokiza, ozoda bo‘lishlik, ko‘ringan narsani, ya‘ni ovqatni eyabermaslik, apil- tapil ovqatlanmaslik, ovqatlanishda parhez, me‘yorni bilishlik, ichkilikka ruju qo‘ymaslik, badan a‘zolarini harakatsiz qoldirmaslik, mijozni unutmaslik va nihoyat, kayfiyatni yaxshi tutishga harakat qilish – mana shu aytganlarimga amal qilinsa, kasallanish u yoqda tursin, bevaqt o‘lim ham orqaga chekinadi, - degan ekan.

**Topshiriq.** “Sog‘lom turmush tarzi” mavzusida bayon yozing.

**127-mashq.** Siz oqibat deganda nimani tushunasiz?

## Oqibat

Islom dinida bemor odamni ziyorat qilish savob hisoblanadi. Aslida bu chin insoniy fazilatlariga kiruvchi mehr-oqibatilik belgisi hamdir.

Bemor ko'p hollarda o'ziga achinish hissiga berilib yotadi. Bunday hollarda ularga achinayotganligingizni bildirmay, aksincha, "bugun ancha durustsiz", "hayriyat, o'zingizga kelib qolibsiz", -deb aytish lozim. Kasallikni davolovchi omillarga nafaqat dori-darmon, balki xushmuomalalik ham darkor.

Inson hech qachon ertaga nima bo'lishini bilmaydi. Hatto, eng mashhur shifokorlar ham yanglishishi mumkin. Shuning uchun yaxshi niyat, shirin so'z, umid bilan ham shifo topganlarni unutmaylik. Agar yaqinlaringiz betob bo'lib qolsa, bee'tibor bo'lmang, shirin so'zingizni, yordamingizni ayamang. Bemor uchun bu daqiqalar hech qachon unut bo'lmaydi.

Yaxshilik qilishga shoshiling, toki buni "qaytar dunyo" deydilar.

*Topshiriq.* Oqibat haqida 10 ta hikmatli so'zlar topib yozing.

**128-mashq.** *Matndan olmosh so'zlarni aniqlang.*

### Yaxshidan bog' qoladi

Ko'klam kunlarining birida Sulton Husayn saroyda yolg'iz o'tiraverib, zerikib ketibdi-da, ancha vaqtdan beri Mir Alisherdan darak bo'lmadi, borib xolidan bir xabar olib kelay deb, do'sti yashaydigan mahallaga yo'l olibdi.

Borib qarasa, Mir Alisher yeng shimarib bog'ida ishlayotgan ekan. Buni ko'rgan Sulton Husayn otidan tushib, do'sti bilan so'rashgach:

— Hormang, do'stim! Nega shoirlar majlisida ko'rinmay qoldingiz desam, bog'bonlik qilyapsiz ekan-da!- debdi.

Mir Alisher ham belbog'i bilan peshonasidagi terini artar ekan:

— Ko'klam kelsa ko'chat ek deyishgan. Shu bog'dagi qurigan olmalarni qo'porib tashlab, o'rniga uch-to'rt tup yong'oq ekayapman,- deb javob beribdi.

Ey do'stim-ey, qarigan chog'ingizda bog' qilishni sizga nima keragi bor, axir? Siz bilan men yoshimizni yashab, oshimizni oshagan bo'lsak, bu yong'oqlaringiz qachon hosilga kiradi-yu, siz qachon mevasidan veysiz? Oxir umringizda mana shu bog'dagi mevalarning boriga qanoat qilib, soya-salqinida tinchgina g'azal bitib o'tiravermaysizmi?

Do'stim, yaxshidan bog' qoladi degan naqlni eshitganmisiz? Men bu ko'chatlarni o'zim uchun emas, mana shu mahallamiz ko'chalarini changitib yurgan bolakaylar, balkim ularning ham bolalari uchun ekayapman. Bir kun kelib, shu ko'chatlarning har biri azim daraxt bo'lib, hosil bera boshlasa, odamlar uning mevasidan tatib ko'rishganda, "Bu bog' Mir Alisherdan qolgan!"- deyishsa, shuning o'zi menga har qanday ne'matdan lazzatliroqdir, - deb javob beribdi.

Bu gaplarni eshitgan Sulton Husayn Mir Alisherning saxovatiga qoyil qolib, unga bir hamyon to'la tilla chiqarib berganida: Mir Alisher:

—Ana, ko'rdingizmi do'stim! Ekayotgan ko'chatlarim hozirdanoq hosil bera boshladi,— deya kulib qo'yibdi.

Sulton Husayn Mir Alisherning hozirjavobligiga yana bir bor qoyil qolibdi.

### L u g ' a t

zerikmoq - скучаться

yeng shimarib - усердно

belbog' - поясничний платок

qo'pormoq - вькопать

soya-salqinda - в тени

qanoat - терпение

saxovat - щедрость

*129-mashq. She'rni ifodali o'qing. Saxovatli insonlar haqida matn tuzing.*

### TILAK

Saxiylikni odat qilgan bo'lsa kim,  
Elga sochgan bo'lsa borini doim,  
Himmati bor bo'la turib, tilagim,  
Qo'lidan davlati ketmasin uning.

Kim umrida sira bilmagan tinim,  
Mehnatsiz bir lahza turolmagan jim,  
G'ayrati bor bo'la turib, tilagim,  
Belidan quvvati ketmasin uning.

Bir ishga qasd qilib shoir yo olim,  
Xayol surib — keyin ne bo'lur holim —  
Qudrati bor bo'la turib, tilagim,  
Dilidan jur'ati ketmasin uning.

*E. Vohidov*

## **Olmosh** (Местоимение)

Местоимения в узбекском языке, как и в русском, употребляются вместо существительных, прилагательных и числительных.

По своему значению местоимения делятся на следующие разряды:

- 1) kishilik olmoshlari - личные местоимения;
- 2) o'zlik olmoshlari - возвратное местоимение;
- 3) ko'rsatish olmoshlari - указательные местоимения;
- 4) so'roq olmoshlari - вопросительные местоимения;
- 5) belgilash olmoshlari - определительные местоимения;
- 6) bo'lishsizlik olmoshlari - отрицательные местоимения;
- 7) gumon olmoshlari - неопределенные местоимения.

Слова, указывающие на лицо, предмет, признак, количество, или обобщающие предметы и признаки, не называя их, составляют определенную группу слов – местоимения.

### **Kishilik olmoshlari** (Личные местоимения)

Личные местоимения употребляются для указания на лиц, участвующих в беседе. Я, ты, он(она), мы, вы, они – men, sen, u, biz, siz, ular.

**130- mashq. Nuqtalar o'rniga tegishli kishilik olmoshlarni qo'ying.**

1. ... qalamingni berib tur. 2. ...ning kitoblari ko'p. 3. ...ning otang qayerda ishlaydi? 4. ... to'rt soat o'qiyimiz. 5. ...dan bir narsa so'ramoqchiman. 6. ...da koptok bor. 7. ...ning uyim uzoq. 8. Qani, ...ga u derazani ko'rsating. 9. Sen ...ga javob ber. 10. Mana ...ning kitobingiz, uni ... ga Dilfuza berdi.

**Topshiriq.** Kishilik olmoshlarini qo'llab dialog tuzing.

Namuna:

- Sizning ismingiz nima?
- Mening ismim Mahmud.



— Meni taniysizmi?

— Ha, taniyman.

\*\*\*

— Menda ishingiz bormi?

— Ha, siz bilan bafurja gaplashib olmoqchiman.

— UZR, meni kutib qolishdi. Ertaga keling, xo'pmi?

— Mayli.

**131-mashq.** *Matnni o'qing, kishilik olmoshlarini ko'chirib, ularning kelishik shaklini ko'rsating va matnni so'zlab bering.*

### **Farzandlik burchi**

Bizni o'z boshiga ko'tarib turgan yerni – ona-Yer, ona-Zamin deydilar. Darhaqiqat, u – borliqning onasi.

Rivoyatlarga ko'ra bizlarni, aqlli mavjudot bo'lgan insonlarni ona-Yerdan yaratishgan. Shuning uchun Yer insonni boqadi, yediradi, ichiradi, kiyintiradi. Uning kamoloti uchun hamma narsani muhayyo qiladi. “Mana senga” deb bag'rida yetishgan narsalarni bizga in'om qiladi. Bizning butun hayotimiz uning bag'rida kechadi. Inson yuz yil yoki undan ko'proq yashasa ham mehribon ona-Yer bag'riga boradi. Shunday ekan, biz ham uni onadek e'zozlashimiz kerak.

Afsuski, biz insonlar ona-Zamin oldidagi o'z farzandlik burchimizni ado etmayapmiz, zaharlayapmiz. Siz va biz ana shu zaharlangan yerda ungan, tabiat mevalaridan iste'mol qilyapmiz-ku!

Odamlar, yerni zaharlamang! Yer bizga ona-Tuproq, ona-Zamin! Hammamiz ona-Yer uchun kelajakda avlod oldida javobgarmiz. Do'stim, sen ona-Yer oldidagi farzandlik burchingni qanday bajarayapsan?

**132-mashq.** *Quyidagi so'z birikmalari ishtirokida gap tuzing.*

Men o'zim, o'zimning soatim, o'z hisobidan, ularning o'zlari, siz o'zingiz, o'z tilimizni.

**133-mashq.** *Quyidagi gaplarni ko'chirib yozing, rus tiliga tarjima qiling.*

1. O'zingni er bilsang, o'zgani sher bil.(Maqol) 2. O'zim atir fabrikasida ishlayman. 3. O'zlaridan ibrat olsak, kamina uchun ham durust edi. 4. Hammasining o'ziga xos fazilati, husni bor. 5. Hayot bamisoli ko'zgu – har bir inson unda o'z aksini ko'radi. 6. O'zingni

o'rtog'ing o'rnida qo'yib ko'r-chi. 7. Men o'z-o'zimga deyman: nahotki, oz muddatda shunchalik o'zgaribman.

### **O'zlik olmoshi**

Возвратное местоимение o'z указывает на объект, служит для конкретизации.

1. Форма местоимения o'z с притяжательными аффиксами передается в русском языке словом «сам».

2. Формы местоимения o'z с притяжательными и падежными аффиксами, а также послелогоми совпадают с формами аналогичного местоимения «себя».

3. В основной форме (иногда в притяжательном падеже) местоимение o'z, выражая значение «свой», «собственный» выступает в речи как определение и соответствует русскому местоимению «свой».

### **33-mashg'ulot**

#### **Parhez qiling**

*Topshiriq.* Parhez nima? O'z fikringizni ifodalab "Parhez qiling" mavzusida bayon yozing.

#### **134-mashq. Maqollarni yodlang.**

1. Kishining hurmati o'z qo'lida.
2. O'ziga boqma, so'ziga boq.
3. Kim birovga chuqur qazisa, o'zi yiqiladi.
4. Har tuyaning o'z yuki bor, har kishining o'z ishi.
5. So'nggi pushaymon – o'zining dushman.

### **Ko'rsatish olmoshlari**

Указательные местоимения употребляются в речи для выделения лица, предмета или признака относительно времени и места.

Указательные местоимения различаются по времени и расстоянию между говорящими предметами.

1. Местоимение bu (это), ana (вон), mana (вот), ana bu (вон это), mana bu (вот это) указывает на предмет, который находится близко говорящему или о котором говорится в момент речи.

2. Местоимение *shu* (этот), *ana shu* (вон этот), *mana shu* (вот этот) употребляются для повторного упоминания предмета, который находится перед глазами говорящего или о котором говорилось недавно.

3. Местоимение *u* указывает предмет, который не находится перед глазами говорящего.

4. Местоимение *o'sha* употребляется для упоминания известного предмета или явления, о котором говорилось ранее.

В узбекском языке местоимения ***bu, shu, u, o'sha, bunday, shunday, shunaqa, shuncha*** в сочетании с существительным не изменяют своей формы, но при выполнении функции подлежащего принимают аффиксы множественности, притяжательности и падежей.

**135-mashq.** *Quyidagi so'z birikmalarini qo'llab gap tuzing.*

*Bu haykalni, o'sha kuni, u kishidan, mana shu joyda, shu vaqtda, ana shu do'kondan, shu tashabbus bilan.*

**Topshiriq.** *Dialog tuzing. Tuzgan dialogingizda ko'rsatish olmoshlari ishtirok etsin.*

### **So'roq olmoshlari**

(Вопростельные местоимения)

Вопростельные местоимения содержат в себе вопрос о предмете, его количестве или признаке не известном говорящему.

I. В узбекском языке местоимение *kim?* выражает вопрос только о лице.

Местоимение *nima?* выражает вопрос о предмете или о животном.

Однако местоимение *nima?* используется и в тех случаях, когда говорящему не ясно, о лице или предмете идет речь.

Местоимения *kim? nima?* принимают притяжательные падежные аффиксы и аффикс множественного числа.

Местоимения *kimniki? nimaniki?* (чей? чья? чье?) выражают вопрос о принадлежности: *kimniki?* – о принадлежности предмета или лица тому или иному лицу, а *nimaniki?* – одного предмета другому.

II. Местоимения (какой) выражают вопрос о признаке предмета. В отличие от подобных местоимений русского языка они при в сочетании с существительным не изменяют форму.

III. Местоимения (сколько) выражают вопрос о количестве предмета, (который) – о порядке при счете.

**136- mashq.** Matnni o'qing, olmo'hlarni topib, o'zi birikgan so'z bilan yozing.

9-sinfni 22 bola tugatdik. Hammamiz bir-birimizdan ajralishni istamas edik. Ammo ba'zilar kollejga o'qishga kirishdi, ba'zilar esa litseyga borishdi.

Men ToshTYMI qoshidagi akademik litseyga o'qishga kirdim. Guruhimdagi hamma bolalar bilan maktabdagidek do'stman. Ularning har qaysisi har yerdan o'qishga kelishgan. Vileyatiyan kelganlarga yotoqxonadan joy berishdi. Yotoqxonada yaxshi dam olish uchun barcha sharoitlar bor. Bu yerdagi hamma fanlarga juda qiziqaman. Ammo ba'zi fanlar qiyin. Qiyinalgan vaqtimda, o'rtoq'arim menga yordam berishadi.

### **34-mashg'ulot** **Oraliq nazorat-4**

### **35-mashg'ulot** **Sog'lig'ingni asra**

**Topshiriq.** Matndan olmoshlarni ajratib, o'zi bog'langan so'z bilan yozing.

Fransuz olimlarning ma'lumotlariga ko'ra, yetuk yoshda o'pka siliga uchragan 100 ta bemordan 95 tasi chekuvchilarga taboq'ga keladi.

AQSH tibbiy komissiyasi shunday hulosaga keldik, kuniga 20 dona papiros yoki sigareta chekkan kishi chekmaydigan kishilarga nisbatan o'pka raki bilan 20 baravar ortiq og'ir ekan.

Olimlar kuniga bir quti sigareta chekadigan lashandalar o'z umrlarini 8 yilga, 2 qutidan chekadiganlar esa 15 yilga qisqartiradi, deb hisoblaydilar.

Chekishga qarshi kurash butun dunyoda avj olyapti. Vrachlar o'rtasida chekish birmuncha kamaydi. Buyuk Britaniyada bir necha yillarda, ular 43 dan 21 gacha, AQSHda 15 yilda 40 dan 29 gacha,

Shvetsiyada 46 dan 37 foizgacha qisqardi. Kanada, Finlyandiya, Daniyada, Avstraliyada ham shifokorlar chekishi sezilarli darajada kamaydi.

### Belgilash – jamlash olmoshlari (Определительно-обобщающие местоимения)

Определительно-обобщающие местоимения обобщенно или определенно указывает на лицо, предмет или на признак, количество.

1. Для раздельного указания на лицо. Предмет или признак, употребляются местоимения **har kim**, **har qanday**, **har qaysi** (каждый, всякий), **har qancha** (сколько бы то ни было), **har bir** (каждый), **har narsa** (все, все что угодно), образованные путем сочетания слова **har** (каждый, всякий) с вопросительными местоимениями или словами.

2. Для выражения обобщенного признака лица, предмета в собирательном значении употребляются местоимения **hamma**, **barcha**, **bari**, **butun** (все).

3. Местоимение **ba'zi** (некоторый) употребляется для указания на часть целого.

4. При сочетании с существительным определительно-обобщающие местоимения не изменяются и выполняют функцию определения.

В функции существительного определительно-обобщающие местоимения принимают аффиксы множественного числа, притяжательные и падежные. Значения местоимений **hamma**, **barcha**, **bari** с притяжательными аффиксами передаются в русском языке путем сочетания личных местоимений с местоимением «все».

*137-mashq. Hikmatlarning ma'nosi bo'yicha diskassing uyushtiring.*

### Ichkilik - koni ziyon

Yosh avlodning tarbiyasini bodaga ruju qo'yganlarga ishonib bo'lmaydi.

*Sitseron.*

Qilich emas, ichkilik kishilarning boshiga ko'proq yetadi.

*Dlavt.*

Barcha jonivorlar buloq suvini, insonlargina boda suvini ichadilar.

*Seneka.*

Mastlikda qilgan gunohlaringni va xatolaringni also kechirma: gunohlarga va xatolarga sabab ichkilik emas, balki uni ichgan insondir.

*Katon.*

Fildan yetti qadam, ho'kizdan bir qadam, ayol kishidan yigirma qadam, mast odamdan o'ttiz qadam nari yur.

*Hind maqoli.*

Odamlar daryo va dengizlarning havzalarida emas, qadah ichida ko'proq g'arq bo'ladilar.

*Nemis maqoli.*

### **Topshiriq.**

1. Zararli odatlar nima?
2. Ularning inson hayotiga ta'siri haqida gapirib bering.
3. "Bilmayin bosdim tikonni" matalining ma'nosini tushuntirib bering.
4. "Zararli odatlar" mavzusida bayon yozing.
5. Nima uchun 1-iyun bolalarni himoya qilish kuni deb ataladi?

### **Bo'lishsizlik olmoshi.**

(Отрицательные местоимения)

Отрицательные местоимения указывают в обобщенной форме на отсутствие или отрицание предмета, признака или количества. В узбекском языке они образуются путем сочетания слова **hech** (ни, ничто, никакой, совсем, не...) с вопросительными местоимениями, а также словами *narsa, bor*.

Значение этих местоимений передается присоединением приставок *ни-* (при выражении отрицания) и *не* (при выражении отсутствия, в сочетании с инфинитивом) к вопросительным местоимениям.

**Topshiriq.** Yusuf Xos Hojibning bilim haqidagi hikmatli so'zlarini o'qib, izohlab bering. Olmoshlarni aniqlang.

Boshliq bilimli va dono bo'lsa, atrofiga o'ziga o'xshaganlarni yig'adi.

Jahonda bilimdan ulugʻ, bilimdan aziz nima bor?  
Bilimsiz desalar, bu inson uchun haqoratlidir.  
Bilimsizga toʻrdan oʻrin boʻlsa koʻr,  
Bu toʻr poygak boʻldi, poygak esa toʻr.  
Bilimsizni aql-idrok egalari koʻzi koʻr odamga qiyoslashadi.  
Oʻquv koʻrki soʻz-u, bu til koʻrki soʻz,  
Kishi koʻrki yuzu, bu yuz koʻrki koʻz.  
Kishi soʻzini til bilan soʻzlaydi. Soʻzlari yaxshi boʻlsa, uning yuzi  
suv oladi, yaʼni obroʻ qozonadi, eʼtibor topadi.

## Gumon olmoshi

(Неопределенные местоимения)

Неопределенные местоимения указывают на существующий, но неопределенный предмет (лицо), признак или количество. В основном они образуются от вопросительных местоимений с помощью:

а) приставки **alla-**: allakim(кто-то), allanima (что-то), allaqanday(какой-то), allaqancha(сколько-то);

б) аффикса **-dir**: nimadir (что-то), qaysidir (какой-то), qanchadir (сколько-то).

При изменении этих местоимений по лицам, числам, падежам аффикс **-dir** присоединяется после соответствующих аффиксов, а при сочетании с послелогоми **balki(c)**, **uchun** (для) – в конце послелога.

Неопределенные местоимения также образуются сочетанием слова **bir** с некоторыми вопросительными местоимениями и со словом **narsa**: **bir qancha**, **bir necha** (несколько, сколько-то, некоторое количество), **bir narsa** (что-то).

В узбекской разговорной речи широко употребляются и такие местоимения, выражающие значение неопределенности, как **birov** (кто-то), **birov**, **biror** (какой-то, какой-либо), **baʼzi bir** (некоторый, какой-то)...

**138 - mashq.** Olmoshlarni topib, u bilan bogʻlanib kelgan soʻz bilan birga koʻchiring va maʼnosini tushuntiring.

1. Hovlida allakimning yoʻtalgani eshitildi. 2. Bahodir allaqaysi shaharlarni koʻrib kelgan. 3. Sahnada kimdir ashula aytar edi. 4. Birov undan nima qilding, qaysi bir ishni qoyillatding deb soʻramadi. 5. Oʻtgan

yil opam bir qancha kitoblarni kimlargadir berib yuborgan edi. 6. U qayerdandir qamish topib kelib, allaqanday narsani bog'ladi. 7. Hamma kishilar bir xil emas: biron indamasa, biron urishib beradi.

**139-mashq.** Berilgan so'zlardan olmosh so'z turkumi bilan so'z birikmasi tuzing.

Kitob, kun, soat, keldi, ko'rmadi, vaqt.

### Sport bilan shug'ullanaman

**Topshiriq.** Savollarga javob bering.

1. Sportning qaysi turi bilan shug'ullanasiz?
2. 10 turdagi sport o'yinlari nomini yozing.
3. Eng mashhur sportchilardan kimlarni bilasiz?
4. "Universiada" va "Barkamol avlod" o'yinlariga qaysi yoshdagilar ishtirok etishi mumkin?

**140-mashq.** Matnni o'qing, o'zbek tiliga tarjima qiling.

**141-mashq.** Matndagi olmosh so'z turkumining ma'no turlarini aniqlang.

### Umar Xayyom hikmatlaridan

Dil uning dardiga to'lsa yaxshidur.

Bosh-yo'lin tuprog'i bo'lsa yaxshidur.

G'am tig'in do'st o'tsa, unga ranjima,

Har narsa do'stingdan kelsa yaxshidur.

Har sirni dilida saqlasa dono,

U yashirin bo'lsin misoli anqo.

Sadafning ichida qatra dur bo'lur,

Sir qilib, qalbida yashirgan daryo.

### Lug'at

g'am - печаль

anqo - чрезвычайная редкость

sadaf - перламутр

sir - секрет

### Savol va topshiriqlar

1. Bu hikmatlarda qanday g'oya ilgari surilgan?
2. "Sir qilib, qalbida yashirgan daryo" misralarini izohlab bering.



3. Hikmat deganda nimani tushunasiz? Uning qanday sinonimlari bor?

4. Hikmatlarni yod oling.


### **36-mashg'ulot** **Tarixdan bir sahifa**

*Topshiriq:* Mustaqillik odimlari haqida nimalarni bilasiz? Berilgan ma'lumotlarni o'qib, yodda tuting.

### **Mustaqillik bizga nima berdi ?!** (Что дала независимость?!)

**1991-yil 31-avgust** O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilindi.

**1-sentabr** kuni Mustaqillik bayrami maqomi ta'sis etildi.



**1991-yil 1-noyabr** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Vazirlar Mahkamasi Raisi lavozimida ishlay boshladi.

**1991-yil 18-noyabr** Oliy Kengash "O'zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog'i to'g'risida"gi Qonunni kuchga kiritish haqida qaror qabul qildi.

**1992-yil 8-yanvar** “O‘zbekiston Respublikasida davlat yoshlar siyosati asoslari to‘g‘risida”gi Qonun e‘lon qilindi.

**1992-yil 2-mart** O‘zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar tashkilotiga qabul qilindi.

**1992-yil 23-mart** O‘zbekiston Respublikasi Xalqaro Olimpiya qo‘mitasiga a‘zo bo‘ldi.

**1992-yil 27-mart** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Ro‘za Hayiti va Qurbon Hayiti kunlarini dam olish kuni deb e‘lon qilish to‘g‘risidagi Farmonga imzo chekdi.

**1992-yil 8-dekabr** O‘zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qildi va o‘z qarori bilan shu kuni umumxalq bayrami deb e‘lon qilindi.

**1992-yil 10-dekabr** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi O‘zbekiston Respublikasining Davlat Gimnini tasdiqlandi.

**1993-yil 26-oktabr** O‘zbekiston Respublikasi BMTning Maorif, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti - YUNESKOga a‘zo bo‘ldi.

**1995-yil 1-yanvar** O‘zbekiston Respublikasida yangi pasport amalga kiritildi.

**1996-yil 14-mart** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Temuriylar tarixi Davlat muzeyini tashkil qilish haqidagi qarori qabul qilindi.

**1996-yil 19-iyul** Asakada “O‘zDEWOavto” korxonasi ishga tushdi.

**1997-yil 10-yanvar** Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi va Qirg‘iziston Respublikasi o‘rtasida Abadiy do‘stlik Shartnomasi imzolandi.

**1997-yil 21-fevral** Vazirlar Mahkamasi “Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li – Cho‘lponning 100 yilligini nishonlash to‘g‘risida” Qaror chiqardi.

**1997-yil 29-avgust** O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning qabul qilindi.

**1997-yil 11-noyabr** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Xorazm Ma‘mun Akademiyasini qayta tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni e‘lon qilindi.

**1999-yil 3-mart** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “9-mayni Xotira va Qadrlash kuni deb e‘lon qilish to‘g‘risida”gi Farmoni e‘lon qilindi.

**2002-yil 12-dekabr** O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati haqida konstitutsiyaviy Qonunni qabul qilindi.

2004-yil 9-noyabr O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xorazm Ma'mun Akademiyasining 1000 yilligini nishonlash to'g'risida"gi Qaror chiqarildi.

2007 - yili Toshkent — Islom madaniyat markazi deb e'lon qilindi.

142-mashq. *Savollarga javobni daftaringizga yozing.*

1. Mustaqillik sharofati haqida o'z fikringizni bildiring.
2. O'zbekistonning sobiq Ittifoq davridagi holati haqida fikr bildiring.
3. O'zbekiston boyliklariga sobiq Ittifoq davrida qanday munosabatda bo'lishgan?
4. "Paxta ishi" jinoiy aybnomasi haqida nimalarni bilasiz?
5. O'zbek tiliga qachon Davlat maqomi berilgan?

## Ravish (Наречие)

Наречие – часть речи, которая обозначает признаки действия, качества, реже предмета и выступает в предложении в роли обстоятельства. Основным морфолого-синтаксическим признаком наречи является неизменяемость, а лексико-морфологическим - лексическая и словообразовательная соотносительность со всеми разрядами изменяемых слов.

Наречия в узбекском языке делятся на следующие группы:

- 1) holat ravish - наречие образа действия;
- 2) payt ravishi - наречие времени;
- 3) o'rin ravishi - наречие места;
- 4) daraja-miqdor ravishi - наречие меры и степени.

## Payt ravishi (Наречия времени)

Наречия времени стоят обычно в начале предложения и выступают в синтаксической функции обстоятельства времени. Они отвечают на вопросы qachon? – когда?, qachongacha? - до каких пор?, qachondan beri? - с каких пор? *Например:* Bugun Petrova o'zbek tilida doklad qildi. - Сегодня Петрова сделала доклад на узбекском языке. - Ilgari men o'zbekcha gaplasha olmas edim. - Раньше я не мог говорить по-узбекски.

**Hozir, endi; keyin, so'ng; avval, oldin, ilgari; hali, hanuz; hamisha, har kuni, kuni bilan, bugun, erta, ertaga; indin, indinga;**

kecha, ertalab, tushda, kechqurun, o'tmishda, allaqachon, yildan-yilga.

## O'rin ravishi (Наречие места)

Наречие места отвечает на вопрос *qayrda?* – где?, *qayerga?* – куда?, *qayerdan?* – откуда? В предложении они выступают в роли обстоятельства места: *Bahorda hamma yerda gullar ochiladi.* - Весной всюду цветут цветы.

*Oldinda, uzoqda, olisda; yaqinda, yuqoriga, pastga, quyida, nari, narida; balandda, bu yerda, bunda; u yerda, shu yerga, buyerga; bu yerdan, shu yerdan; u yerdan, har yerda, hamma yerda; allaqayerda, allaqayerga, allaqayerdan.*

Посреди комнаты стоит большой стол. Поставьте этот телевизор посреди (на середину) стола. На шкафу есть несколько книг. Положите эти вещи на шкаф. Возьмите Ваши книги с этого стола. Что есть вон под тем шкафом? Я расстелю большой ковер около дивана. Они взяли из-под кровати ковер и расстелили его посередине комнаты. Рядом с диваном стоит тумбочка. Этот стол мы поставим около двери. В моем шкафу (внутри моего шкафа) хранятся разные бумаги, письма и книги. В се комнате справа стоит диван, (а) слева две новые кровати.

*Xona(ning) o'rtasida katta stol turibdi. Bu televizorni stol(ning) o'rtasiga qo'ying. Shkaf ustida bir necha kitob bor. Shu narsalarni shkaf ustiga qo'ying. Bu stoldan kitoblaringizni oling. Ana u shkaf(ning) tagida nima bor? Men katta gilamni divan oldiga solib qo'yaman. Ular karavat(ning) ostidan gilamni oldilar va uni xonaning o'rtasiga solib qo'ydilar. Divan yonida tumbochka turibdi. Bu stolni biz eshik yoniga qo'yamiz. (Mening) shkafimning ichida har xil qog'ozlar, xat(lar) va kitoblar saqlanadi. Uning xonasida o'ng tomonda divan, chap tomonda ikkita yangi karavat turibdi.*

Для уточнения местоположения предметов употребляются следующие послелogi:

...ustida - на...

...ostida - под...

...tagida - под...

...ichida - в...(внутри...)

...oldida - у..., перед..., около...

...yonida - рядом с ..., возле..., около...

...orasida - между

...atrofida - вокруг..., кругом....

...o'rtasida - посередине....

...o'rtasida - за..., сзади..., позади....

Все эти послелоги употребляются при ответах на вопрос (где?) и имеют окончание.

**143-mashq.** *O'rin ravishlari yordamida so'z birikmalari tuzing.*

### **37-mashg'ulot**

#### **Tarixiy obidalarni asrang**


Samarqanddagi Registon ansambli uchta salobatli binodan tashkil topgan. Bular: "Ulug'bek", "Sherdor" va "Tillaqori" madrasalaridir.

"Ulug'bek" madrasasi 1471-yilda barpo etilgan. Bu bino Ulug'bek qurdirgan madrasalarning eng kattasi va eng hashamatlisi edi. Uning monumental peshtoqlari, yon gumbazlari va minoralari hozir ham kishini hayratga soladi. Bu yerda diniy ilmdan tashqari, turli dunyoviy fanlar ham o'qitilgan. Madrasa o'z davrida ilm-fanning yirik markazi bo'lgan. Madrasada yirik olimlar, jumladan Ulug'bekning o'zi ham dars bergan.

"Sherdor" madrasasi 1619-1636-yillarda Samarqand hukmdori Yalangto'sh Bahodirning topshirig'i bilan qurilgan. Bahaybat peshtoq tepasida sher va ohular rasmi solingani uchun, "Sherdor" madrasasi deb atalgan. Madrasa o'z davrining oliy diniy maktabi hisoblangan.

"Tillaqori" madrasasi 1647-1660-yillarda qurilgan. U zarhal naqshlar bilan ishlanganligidan shunday nom olgan. Bu madrasa binosi qurilishi bilan Registonning ajoyib ansambli mukammal shakl olgan.

**Topshiriq.** Matnni o'qib, savollar tuzing va har bir madrasani tasvirlab bering.



144-mashq. *Matnni o'qing. Rus tiliga tarjima qiling va so'zlab hering.*

### **O'zbekistondagi tarixiy me'morchilik obidalari**

(Исторические архитектурные достопримечательности Узбекистана )

“Ulugh‘bek” rasadxonasi yonida go‘zal bir bino ko‘zga tashlanadi. U ham olimning qilgan ishlari, mazmunli hayotining guvohi bo‘la oladi. Bu Ulugh‘bekning uy-muzeyidir.

Bino toshkentlik arxitektor A.Boboxonov loyihasi asosida qurilgan. Uning tashqi ko‘rinishi g‘oyat ko‘rkam. Ichiga kirsangiz, go‘yo Ulugh‘bek zamonidagi afsonaviy qasrga kirib qolgandek bo‘lasiz. Ichki zeb-ziynatlar, devorlardagi bezaklar, bir-biriga monand eksponatlar kishini maftun qiladi. Muzeyni mashhur o‘zbek rassomi Chingiz Axmarov bezagan.

Mo‘yqalam bilan chizilgan Ulugh‘bek va o‘sha davrning fozil kishilari portretlari, “Olimlar Ulugh‘bek huzurida”, “Ulugh‘bek Samarqand olimlariga rasadxona maketini ko‘rsatmoqda”, “Alisher Navoiy Ulugh‘bek madrasasida”, “Shoirilar mushoirasi”, “Ulugh‘bekning o‘z raqiblari bilan to‘qnashuvi” kabi polotnolari – tarix oynasining o‘zginasidir.

“Ulugh‘bekning o‘z raqiblari bilan to‘qnashuvi” polotnosida buyuk olim mag‘rurona qarab turibdi. Ulugh‘bekning qarshisida ma‘rifat dushmani Xo‘ja Axror tasvirlangan. Uning o‘zi ko‘rinmaydi. Lekin

atrofdagi darveshlar, harbiy kishilarning sovuq basharasiyoq johil shayhning qabih qilmishini namoyon etadi, tomoshabinni nafratlantiradi.

Bu muzey o'zbek xalqining buyuk olim Ulug'bekka, uning ilmiy merosiga cheksiz muhabbatining yorqin dalilidir.

**Topshiriq.** O'qing. Savollar asosida o'zaro suhbatlashing.

### Suhbat uchun savollar

- Ulug'bek muzeyi qayerda joylashgan?
- Muzey kimning loyihasi asosida qurilgan?
- Uning tashqi va ichki ko'rinishi qanday?
- Muzeyni kim bezagan?
- Muzey ichida qanday polotnolarni ko'rasiz?
- "Ulug'bekning o'z raqibi bilab to'qnashuvi" polotnosi haqida nimalar deya olasiz?

**145-mashq.** *Hadislarni o'qing va mazmunini izohlab bering.*

Garchi Xitoyda bo'lsa ham, ilmga intilinglar, chunki ilm olishga harakat qilish har bir mo'minga farzdir.

Bir soatgina ilm o'rganish bir kechalik ibodatdan yaxshi, bir kunlik dars esa uch oy tutilgan nafl ro'za (Ramazon oyidan boshqa oyda tutilgan)dan afzaldir.

Ilmni o'rganib, so'ng uni boshqalarga o'rgatmaslik go'yoki mol-u dunyoni yig'ib, uni sarf qilmay, ko'mib qo'yish bilan barobardir.

Ilm sahroda–do'st, hayot yo'llarida–tayanch, yog'lizlik damlarida–yo'ldosh, baxtiyor daqiqalarida– rahbar, qayg'uli onlarda– madadkor, odamlar orasida–zeb-u ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda– quroldir.

**146-mashq.** *Matnni ifodali o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.*

### Bog'i Boburiy

Falakning gardishi bilan Mirzo Bobur Hindiston degan yurtga borib qolib, u yerning sultoni bo'libdi. Hindiston bog'-rog'i ko'p, meva-chevaga boy yurt ekan. Boburshoh mendan yodgor qolsin deb, Hindistonning ko'rkam joyiga bir bog' barpo ettiribdi. Dunyodagi bu eng

katta boqqa turli yurtlardan nihollar- olcha, anor-u o'rik, behi-yu xurmo, olma-yu gilos, ko'ksulton-u olxo'ri, tok, borki, hammasidan olib kelib ko'kartiribdi. Xalq dunyoga dong'i ketgan bu boqqa "Bog'i Boburiy" deb nom qo'yibdi. Bog'dagi daraxtlar chunonam xosilga kirib meva berishibdiki, ularni hech yerga sig'dirib bo'lmabdi. "Bog'i Boburiy"ning bir chekkasi rezavor ekan. Unda piyoz, sabzi, tarrak, bodring, tarvuz yetishtirilibdi. Boburshoh qovunni yaxshi ko'rar ekan, ammo bog'da xandalak bilan qovun bo'lmabdi. Boburshoh bir yil qovun ektiribdi-bitmabdi, ikkinchi, uchinchi yil ham ektiribdi, baribir qovun bitmabdi.

Birinchi yili gulidayoq tashlab yuboribdi. Ikkinchi yili palagi o'lib qolibdi, uchinchi yili pishib yetilmay turib, hammasi birdan band beribdi. Boburshoh bo'lsa, qovun topishni talab qilaveribdi. "Uch, undan keyin puch",-degan ekan mashoyixlar, to'rtinchi yili Boburshoh:

— Bu yil qovun hosil qilmasa hammangizning jazoingizni beraman,—deb qahr-g'azab qilibdi. Nima qilishni bilmay bog'bonlarning tozayam boshi qotibdi. Oxiri o'ylab- Boburshohga bildirmay uzoq Farg'onadan qovun olib kelishga ahd qilishibdi. Boburshoh bir necha kunga ovga ketibdi. Shu payt bog'bonlarning boshlig'i ham o'n bir kishini yoniga olib, "Farg'ona qayerdasan", deb yo'lga tushishibdi. Karvon yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, o'n kun deganda Farg'ona viloyatining Namangan shahriga yetib boribdi. Karvon ot-aravalarga qovun ortib, tez iziga qaytib, o'n kun deganda yana Hindistonga yetib kelishibdi. Shu orada ovdan qaytgan Boburshoh bog'bonlarning Farg'onaga borib kelganini bilmay qolibdi. Boburshoh bog'bondan qovun yo'qlatibdi. Qovunni olib kelishibdi. Boburshoh qovunni hidlab ko'rib: "Qayerda bitgan"? -deb so'rabdi. Bog'bon: "Bog'i Boburiy"da bitgan, -deb javob beribdi. "Yo'q, hidi boshqacha. Bunday hidli qovun bu yerlarda bitmaydi. Faqat bir o'lkada yetishadi, xolos. Sen meni aldayapsan", — debdi Boburshoh. "Aldagan bo'lsam, bilganingizni qiling, shohim. Bu qovun "Bog'i Boburiy"da bitgan" - so'zidan qaytmay debdi bog'bon. Boburshoh qovunni hidlay-hidlay, bo'yiga mast bo'lib, uni tilimlamoqchi bo'libdi. Qovun pichoq tegar-tegmas tarsillab yorilib ketibdi.

Boburshoh bog'bonga qarab:

— Yolg'on gapiribsan, qovunni qayerdan keltirganingni ochiq-oydin aytasan. Pichoq tegar-tegmas yorilib ketadigan qovun faqat men biladigan o'lkadagina bitadi. Sen mening savolimga ham to'g'ri javob bermading. Qahrim qattiqligidan qo'rhmayсанmi?—debdi.



— Oliy hazrat, aldasam boshimni tanamdan judo qiling, mayli, men roziman. Siz ko‘rib turgan qovun “Bog‘i Boburiy” da bitgan, - debdi bog‘bon yana bilmagan bo‘lib. Tilida shunday debdi-yu, ichida: “Boburshoh, qani polizni ko‘rsat, deb qolsa holim ne kecharkin?”- deb o‘ylab vahimaga tushibdi. Buni Boburshoh sezibdi-yu, o‘zini bilmaganga olibdi. Qovun shirinligidan tilni yorar emish. Boburshoh qovunning tilimini yeb bo‘lib bog‘bonga qarabdi: «Yo‘q, sen meni aldayapsan. Bunaqa shirin, tilyorar qovun bu yerlarda bitmaydi. Boshqa joydan keltirgansan. To‘g‘risini aytsang, gunohingni kechaman, bordi-yu meni aldab, yana yolg‘on gapiradigan bo‘lsang, boshingni tanangdan judo etaman», — debdi.

Shoir va fozil Boburshohni aldab bo‘lmasligini bilgan bog‘bon rostini aytishga majbur bo‘libdi:

— Farg‘ona viloyatining Namangan shahridan keltirdik, -debdi bog‘bon ko‘ziga jiqqa yosh olib. — Rostini aytdingiz, shohim, bunaqa qovun, siz aytganingizdek, faqat o‘sha yoqlarda bitadi. Namangan shakarpalagi degani shu...

Bog‘bonning gapidan Boburshohning ko‘ngli buzilib, yig‘lab yuborishga ozgina qolibdi. Bog‘bon: «Shohim, qovunni qayerdan olganimni so‘rab bilib oldingiz. Endi nima qilsangiz ixtiyoringiz o‘zingizda. Ammo o‘limim oldidan men ham sizdan bir so‘rovimga javob berishingizni tilayman»,—debdi. Boburshoh: «So‘ra so‘rovingni» degan ekan, bog‘bon: «Qovun bu yerdan emasligini qaerdan bildingiz?»—debdi. «Hididan, pichoq tegar-tegmas yorilib ketishi va tilni yorar shirinligidan ona-Yurtim qovuni ekanligini angladim. Rahmatli otam bog‘idagi polizda shunaqa shakarpalak ko‘p bo‘lardi. Uzoq hindu yurtida turib o‘z shahrim shakarpalagi bilan siylaganing uchun gunohkor bo‘lmay, in‘om-ehsonlarga loyiqsan», - deb Boburshoh bog‘bonga rahmatlar aytib, bir sidra sarpo berdiribdi-da, ushbu ruboiyni o‘qibdi:

Tole‘ yo‘g‘i jonimga balolig‘ bo‘ldi,

Har ishniki aylasam xatolig‘ bo‘ldi.

O‘z yerni tashlab hind sori yuzlandim,

Yo rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi!

(“O‘zbek xalq asotirlari” kitobidan)

### Savol va topshiriqlar:

1. Mirzo Bobur nima maqsadda bog‘ barpo etdi?
2. Bog‘ga qanday nihollar ekildi?
3. Bog‘da qaysi poliz ekinining unishi qiyin bo‘ldi?

4. Nima sababdan bog‘bon shoh Boburni aldashga majbur bo‘ldi?
5. Qovun qayerdan keltirilgan edi?
6. Boburshoh nima uchun bog‘bonga in‘om-ehson berdi?
7. Matndagi so‘z birikmalarni aniqlang.
8. Bobur ruboiysining ma‘nosini o‘z so‘zingiz bilan tushuntirib bering.
9. Ruboiyni yod oling.

### Lug‘at

Rezavor - зелень

Shakarpalak - название сорта дыни

In‘om-ehson - подарок

Tole‘ - фортуна, счастье

Balolig‘ – беда

### Holat ravishi.

(Наречие образа действия)

Наречия образа действия указывают, каким образом или способом совершаются действия. Отвечают на вопросы *qanday?* – как?, *qanday qilib?* - каким образом?

В предложении наречия образа действия обычно стоят перед сказуемым. *Valya matnning mazmunini o‘zbek tilida to‘g‘ri gapirib berdi.*  
- Валя правильно рассказала содержание текста на узбекском языке.

**Asta, sekin, tez, jim, birdan, bittalab, ketma-ket, piyoda, birga, qisman, zo‘g‘a, majburan, faol, yonma-yon, qahramon-larcha, yangicha, do‘stona, ochiq.**

**147-mashq.** *Quyidagi savollarga yozma javob bering. Javobingizda holat ravishlaridan mosini qo‘ying.*

- Darsda sizdan qanday o‘tirish talab qilinadi?
- O‘qituvchi bilan qanday munosabatda bo‘lasiz?
- Litseyga qanday yol bilan kelasiz?
- O‘quvchilar darsga qanday qatnashadi?
- Eshikdan qanday qilib chiqish kerak?

**148- mashq.** *She‘rni o‘qing va o‘rin ravishlarini ajrating.*

Tinimsizdir yolg‘iz shabboda,  
Maysalarning sochi silkinar,  
Mana, hozir chirqirab turgan

Parrandalar, qushlar ham tinar...  
Hamma uxlar va faqat tunni  
Mening o'zim qarshi olurman,  
Qarshi olur va tongga qadar  
Mening o'zim uyg'oq qolurman.

Qulog'imga sekin shivirlab  
Tun uyquni o'rgatar menga,  
Bo'lganmisan tunda sahroda?  
Bo'lmasa kel, so'ylayin senga...

*Hamid Olimjon*

### **Daraja-miqdor ravishi**

(Наречие меры и степени)

Наречия меры и степени указывают на меру и степень действия и признака. Отвечают на вопросы qancha? сколько?, qay darajada? – в какой степени? Gapni kam so'zla, ishni ko'p ko'zla. (Maqol) Менше говори, больше делай. (Пословица)

**Kam, oz, ko'p, ancha, juda, eng kam, biroz ko'p.**

**149-mashq.** *Quyidagi so'z va so'z birikmalari yordamida gap tuzing.*

Bir oz kechikmoq, har qancha harakat qilmoq, juda sevinmoq, ko'p kutmoq, sira gapirmaslik, ko'p ishlash.

**150-mashq.** *Maqollarni yod oling. Ravish so'zlarni aniqlang.*

1. Ko'p gapirgan kam ish qiladi.
2. Sihat tilasang ko'p yema, izzat tilasang ko'p dema.
3. Ko'pdan ko'p aql chiqar.
4. Befoyda so'zni ko'p aytma, foydali so'zni eshitishdan qaytma.
5. Oz degan oz yengilar, oz yegan oz yiqilar.

**151-mashq.** *Quyidagi ravishlar ishtirokida gaplar tuzing.*  
Piyoda, arang, lim, tez, mardona, astoydil.

**152-mashq.** *Nuqtalar o'rniga mos ravishlarni qo'yib ko'chiring.*

1. Endi ... o'tirib dam olgim keldi.

2. Yomg'ir ... tingan.
3. Mashina va avtobuslarni ... boshqa yo'ldan qatnaydigan qilib qo'ydi.
4. Quyosh botishi bilan ... qop-qorong'i bo'lib qoldi.
5. Qurilishga ... muhandislar, ishchilar kela boshladi.  
(vaqtincha, hamma yoq, ko'plab, allaqachon, birpas )

### 38-mashg'ulot

#### Temuriylar muzeyida

**Topshiriq.** *Amir Temur xiyoboni va Temuriylar muzeyi haqida taassurotlaringizni yozing.*

**153-mashq.** *Berilgan dialog namunasida suhbat tashkil eting.*

—O'zbekistonning viloyatlarini bilasizmi?

—Ha, bilaman.

—Ular qaysilar?

—Ular Andijon, Buxoro, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlari.

—O'zbekistonda shaharlar ko'pmi?

—Ha, respublikamizda o'nlab katta-kichik shaharlar mavjud.

—Ulardan eng kattalari qaysilar?

—Ulardan eng kattalari Toshkent, Samarqand, Andijon, Buxoro va Farg'ona shaharlaridir.

—Siz qaysi shaharlarda bo'lgansiz?

—Men Samarqand va Buxoro shaharlarida bo'lganman.

**154-mashq.** *Quyidagi she'rni o'qing, ajratilgan so'zlarga lug'at tuzib yozing.*

### Buxoro

**Ochilmas** yer yuzida Buxoro nomi,  
**Toki yashnar** ekan Buxoriy nomi.

**Mangu esaverar** Termiz yellari,  
**Toki nur taratgay** Termiziyolari.

**O'tdi** bu tuproqdan neki jon bordir,  
**Hazrat Yassaviy** bor – Turkiston bordir.

Amudaryolari **abadiy** azim,  
Manguberdilari mangu Xorazm.

Ulug' Temurxonning **shavkat-u shoni**,  
Shahrisabz, Samarqand—jahon ayvoni.

**Dunyo** g'urbatiga nazar tashlablar,  
O'tdi Boburlar-u o'tdi Mashrablar.


*Sirojiddin Sayyid*

## **Buxoro**

*Topshiriq.* Matnda berilgan ma'lumotga qo'shimcha fikr yozing.

Buxoro O'zbekistonning qadimiy shaharlaridan biri. U Zarafshon daryosining quyi oqimida, O'zbekistonning janubi-g'arbida joylashgan. Toshkentdan 616 kilometr uzoqlikda. Aholisi 400 mingdan oshiq.

Buxoro milodning boshlarida barpo etilgan. Buxoro nomi hindcha "Buxara" (qadimgi budda dini rohiblarining yig'lish joyi), eroncha "Bixar" atamasi bilan aloqador. Qadimda u Numijqat, Bumijqat va Bumisqat hamda Bohira nomlari bilan atalgan.



Buxoroda jahonga mashhur Abu Ali Ibn Sino (930-1037), Bahautdin Naqshband, shoir Rudakiy, tarixchilardan Daqiqiy, Ba'lamiy va boshqa yuzlab ulug' allomalar yashaganlar.

Buxoro qadimdan katta savdo yo'li ustida joylashgan. U eng yirik hunarmandchilik, savdo-sotiq, madaniyat markazi hisoblanadi.


XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoroda 12ta mahalla, 360dan ortiq guzar, 250dan ortiq madrasa, 390 masjid, 150 ga yaqin karvonsaroy, 350ta hovuz bo'lgan.

So'nggi yillarda Buxoroning qiyofasi tubdan o'zgardi. U O'zbekistonning eng qadimiy madaniyat markazlaridan biriga aylandi.

## Xiva

*Topshiriq.* Matndagi so'z turkumlarini aniqlang.

Xiva Markaziy Osiyodagi yagona muzey-shahar hisoblanadi. Xivaning arxitektura qiyofasi asosan XVIII asrning oxiridan XX asrning boshlarigacha shakllangan. Ansamblning yaxlitligi jihatidan Xiva O'rta Osiyoda yagona hisoblanadi. Unda eng qadimiy (XIV asr)



yodgorligi Said Aloviddin maqbarasi, eng muhim obidalari Ko'hna ark, Juma masjid, Oq masjid, Uch avliyo maqbarasi, Sherg'ozixon madrasasi, 163 xonadan iborat Tosh hovli saroyi, Islom xo'ja minorasi, Kalta minor, 94 masjid va 63 madrasa qayd etilgan. Xiva shahri hozir 2500 yoshda.

**155-mashq.** *Berilgan matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.*

Детская оздоровительный комплекс «Кибрай» закончив активную подготовку к летнему сезону, принял под своё крыло 418 детей железнодорожников.

Когда ребенок попадает в атмосферу детского лагеря, он начинает развивать свои социальные качества, повышает самооценку и веру в собственные силы, становится более самостоятельным и приобретает навыки коммуникативного характера. («Темирйулчи»)

**156-mashq.** *Quyidagi so'zlarni o'qing, lug'at tuzib yozing.*

Nomi tilga tushdi, kitoblar va kitobxonlar, ijod davri yaratildi, badiiy tarjima, o'ziga xos mahorat, yozuvchilar uyushmasi, yodgorlik.

**157-mashq.** *Gaplarni ko'chiring, ravish bilan ifodalangan so'zini topib ostiga chizing, gaplarni og'zaki rus tiliga tarjima qiling.*

1. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi shoirlarning yangi asarlarini kitobxonlar katta qiziqish bilan kutadi. 2. Atoqli adiblar Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhorlar ham badiiy tarjima bilan shug'ullanganlar. 3. Hozirgi kunda ko'pgina o'zbek yozuvchi va shoirlarimiz badiiy tarjima sohasida ham o'ziga xos tarjimonlik mahoratini namoyish qilmoqdalar. 4. Ko'pgina yosh shoirlar yozuvchilar uyushmasining a'zosi. 5. Shoir Turob To'laga Chig'atoy qabristonida yodgorlik haykali o'rnatilgan.

**158-mashq.** *Qavs ichidagi ruscha so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qilib o'qing.*

1. Ikromning dadasi yozuvchilar (СОЮЗ) a'zosi: 2. Kecha kutubxonada (книгалолюбителей) yig'ilishi bo'ldi. 3. Usmon Nosimning (творческий период) juda qisqa bo'lgan. 4. Juda ko'p yozuvchilar va shoirlar (творческий перевод) bilan shug'ullanganlar. 5. Har bir o'quvchi (своеобразный) xususiyatga ega. 6. 9-«А» sinf o'quvchilari kechada (высокое мастерство) ko'rsatdilar. 7. Ular bobolariga (памятник) qo'ydilar.

## 39-mashg'ulot

### Ulkan qurilish maydoni

**159-mashq.** *Matnni o'qing va transport qulayliklari haqida so'zlab bering.*

#### Azamat bunyodkorlar

Yurtimiz mustaqilligi yillarida qurilayotgan temir yo'llar, yangi-yangi bekatlar, qo'shma korxonalar haqida qancha g'ururlanib gapirsak oz. Amudaryo ustida tez sur'atlar bilan bunyod etilgan avtomobil va temir yol ko'prigini ham shunchalik g'ururga to'la tilga olamiz. Ushbu ko'prik sharofati bilan poyezdlar Miskindan Xorazmga qaytib, O'zbekistonning ajratib turgan ikki hududi – Qoraqalpog'iston va ko'hna Xorazm daryolarini bir-biri bilan tutashtiradi. Ushbu ulkan ko'prik qurilishida toshkentlik ko'priksozlarning 1367, qoraqalpog'istonliklarning 14, andijonliklarning 68 ko'priksozlar, shuningdek "Xorazm-trans", "Tuyamo'yinsuvqurish", "Osiyo-ko'prik", "Mehmost" kabi o'nlab katta tashkilot quruvchilari ishtirok etishdi.

Ko'prikning temir beton firmalari To'ytepa metal konstruksiyasi zavodida yig'ilgan 11 ta prolyotning har biri 1220 mm diametrli quvurlari mustahkam o'rnatilgan bo'lib, suv ostidan 35 metr chuqurlikkacha kirgan. Ushbu ko'prikning loyiha qiymati yon atrofdagi yo'llar bilan hisoblanganda 33,5 mld. so'mni tashkil etadi.

**160-mashq.** *O'zbek tiliga tarjima qilib, o'qing.*

1. Мы живем в республике Узбекистан. 2. Республика Узбекистан расположена в Средней Азии. 3. Столица Республики Узбекистан – Ташкент. 4. В нашей республике живут дружно представители разных национальностей: узбеки, русские, татары, казахи, таджики, корейцы и др.

#### **Topshiriqlarni bajaring.**

1. Ravish so'z turkumiga oid so'zlarni o'zi bog'langan so'z bilan daftaringizga yozing.

2. Ravish so'zlarni sinonim (ma'nodosh) so'zlar bilan almashtirib o'qing.

3. Respublikamizda 20 yil mobaynida barpo etilgan ulkan qurilishlar haqida insho yozing.

## 40-mashg'ulot

### Yakuniy nazorat



## **Dastur o'zlashtirilishini ta'minlash uchun zaruriy darslik va qo'llanmalar ro'yxati:**

1. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. – T.: O'qituvchi, 1995.
2. J. Jalolov. Chet til o'qitish metodikasi. T.: O'qituvchi, 1996.
3. O' .H. Hoshimov. I. Ya. Yoqubov. Ingliz tili o'qitish metodi-kasi. – T.: O'qituvchi, 1993.
4. Общая методика преподавания иностранных языков в средних специальных учебных заведениях. Под редакцией А.А.Миролюбова. – Москва. «Восточная школа», 1978.
5. Практикум по развитию речи. Части 1 и 2. Под ред. Г.Г.Городиловой и А.Г.Хмары. – Ленинград. Просвещение, 1988.
6. В.Г.Костамаров, О.Д.Митрафанова. Методическое руководство для преподавателей русского языка иностранцам. – М.: Русский язык, 1984.
7. Методика преподавания русского языка как иностранного. Под ред. А.Н.Хукина. – М.: Русский язык, 1990.
8. Е.И.Пассов. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. М.: Просвещение, 1991.
9. "Orta maxsus o'quv yurtlarining rus gruppasi o'quvchilari uchun o'zbek tilining amaliy kursi"dan metodik tavsiyanoma va programma/ T/: RTM, 1991.
10. E. Shodmonov, A. Rafiyev, S. G'oirov. O'zbek tili darsligi o'rta maxsus o'quv yurtlari uchun. – T.: O'zbekiston, 1994.
11. X. Abdurahmonov, E. Shodmonov, A. Rafiyev. O'zbek tili hunar-texnika bilim yurtlari uchun darslik. 2-nashri. – T.: O'qituvchi, 1995.
12. К. Алликметс, А. Метса. Язык... Ситуации... Общение. – Таллин: «Валгус», 1987.
13. N. Mahmudov va boshqalar. O'zbek tilida ish yuritish. — T.: Qomus, 1990.
14. Qo'chqortoyev, A. Rafiyev. Kundalik muloqot so'zlashgichi — Разговорник повседневного общения. — T.: O'zbekiston, 1994.
15. M. To'xtamirzayev, Yu. Azixonova. O'zbek tili: rusiyazbon o'quvchilar uchun amaliy kurs dasturi. — T.: RTM, 1997.
16. И. У. Асфандияров. Восточная лексика в русском языке. — T.: Фан, 1991.
17. V. I. Krasnix. S. G'oirov. O'zbekcha-ruscha va ruscha-o'zbekcha so'zlashuv kitobi. — M.: Русский язык, 1989.

18.R.Qo'ng'urov va boshqalar. Nutq madaniyati va uslubiyot asoslari. — T.: O'qituvchi, 1992.

### QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. Sezgin Demirel. İlkeler, yontenler, teknikler. — Ankara, 1993.

2. Reinecke W. Linguodidaktik. — Leipzig, 1985.

3. И.А.Зимняя. Психология общения народному языку. — М.: Русский язык, 1989.

4. A.Rafiyev, T. O'z Turk, M. Isoqova. O'zbek tili va adabiyoti fanidan o'quvchilar bilimini reyting usulida baholash. — T.: RTM, 1996.

5. A.G'ulomov, D. Qobilova. Nutq o'stirish. — T.: O'qituvchi, 1994.

6. S.Rizayev. Ish qog'ozlari namunalari. — T.: O'zbekiston, 1995.

7. Л.З.Шакирова, Л.Г.Саяхова. Практикум по методике преподавания русского языка в национальной школе. Санкт-Петербург. Просвещение, 1992.

8. M.To'xtamirzayev. Qo'ng'iroq chalingandan so'ng: o'zbek tilidan sinfdan tashqari ishlar. - T.: RTM, 1996.

9. M.To'xtamirzayev va boshqalar. Dunyoning ishlari. — T.: RTM, 1997.

10. Davlat tilida sinfdan tashqari ommaviy tadbirlar: o'quv-metodik qo'llanma. M.To'xtamirzayev tahriri ostida. — TV: RTM, 1998.

11. Musiqali o'zbek tili ta'limi. 1- va 2-kassetalar. — T., 1996.  
«Uzliksiz ta'lim», «Ta'lim muammolari», «Til va adabiyot ta'limi»  
jurnallari.

## MUNDARIJA

<b>Mashg'ulotlar nomi</b>	<b>bet</b>
1- mashg'ulot.....	3
2- mashg'ulot.....	7
3- mashg'ulot.....	9
4- mashg'ulot.....	15
5- mashg'ulot.....	21
6- mashg'ulot.....	36
7- mashg'ulot.....	43
8- mashg'ulot.....	44
9- mashg'ulot.....	53
10- mashg'ulot.....	56
11- mashg'ulot.....	60
12- mashg'ulot.....	61
13- mashg'ulot.....	66
14- mashg'ulot.....	70
15- mashg'ulot.....	70
16- mashg'ulot.....	73
17- mashg'ulot.....	78
18- mashg'ulot.....	80
19- mashg'ulot.....	81
20- mashg'ulot.....	83
21- mashg'ulot.....	83
22- mashg'ulot.....	87
23- mashg'ulot.....	92
24- mashg'ulot.....	96
25- mashg'ulot.....	106
26- mashg'ulot.....	109
27- mashg'ulot.....	114
28- mashg'ulot.....	114
29- mashg'ulot.....	117
30- mashg'ulot.....	122
31- mashg'ulot.....	125
32- mashg'ulot.....	130
33- mashg'ulot.....	137
34- mashg'ulot.....	139
35- mashg'ulot.....	139
36- mashg'ulot.....	144

37- mashg'ulot.....	148
38- mashg'ulot.....	155
39- mashg'ulot.....	159
40- mashg'ulot.....	159
Dastur o'zlashtirilishini ta'minlash uchun zaruriy darsliklar va qo'llanmalar ro'yxati.....	160

R.NIYOZMETOVA, J.SAMIGOVA, M.MIRMAXSUDOVA

# O‘ZBEK TILI

(Akademik litsey rus guruhlari  
birinchi bosqich o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma)

## I

*Muharrir Zuhra Keldiboyeva*

*Texnik muharrir Ilhom Qosimov*

*Musahhih Ozoda Qo‘ldosheva*

KBK 83. 13 (5 O‘zb)

M.40

UDK: 513. 10. 4.

ISBN 978-9943-381-16-2

“Navro‘z” nashriyoti.

Toshkent, Amir Temur ko‘chasi 19 uy.

Bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$  «Times New Roman»  
garniturasida. Ofset usulida bosildi.

Bosma tabog‘i 10,25. Adadi 300. Buyurtma № 153.

Nizomiy nomidagi TDPU Rizografida nashr qilindi.

ISBN 978-99-43-381-16-2



9 789943 381162